3. 2-12 kunlar oralig'ida parvarishdagi nuqsonlar natijasida (kindik cho'ltog'i siydik va axlat bilan ifloslanganda, parvarish asboblari yoki xodimlarning qo'llaridan infeksiya tushib qolishi va bolaga qarovchilardan havo-tomchi infeksiyalari o'tishi natijasida). Kindik cho'ltog'i tushishi va kindik yarasining bitishi uzoqqa cho'zilib ketgan hollar bolaning qandaydir infeksiya bilan zararlanganligidan dalolat beradi.

Omfalit – aksari yallig'lanish jarayonining kindik chuqurchasi sohasida yoki kindik atrofidagi teri va boshqa to'qimalarga tarqalishi bilan xarakterlanadi. Mikroblar ko'pincha kindik yarasidan kindik tomirlariga o'tib oladi va kindik arteriyalari hamda venasida o'rnamashgan bo'ladi. Klinikasi. Omfalitning quyidagi asosiy formalari: oddiy, fibrinoz (yiringli), flegmonoz va nekrotik farq qilinadi. Omfalitning «pilchirab yoki namlanib turadigan kindik» degan nom bilan ataladigan oddiy formasi, kindik qoldig'i tushib ketganidan keyin ham kindik jarohatining hadeganda bitavermasligi, seroz yoki yiringli seroz suyuqlik tomchilari yuziga chiqib turadigan granulatsiyalar bilan qoplanib turishi bilan xarakterlanadi. Bu suyuqlik qotib, qora qo'tir po'stlar hosil qiladi va u asta-sekin tushib ketadi. Bunday kindik jarohati bir necha hafta davomida bitadi,

bolaning umumiy ahvoli esa deyarli qoniqarli bo‘lib, barcha fiziologik hojatlari (ich qilishi, siyishi, uyqusi, ishtahasi va boshqalar) normada bo‘ladi, tana vazni odatdagiday ortib boradi. Omfalitning yiringli yoki fibrinoz formasi yallig‘lanish jarayonining kindik atrofi va unga yaqin turgan to‘qimalarga tarqalib ketishi bilan xarakterlanadi. Kindik atrofida teri qizarib, shishadi va infiltratsiyalanadi, kindik sohasi esa qorin yuzasi ustidan do‘mpayib chiqib turadi. Kindik chuqurchasining tubida esa ko‘pchilik hollarda kichkinagina yara paydo bo‘ladi. Yallig‘lanish jarayoni qorinning oldingi devoriga tarqalib ketishi yoki chegaralangan holda mahalliy bo‘lib qolaverishi ham mumkin. Aksariyat hollarda kindik atrofi bosib ko‘rilganda kindik yarasidan yiring chiqishi kuzatiladi. Flegmonoz omfalit yiringli formalariga unchalik e‘tibor berilmagan hollarda rivojlanadi va infeksiyaning qorin devorining chuqur qatlamlariga kirib borganligidan dalolat beradi. Bunday holat esa bolada peritonit(qorin pardasining yallig‘lanishi) kelib chiqishiga sabab bo‘lib qolishi mumkin. Kasallikning bu formasida bolaning umumiy ahvoli o‘zgarib, tana harorati ko‘tariladi, ishtahasi pasayadi, tana vazni kamayadi, organizmning umumiy zaharlanish belgilari va dispeptik (qayt qilish, ich ketishi va boshqalar) o‘zgarishlar kuzatiladi. Omfalitning nekrotik formasi hozirgi vaqtlarda olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida kamdan-kam hollarda, odatda ozg‘in, qandaydir sabablarga ko‘ra organizmning reaktivligi pasaygan bolalarda uchraydi. Omfalitning har qanday formasida infeksiyaning kindik tomirlariga o‘tib ketish xavfi kuzatiladi, chunki kindik sepsisi aksariyat hollarda mana shu yerdan boshlanib ketadi.

XULOSA

«Pilchirab turuvchi kindik» yoki omfalitning oddiy formasida faqat mahalliy davolash o‘tkaziladi va uni hamshira ambulatoriya sharoitida, bolalar shifokorining nazorati ostida olib borishi ham mumkin. Omfalitning flegmonoz formasi kuchli davolash o‘tkazilishini taqozo etadi. Bolaga 10-14 kun davomida ta’sir doirasi keng antibiotiklar, mikroblarning sezuvchanligini hisobga olgan holda sulfanilamid vositalaridan foydalanib davolash olib boriladi. Davolash muolajalari bolaning ahvoliga qarab statsionar yoki ambulator sharoitda o‘tkazilishi mumkin. Profilaktikasi. Kindikning turli kasalliklarining oldini olishda asosiy e‘tibor chaqaloqning tug‘ilish jarayonidagi, kindik parvarishi vaqtidagi, ona bilan birga olib boriladigan keyingi parvarish maholidagi aseptika va antiseptika hamda sanitariyagigiyenik qoidalarining ahamiyati nihoyatda katta. Shularni hisobga olgan holda, tug‘uruq zali va bolalar blokida ishlovchi tibbiy xodimlar zimmalaridagi mas’uliyatni to‘la his etishlari talab etiladi. Chaqaloq aksariyat vaqtini onasi bilan o‘tkazadi. Demak, kasalliklarning oldini olish onalarning qanchalik bola parvarishi haqida mukammal bilim va malakaga ega bo‘lishiga bog‘liq. Chaqaloqlarda yuqoridagi kindikning yiringli kasalliklaridan tashqari tug‘ma kasalliklari ham uchraydi. Bularga terili kindik, amniotik kindik va ko‘proq uchraydigan kindik churrallari kiradi. Kindik churrallari — bunda qorin

bo'shlig'idagi a'zolar kindik halqasi yaxshi rivojlanmaganligi natijasida bo'rtib chiqib qoladi. Churra ichida aksariyat hollarda ichak charvisi, ichaklar, kamdan-kam hollarda boshqa a'zolar bo'lishi mumkin. Kichik hajmdagi churralar qorin bo'shlig'iga qaytib kirib ketadi va ko'pchilik hollarda ko'rilgan konservativ choralar (bolani churrasi kiritib qo'yilgan holatda kuniga 2-3 marta, 2- 5 daqiqagacha yotqizib qo'yish, yuqoriga qarab yotgan mahalida churraning chiqib qolishining oldini olish choralari ko'rish va boshqalar) natijasida churra teshigi berkilib ketadi. Bordiyu churra hajmi kattaligidan o'zicha bitib ketishining ehtimoli bo'lmasa, uni jarrohlik yo'li bilan davolanadi. Aks holda, ichaklar faoliyati buzilishi, ayrim hollarda esa churraning qisilib qolishidan ichaklar nekrozga uchrab qolishi mumkin. Bolaning tinmasdan yig'lashi, tana haroratining ko'tarilishi, churraning tarang tortilganligi va qorin bo'shlig'iga qaytarishning iloji yo'qligi, qayt qilish va ich kelmay qolishi churraning qisilib qolganligidan dalolat beradi. Bolani darrov jarrohlik bo'limiga yetkazish choralari ko'ring.

Adabiyotlar

- 1.Q.Inomov, M.G'aniyeva. *Pediatryada hamshiralik ishi.* –T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007.
- 2.Проект усовершенствования медсестринского образования в Узбекистане. Учебная программа и руководства по преподаванию. Представительство JICA в Узбекистане. Т., 2008.
- 3.A.J.Hamrayev, M.A.Xamedova. *Xirurgiya.* –T.: «O'qituvchi», 2002.
- 4.Ya.Allayorov, Ya.Tojiboyev. *Favqulotda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari.* – T.: «Zar qalam», 2005.
- 5.A.M.Запруднов, К.И.Григорьев. *Наука о детских болезнях.* Москва. 1997.
6. J.Eshqobulov; A.Mahmudov. *Bolalar kasalliklari fani.* –T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1993.
- 7.K.Svyatkina, E.V.Belogorskaya, N.P.Kudryavsev. *Bolalar kasalliklari fani.* –T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1990.
- 8.Bir yoshgacha bo'lgan bolalarni ovqatlantirish xususiyatlari. –T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2002.
- 9.Bolalar kasalliklari propedevtikasi. –T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1997.
10. Y.K.Subulkina. *Bolalarga tez tibbiy yordam.* –T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1991.
11. А.Ф.Краснов. «Сестринское дело». 2-том. Москва, 2000.
12. «Семейная медицинская сестра». Копенгаген. ВОЗ, 2002.
13. А.Р.Майерс. «Терапия». М.: ГЭОТАР, 1996.

GERIATRIK MODDALAR VA GERIATRIK YORDAMNI TASHKIL QILISH

Tuychiyeva Sabina Sharofiddin qizi

Samo12345aza@gmail.com

Amonova Nigina Muxiddinovna

Amonovanigina0512@gmail.com

Abdurafova Mexribonu Shokir qizi

mehribonuabdurafova@gmail.com

Urgut Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi

Аannotatsiya: ushbu maqolad geriatrik moddalara va geriatric yordamni tashkil qilish, hamda reabilitatsiya usullari xususidagi fikrlar berilgan.

Kalit so'zlar: erta qarish, geriatrik moddalar, vitaminlar, geriatrik yordam, reabilitatsiya.

Аннотация: В этой статье представлены гериатрические вещества и идеи, касающиеся организации гериатрической помощи, а также методов реабилитации.

Ключевые слова: преждевременное старение, гериатрические вещества, витамины, гериатрическая помощь, реабилитация.

Aannotation: this article provides opinions on the organization of geriatric substances and geriatric care, as well as methods of rehabilitation.

Keywords: premature aging, geriatric substances, vitamins, geriatric assistance, rehabilitation.

KIRISH

Erta qarishning oldini olish uchun qo'llaniladigan dori moddalari geriatrik moddalar deb ataladi. Ular organizmdagi moddalar almashinuvini me'yorga keltiradi, asab tizimi va boshqa funksiyalar ishini yaxshilaydi, ya'ni yoshartiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Vitaminlar. Yosh o'tgan sari organizmning vitaminlarga talabi ortadi. Vitaminlar moddalar almashinuvining katalizatori bo'lib, fermentlar ta'sirini amalga oshiradi. Aterosklerozning oldini olish va davolashda C, P, E, B6, B12, PP vitaminlari va folat kislotasi qo'llanadi. Askorbin kislotasi (C vitamin) ateroskleroz kasalligida lipid almashinuvini yaxshilaydi, qonda xolesterin miqdorini kamaytiradi. P vitamini askorbin kislotasi bilan birga qo'llanganda, kapillarlar o'tkazuvchanligini yaxshilaydi, gialuronidaza ta'sirini tormozlaydi, gistamin hosil bo'lishini kamaytiradi. Piridoksin, B12 vitamini, folat kislotasi ham lipotrop ta'sir ko'rsatadi. Stenokardiyada, trombangitda, ishemik holatlarda nikotin kislotasi keng qo'llanadi. D vitaminini keksa yoshli odamlarga tayinlab bo'lmaydi, chunki ateroskleroz holatini tezlatadi.

Dekamevit, undevit, meteonin kabi vitaminlar kompleksi gerontologik bemorlarga yaxshi naf beradi. Geriatrik bemorlarni mikroelementlar, novokainoterapiya, gormonlar va biogen stimulatorlar bilan davolash organizmning qarshilik qobiliyatini oshiradi, fiziologik funksiyalar ishini quvvatlaydi. Qariyalarga fizioterapevtik muolajalarni tayinlashda yurak va tomirlar tizimidagi yoshga aloqador o'zgarishlarni e'tiborga olib, tekshirishlar o'tkazib, keyin tayinlanadi. Bunday bemorlarga dorilar elektroforezi, ultratovush bilan davolash, mahalliy ultra yuqori chastotali davo, past dozalarda Bernard toki, galvanizatsiya yaxshi naf beradi. Ultrabinafsha nurlariga sezgirlik qarilikda oshib ketadi. Suv muolajalarni tayinlashda albatta elektrokardiografiya o'tkazilgach, ruxsat berilgani ma'qul. Bemorlar kislorodli, azotli, yod bromli vannalarni yaxshi ko'radilar, sulfidli va narzan vannalari, suv osti massaji yurak xastaliklarida tayinlanmaydi. Sanatoriya va kurortlarga 65–70 yoshlardan keyin tavsiya etish noo'rindir.

ASOSIY QISM

Aholi sonining qariyalar hisobiga ortib borishi geriatrik yordamni to'g'ri tashkil qilish, uning tibbiy va ijtimoiy asoslarini bilishni taqozo etadi. Qariyalarga davlat va jamiyat tomonidan diqqat-e'tibor, g'amxo'rlik ko'rsatishni oshirish hamda ularni ijtimoiy muhofaza qilishni, moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish maqsadida respublikamizda 2002-yil «Qariyalarni qadrlash yili», 2015-yil «Kaksalrtni e'zozlash yili», deb e'lon qilinganligi keksalarni ijtimoiy muhofaza qilish, ularning nafaqa ta'minotini takomillashtirish, malakali tibbiy yordam olishini (hattoki, uzoq tumanlarda yashaydiganlarni ham ta'minlash), qari odamlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda maxsus tibbiy xizmatlar kompleksini kengaytirish; har yili poliklinikalarning ixtisoslashtirilgan bo'limlarida profilaktik tibbiy ko'rik va davolash hisobiga amalga oshiriladi. Gerontologik markazlar yaratilib, aynan qariyalar uchun ishlatiladigan dori-darmonlar ishlab chiqariladi va ularni arzon narxlarda yoki bepul tarqatiladi (imtiyozi bor qariyalarga), sanatoriy-kurort, kommunal-maishiy va transport xizmatlari ko'rsatishni yaxshilash borasidagi chora-tadbirlar yanada kuchaytirishga; – yolg'iz qariyalar, pensionerlar, urush qatnashchilari va nogironlarga g'amxo'rlikni kuchaytirishga, ularning dori-darmonlar va ijtimoiy xizmat ko'rsatish bilan ta'minlanishi darajasini oshirishga; – jamiyat qurilishidagi faol ishtiroki, sog'lom avlodni tarbiyalash, yoshlarga boy hayotiy va kasbiy tajribalarini, urf-odatlar va madaniy boyliklarni yetkazishlarini yaxshilaydi. Barcha chora-tadbirlar ezgu urf-odatlarini targ'ibot qilishda oila, mahalla, ijodiy uyushmalar, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalarining ahamiyatini oshirishga, har bir oilada tinch va baxtli muhit jamiyatda barqarorlikni shakllantirishda katta yoshdagi odamlarning ulkan hissa qo'shishiga zamin yaratadi; 35 – bolalar va yoshlar ota-onalar hamda qariyalarni izzat-hurmat qilish, qadrlash va ular to'g'risida g'amxo'rlik qilish ruhida tarbiyalash hamda

ta'lim berish tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan. Bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatish bilan bir qatorda, uning ish qobiliyatini tiklashga, ruhiy tetikligini oshirishga va Qizil Yarim Oy jamiyati bilan aloqa o'rnatishga yordam bermoq kerak. Yolg'iz yashaydigan, o'ziga o'zi xizmat qila olmaydigan qariyalar uchun qariyalar uyi tashkil qilingan bo'lib, ularda barcha shart-sharoitlar yaratilgan.

Qariyalarda qon aylanish doirasining yoshga aloqador o'zgarishlari va kasalliklari, qon tomirlarining morfologik o'zgarishlari kuzatiladi. Yirik qon tomirlari devorlarida sklerotik o'zgarishlar, muskul qavatining atrofiyasi va elastikligining susayishi namoyon bo'ladi. Bu esa qon tomirlarining kengayishi va qisqarishi qobiliyatini pasaytirib, qon aylanishini izdan chiqaradi, arterial bosim ko'tariladi. Miokarddagi sklerotik o'zgarishlar yurak qisqartirishlarni kamaytiradi. Elektrokardiogrammaning barcha usullarida T-tishchening amplitudasida kamaygan bo'ladi, I, II, avl, V3-V6 usullarda keksa yoshdagi kishilarda T-tishcha doimo musbat bo'lib, ST segment esa izochiziqda bo'ladi. Bu esa yurakning ishemik kasalliklari diagnostikasi uchun muhim ahamiyatga ega. Kasallikda yurak-tomir kasalliklaridan o'lim ko'rsatkichlarining ortib borishi, avvalo, ateroskleroz va uning asoratlari, arterial gipertoniya va bu kasalliklar kechishining o'ziga xos xususiyatlari, davosi va parvarishining murakkabligiga bog'liq

XULOSA

Tibbiyot xodimlari geriatrik bemorlarga profilaktik reabilitatsiya tadbirlarini o'tkazishni bilishlari va uddalashlari kerak. «Reabilitatsiya» yoki sog'liqni qayta tiklovchi davo choralarining maqsadi geriatrik bemorlarni va nogironlarni oddiy turmush tarziga qaytarish, moslashtirish, begona odamlarga muhtojlikdan qutqarishdir. Reabilitatsiya murakkab jarayon bo'lib, to'rt turdan iborat: 1. Tibbiy reabilitatsiya – bemorlarni davolash. 2. Psixologik reabilitatsiya – bemorlarni ruhiy depressiya, tushkunlikka tushish holatidan chiqarish. 3. Ijtimoiy reabilitatsiya – jamoatchilik va oila davrasidagi hayotini tiklash. 4. Mehnat reabilitatsiyasi – mehnatga layoqatligini qisman yoki to'liq tiklash. Bemorlarni davolashning o'zi tibbiy reabilitatsiya hisoblanib, uning muvaffaqiyati davo nechog'liq erta boshlanganiga bog'liq. Reabilitatsiyaning barcha turlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bemor sog'lig'ini tiklashga qaratilgan. Qariyalarning reabilitatsiya davrida izdan chiqqan funksiyalarining tiklanishi, ko'rsatilgan davoning nafi juda sekinlik bilan namoyon bo'ladi. Reabilitatsiya davrida geriatrik bemorlarga tibbiyot xodimlarining muomalasi, xatti-harakatlari, ularning sog'ayishiga ishonch hissini uyg'otishi katta ahamiyatga ega. Bosh miya o'tkir qon aylanishning buzilishidan keyingi parez yoki falajliklarda, travmalarda erta boshlangan reabilitatsiya tadbirlari, harakatlar, mashqlar organizm funksiyalarining tiklanishiga yordam beradi. Mashqlarni asta-sekinlik bilan ko'paytirib borish lozim. Bemor reabilitatsiyasida mehnat bilan mashg'ul bo'lish muhim o'rin

egallaydi, bemorlarni ruhan tetiklashtiradi. Bunday bemorlarga mehnat sharoitini yengillashtirish, qulay sharoitlar yaratish kerak.

Adabiyotlar

1. G.D. Rajabova. «Gerontologiya». Toshkent. 2002.
2. N.N. Nasriddinova. «Geriatriya». Toshkent. 2003.
3. С.А. Мухина, И. И. Тарновская. Атлас по манипуляционной техники сестринского ухода. АНМИ. Москва, 1995 год.
4. M.F. Ziyayeva. «Hamshiralik ishi mutaxassisligi bo'yicha amaliyot standartlari». 2001-y.
5. L.S. Zalikina. «Bemorlarning umumiy parvarishi». «Abu Ali ibn Sino». 1996-y.
6. Yoshiyo Mori. «Bemorlarning jismoniy faolligini tiklash va rivojlantirish bo'yicha hamshiralalar parvarishining yangi uslublari». Toshkent. 2001-y.
7. Л. Алминда, Д. Селвидж, Д. Христерсен, Т. Умаров. Руководство для преподавателей сестринского дела и практических медицинских сестер. Абу Али ибн Сино. 2002 г.

DORIVOR O'SIMLIKLARNING INSON SALOMATLIGI VA TIBBIYOTDAGI AHAMIYATI

Yakubova Guldiyora Umedjon qizi
Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi
Jamoat salomatligi texnikumi

Annotatsiya: ushbu maqolada dorivor o'simliklarning inson salomatligi va tibbiyotdagi ahamiyati hamda dorivor o'simliklarning bazi xususiyatlari xususidagi fikrlar berilgan.

Kalit so'zlar: dorivor o'simliklar, giyohlar, salomatlik, tur, muhofaza, alkaloidli, glikozidli, efir moyli, vitaminli, tinchlantiruvchi, tabiiy.

Аннотация: В этой статье дается представление о важности лекарственных растений для здоровья человека и медицины, а также о некоторых свойствах лекарственных растений.

Ключевые слова: лекарственные растения, травы, здоровье, тип, защита, алкалоидный, гликозидный, эфирное масло, витаминный, успокаивающий, натуральный.

Aannotation: this article provides ideas on the importance of medicinal plants in human health and medicine, as well as some properties of medicinal plants.

Keywords: medicinal plants, herbs, health, species, conservation, alkaloid, glycosidic, essential oil, vitamin, calming, natural.

KIRISH

Dorivor o'simliklar — odam va hayvonlarni davolash, kasalliklarning oldini olish uchun, shuningdek, oziq-ovqat, atir-upa va kosmetika sanoatida ishlatiladigan o'simliklar — giyohlar. Yer yuzida dorivor o'simliklarning 10—12 ming turi borligi aniqlangan. 1000 dan ortiq o'simlik turining kimyoviy, farmakologik va is xossalari tekshirilgan. O'zbekistonda dorivor o'simliklarning 700 dan ortiq turi mavjud. Shulardan tabiiy sharoitda o'sadigan va madaniylashtirilgan 120 ga yaqin o'simlik turlaridan ilmiy va xalq tabobatida foydalaniladi. Hozirgi davrda tibbiyotda qo'llaniladigan dori-darmonlarning qariyb 40—47% o'simlik xomashyolaridan olinadi. O'simliklar murakkab tuzilishiga ega bo'lgan jonli tabiiy kimyoviy laboratoriya bo'lib, oddiy noorganik moddalardan murakkab organik moddalar yoki birikmalarni yaratish qobiliyatiga ega. Dorivor o'simliklarning quritilgan o'ti, kurtagi, ildizi, ildizpoyasi, tunganagi, piyozi, po'stlog'i, bargi, guli, g'unchasi, mevasi (ur'ugi), danagi, sharbati, qiyomi, toshchoyi, efir moyi va boshqalardan doridarmon tarzida foydalaniladi.

Dorivor o'simliklarni 2 xil tasniflash qabul qilingan:

1) ta'sir qiluvchi moddalarning tarkibiga qarab — alkaloidli, glikozidli, efir moyli, vitaminli va boshqalar,

2) farmakologik ko'rsatkichlariga qarab — tinchlantiruvchi, og'riq qoldiruvchi, uxlatuvchi, yurak-tomir tizimiga ta'sir qiluvchi, markaziy nerv sistemasini qo'zg'atuvchi, qon bosimini pasaytiruvchi va boshqalar. Dorivor o'simliklarning ta'sir etuvchi moddalari alkaloidlar, turli glikozidlar (antraglikozidlar, yurakka ta'sir etuvchi glikozidlar, saponinlar va boshqalar), flavonoidlar, kumarinlar, oshlovchi va shilliq moddalar, efir moylari, vitaminlar, bo'yoq moddalar, fermentlar, fitonsidlar, kraxmal, oqsillar, polisaharidlar, azotli moddalar, moy hamda moy kislotalari va boshqa birikmalar bo'lishi mumkin.

ASOSIY QISM

Dorivor o'simliklarning organizmga ta'siri uning tarkibidagi kimyoviy birikmalarning miqdoriga bog'liq. Bu birikmalar o'simlikning qismlarida turli miqdorda to'planadi. Dorivor ta'sirchanlik quvvati hamda sifati yuqori bo'lish davri ularning gullash hamda urug'lash davrining boshlanishi vaqtiga to'g'ri keladi. Dorivor moddalar ba'zi o'simliklarning kurtagi, bargi yoki poyasida, ba'zi o'simliklarning guli yoki mevasida, ba'zilarida ildizi yoki po'stlog'ida to'planadi. Shuning uchun o'simliklarning asosan biologik aktiv moddalari ko'p bo'lgan qismi yig'ib olinadi. O'simliklarning ildizi, ildizpoyasi, piyozi va tunganagi, odatda, o'simlik uyquga kirgan davrda — kech kuzda yoki o'simlik uyg'onmasdan oldin — erta bahorda tayyorlanadi. O'simlikning meva va urug'lari pishib yetilganda yig'iladi, chunki ular bu paytda dori moddalariga boy bo'ladi. Yangi yig'ib olingan dorivor o'simlik mahsuloti tarkibida (yer ustki a'zolarida 85% gacha, ildizida 45% gacha) nam bo'ladi. Bu nam yo'qotilmasa (quritish yo'li bilan), o'simlik chirib, dori moddalari parchalanib, yaroqsiz bo'lib qoladi.

Odamlar qadim zamonlardan tabiat ne'matlaridan foydalana boshlaganidan buyen dorivor o'tlardan kasalliklarni davolashda foydalanib kelganlar. Bundan 3—4 ming yil ilgari Hindiston, Xitoy, Qad. Misr mamlakatlarida shifobaxsh o'simliklar haqida ma'lumotlar beruvchi asarlar yozilgan. Sharqda, xususan O'rta Osiyo xalq tabobatida dorivor o'simliklardan foydalanib davolash o'zining qad. an'alariga ega. Shifobaxsh o'simliklardan tibbiy maqsadlarda foydalanish borasida Abu Ali Ibn Sinoning „Al-qonun“ asarida 476 ga yaqin o'simlikning shifobaxsh xususiyatlari va ularni ishlatish usullari to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi. Hozirgi vaqtda dorivor o'simliklarning turi ko'payib, xalq tabobati shifobaxsh o'simliklar bilan boyigan. Dorivor o'simliklardan ko'proq, anor, achchiqmiya, bodom, do'g'buy, dorivor gulxayri, yong'oq, jag'-jag', zubturum, isiriq, itburun, omonqora, pista daraxti, sachratqi, choyo't, shildirbosh, shirinmiya, shuvoq, yantoq, yalpiz, kiyiko't, tog'rayhon, qizilcha, qoqio't va boshqalari tarqalgan. Achchiqmiyadan paxikarpin, oqquraydan pesni davolashda qo'llaniladigan psoralen, isiriqdan garmin, itsigekdan

anabazin, omonqoradan galantamin, shildirboshdan sferofizin va b. alkaloidlar olinadi. Anor pustidan gijja haydovchi pelterin tanat va ekstrakt tayyorlanadi. Dorivor gulxayri preparatlari balg'am ko'chiruvchi va yumshatuvchi, jag'-jag' va lagoxilusdan tayyorlangan dorilari qon ketishini to'xtatuvchi, pista bujg'uni va choyo'tdan tayyorlangan dorilar me'daichak kasalliklarini davolashda ishlatiladi. S.Q. Islombekov nomidagi Toshkent farmatsevtika zdida O'zbekistonda o'sadigan va ekiladigan dorivor o'simliklardan turlituman dorilar tayyorlanadi. Dorivor o'simliklarni topish va ulardan alkaloidlar olishda O'zbekistan FA O'simlik moddalari kimyosi institutining xizmati katta. Intda 4000 dan ortiq o'simlikning turli organlari alkaloid olish maqsadida o'rganilib, ulardan 1000 ga yaqin tabiiy birikmalar ajratib olingan. Shu asosda sitizin, galantamin kabi 20 dan ortiq qimmatli preparat yaratilgan va tibbiyotga joriy qilingan. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Botanika instituti va Botanika bog'ining efir moyli, dorivor va bo'yoqli o'simliklar lab. ilmiy xodimlari mutaxassislar bilan hamkorlikda O'rta Osiyo hududida ko'p tarqalgan yuqumli kasalliklardan eng xavflisi sariq (gepatit)ni davolashda ekologik jihatidan toza, samaradorligi yuqori bo'lgan dorivor o'simliklar xom ashyolaridan tayyorlangan „Safro haydovchi Hojimatov yig'masi“ni yaratdilar va bu yig'ma ilmiy tibbiyotda qo'llashga va ishlab chiqarishga ruxsat etildi (1997). Shuningdek, SamDU Botanika kafedrasida, Toshkent davlat farmatsevtika institutida dorivor o'simliklarni ekib yetishtirish texnologiyasi o'rganilmoqda. Toshkent, Namangan, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida va Xorazm Ma'mun akademiyasida dorivor o'simliklar yetishtiradigan maxsus xo'jaliklar bor. Yovvoyi dorivor o'simliklar xom ashyolari asosan „O'zfarm sanoat“ respublika davlat-aksiyadorlik konserni, matlubot shirkatlari va O'zbekistan Qishloq va suv xo'jalik vazirligining „Shifobaxsh“ ishlab chiqarish birlashmasi xo'jaliklari tomonidan tayyorlanadi.

XULOSA

Ma'lumki, dunyo miqyosida farmatsevtika korxonalarida ishlab chiqarilayotgan dori vositalarining taxminan 50% dorivor o'simliklar xom-ashyosidan tayyorlanmoqda. Mutloq ko'pchilik mamlakatlarda, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika sanoatini jadallik bilan rivojlanishi bunday korxonalarining dorivor o'simliklar xom-ashyosiga bo'lgan talabni keskin ortishiga sabab bo'lmoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, tabiiy holda o'suvchi dorivor o'simliklar zaxiralarning chegaralanganligi tufayli farmatsevtika sanoati korxonalarining dorivor o'simliklar xom-ashyosiga bo'lgan talabini, asosan, dorivor o'simliklar o'stirish orqaligina qondirish mumkin.

Ta'kidlash lozimki, hozirgi vaqtda mamlakatimizda farmatsevtika sanoati va dorixonalarni o'simliklar xom-ashyosi bilan ta'minlash maqsadida ixtisoslashgan, fermer, o'rmon va boshqa mulkchilik shaklidagi xo'jaliklarida eng ko'pi bilan 42 tagacha dorivor o'simliklar turlari o'stiriladi. Rossiya Federatsiyasi, Ukraina,

Moldova, Misr Arab Respublikasi va bir qator mamlakatlarda dorivor o‘simliklarni yetishtirish bilan shug‘ullanish birmuncha yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Mustaqillikka erishilgandan so‘ng O‘zbekiston Respublikasining farmatsevtika sanoati tezlik bilan rivojlana boshladi. Hozirgi vaqtda bunday korxonalarining soni 70 tadan ortiqdir. Shu sababli ham, ushbu sanoatni dorivor o‘simliklar xomashyosi bilan yetarli darajada ta‘minlash talab etiladi.

Mamlakatimiz hududi juda katta bo‘lib, turli iqlimli tumanlarni o‘z ichiga oladi. Shuning uchun ham mamlakatimiz o‘simliklar dunyosi - florasi turli o‘simliklarga boy. Ularning ichida dorivorlari ham ko‘p bo‘lib, har yili ming tonnalab dorivor o‘simliklar mahsuloti tayyorlanadi hamda kasalliklarni davolash va oldini olish uchun ishlatiladi. Mamlakatimizda yovvoyi holda o‘sadigan o‘simliklarning tabiiy boyligi har qancha ko‘p bo‘lmasin, baribir ularni ham chegarasi bor. Cheksiz miqdorda yer yuzida hech qanday boyluk bo‘lmaganidek, o‘simlik dunyosining zaxirasi ham cheksiz emas. Shuning uchun ham tabiiy holda o‘sadigan o‘simlik boyluklaridan to‘g‘ri foydalanilmasa bu «cheksiz boyluklar» bir vaqtlar kelib Yer yuzida yo‘q bo‘lib ketishi mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. Xolmatov H.X., Habibov Z. H., Farmakognoziya [Darslik], T., 1967;
3. Nabiyev M, Shifobaxsh giyoxlar, T., 1980;
4. Hojimatov Q., Olloyorov M. , O‘zbekistonning shifobaxsh usimliklari va ularni muhofaza qilish, T., 1988;
5. Xoliqov K., O‘zbekiston janubidagi dorivor o‘simliklar, T., 1992;
6. Hojimatov Q.H., Yo‘ldoshev K.Y., Shogulomov U.Sh., Hojimatov O.Q., Shifobaxsh giyoxlar dardlarga malham (Fitoterapiya), T., 1995;
7. Murdoxayev Yu.M. Kultura lekarstvennix rasteniy v O‘zbekistane, T., 1988.

БЕПУШТЛИК СИНДРОМИ

Axrorqulov Shavkat Amonovich
shavkatahrorqulov@gmail.com

Abduraxmonov Azizjon Oltinboyevich
Azizjonabduraxmonov12@gmail.com

Avazov Utkir Mamatqulovich
Avazovutkir71@gmail.com

Urgut Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi

Аннотация: ushbu maqolada bepushtlik sindromi, ayollarda uchraydigan bepushtlik turlari, sabablari, qisman davvo yo'llari xususidagi fikrlar berilgan.

Калит so'zlar: bepushtlik, nishon a'zolari, ayollar pepushtligi, endokrin tur, gipotalamik turi, gipofizar turi, infeksiyon kasalliklar.

Аннотация: В этой статье рассматриваются вопросы синдрома бесплодия, типы бесплодия, встречающегося у женщин, причины, а также частичные способы лечения.

Ключевые слова: бесплодие, целевые органы, женское бесплодие, эндокринный тип, гипоталамический тип, гипофизарный тип, инфекционные заболевания.

Аннотация: this article provides opinions on infertility syndrome, types of infertility found in women, causes, partial healing pathways.

Keywords: infertility, target organs, female peppermint, endocrine type, hypothalamic type, hypophysar type, infectious diseases.

KIRISH

JSST (1986) ta'rifiga ko'ra, tug'ish yoshida bo'lgan er-xotin bir yil davomida urug'lanishga qarshi vositalarsiz muntazam jinsiy hayot kechirganiga qaramay homiladorlik kuzatilmasa, nikoh bepusht hisoblanadi. Bepusht nikoh birlamchi va ikkilamchi bo'iadi. Agar homiladorlik umuman kuzatilmasa - bepushtlik birlamchi, agar homiladorlik kuzatilib, so'ngra bepushtlik yuzaga kelsa bepushtlik ikkilamchi hisoblanadi. Etiologik omillari bo'yicha bepushtlikni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- bepushtlikning endokrin turi;
- nishon a'zolari jarohatlanishi bilan bog'liq bepushtlik;
- bepushtlikni immunologik turi;
- erkaklar bepushtligi;
- bepushtlikni endokrin turi;

Ayollarda bepustlikni endokrin turlariga ovulyatsiyaning buzulishini kiritish qabul qilingan.

Ovulyatsiyaning zamonaviy nazariyasiga binoan S.S. Jen (1986) tomonidan bepustlik endokrin turining so'nggi tasnifi yaratilgan.

Reproduktiv sistemaning anatomik nuqsonlari (bachadon va qinning rivojlanish nuqsonlari, sinexiyalar).

Tuxumdon yetishmovchiligi (diskineziya, agneziya).

Surunkali anovuiyatsiya sindromi

A) Gipotalamik turi;

B) Gipofizar turi;

V) Qayta bog'liqlik qonunini buzilishi (kontratseptivlar qo'llanilishi, giperandrogeniya, steroid gormonlar ishlab chiqaruvchi o'smalar, autoimmun kasalliklar).

Reproduktiv sistemaning anatomik nuqsonlari embriogenez davridagi nuqsonlaridan kelib chiqqan. Bachadon va qin anatomik o'zgarishlarining orttirilgan turlariga erta, plastik jarrohlik muoiajalari oqibatidagi chandiqlar kiradi. Mavjud chandiqlarni laparoskopik nazorat ostida gisteroskopik kesish, keyinchalik BIV kirgizish tavsiya qilingan.

ASOSIY QISM

Amenoreyaning tuxumdon turlari birlamchi va ikkilamchi bo'lishi mumkin. Ko'p hollarda esa tuxumdon po'stloq qavatida follikulyar apparat yo'qligidan kelib chiqadi. Surunkali anovuiyatsiya patologik holatlarning geterogen guruhi bo'lib, gipotalama-gipofizar tuxumdon sistemasidagi siklik jarayonlarining buzilishi bilan xarakterlanadi. Klinik belgilari bachadondan disfunktsional qon ketishlar, oligomenoreya, amenoreya, galaktoreya orqali yuzaga chiqadi. Bepustlikning endokrin turlarini davolash qat'iy individual (yakka tartibda) o'tkaziladi.

Davolash: Tuxumdon yetishmovchiligi (lyutein faza yetishmovchiligi, ovulyatsiyalanmaydigan follikulaning lyuteinizatsiya sindromi)da o'rin bosar terapiyani qo'llash mumkin.

Menstruatsiyaga 10 kun qolganda, hayz siklining 2 fazasida progesteron qo'llash.

16-18-20 hayz xorionik gonadotropinni 1500-2000 Ed dan kiritish.

Kombinatsiyalashgan estrogen-gestagen preparatlarini samara olish maqsadida 2-3 kurs davomida qo'llash.

Ovulyatsiyani stimullash uchun kломifen 50 mg dan (100-150 mg sutkasiga hayz siklining 5 kunidan 9 kunigacha beriladi).

Giperprolaktinemiya 4-6 hayz sikli davomida sutkasiga 2,5-7,5 mg bromkriptin yoki lod parallel berish tavsiya etiladi, Giperandrojeniada deksametazon

sutkasiga 0,25-0,5 mg beriladi. Surunkali anovulyatsiya sindromida ovulyatsiya bo'lmasligini quyidagi tekshirish usullari bilan aniqlash mumkin (3 yoki undan ko'proq hayz sikli davomida).

Bazal haroratni o'lchash.

Plazmada progesteron miqdorini aniqlash.

6-8 kun davomida bazal haroratni oshganida siydikda pregnandiol miqdorini aniqlash.

Endometriy so'rg'ichini gistologik tekshirish.

Laparoskopiyada «follikulaning usishi va yorilishi» ni aniqlash.

Ultratovush orqali fbllikulametriyani qo'llash.

Ovulyatsiyani tekshirishda yuqorida ko'rsatilgan barcha usullari qo'llashga zarurat yo'q.

XULOSA

Bachadondagi organik o'zgarishlar tufayli yuzaga keladigan bepushtlikning sabablariga-ichki endometriozning boshlang'ich formalari, bachadon submukoz miomasi, endometriy giperplaziyasi va poliplari, turli etiologiyali yallig'ianish jarayonlari kiradi. Bu o'zgarishlar meno-, metrorragiya, oligomenoreya va amenoreya shaklida klinik namoyon bo'ladi. Bachadon bo'yni va qinning orttirilgan nuqsonlari ko'pincha jinsiy a'zolari yallig'ianish kasalliklari natijasida, jarrohlik muolajalari oqibatida kelib chiqadi. Bachadon bo'yni omili spermatozoidlarning tashilishida katta ahamiyatga ega. Bachadon bo'yni shillig'ining buzilishi sabablari:

Yallig'ianish o'zgarishlari;

Gormonal buzilishlar;

Spermatozoidlarga nisbatan antitanalar bo'lishi;

Bachadon bo'yni anatomik o'zgarishlari;

Bachadon bo'yni omilida davolash;

Yallig'lanishga qarshi davolash;

Tuxumdonlar funksiyasini yaxshilovchi davolash.

Spermatozoidlarda antitanalar bo'lsa, bar'er (tusikli) davolash 6-oy davomida prezervativlar qo'llash. Bachadon ichiga inseminatsiya qo'llash. Anatomik o'zgarishlar bo'lsa, plastik jarrohlik muolajalarini qo'llash. Nishon a'zolarining surunkali yallig'lanishi bilan bog'liq bepushtlikni davolash. Nishon a'zolarida surunkali yallig'lanish kasalliklarini aniqlash uchun provokatsiya metodi qo'llanib qin servikal qanal va uretra ajralmalari bakteriologik va serologik tekshiriladi. 50% xollarda infeksiya bachadon naylari va chanoq bo'shlig'ida bo'lishini hisobga olib, mikroflorani tekshirish maqsadida material laparoskopiya yoki orqa gumbaz punktsiyasi orqali olinadi (agar sharoit yoki ko'rsatma bo'lsa). Antibakterial preparatlar kasallik qo'zg'atuvchilarining ularga bo'lgan sezuvchanligidan kelib chiqqan holda tavsiya qilinadi.

Surunkali yallig'lanish kasalliklarini davolashda ko'pincha amaliyotda G.M. Saveleva (1987) taklif qilingan sxemadan foydalaniladi. Antibakterial preparatlar: Yarim sintetik penitsillinlar Tsefolosporinlar (tsevaliksin, TEVA siproden) Tetratsiklin guruhi Aminoglikozidlar Levomitsitin guruhi Rifampitsin guruhi Metronidozol - TEVA, metrogil Tinidozol Nitrofurantoin hosillari Prostaglandin ingibitorlari Nistatin, fimgikeyr (kandidamikozga qarshi davo) Vitaminoterapiya Immunoterapiya Giposensibilizatsiya Immunoilogik bepushtlik. Bepushtlik sababi spontan ro'y beruvchi antisperma immunitet: erkaklarda ayrim sharoitlarda o'zining spermasiga nisbatan antitanalar bo'lishi, ayollarda erining spermasiga antitanalar bo'lishidir. Davosi: 6 oygacha prezervativ qo'llash, ayollarda glyukokortikoid terapiya spermani suyultirish uchun qo'llaniladi. Psixogen omillar Ko'pgina bepusht ayollarda psixosotsial holatida turli o'zgarishlar borligi aniqlanadi. Yolg'izlik, hayz oldi davridagi isterik xollar bunga misol bo'ladi. Bunday ayollar nevropatolog, psixonevrolog nazoratida bo'lishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. «Соглигингиз Уз кўлингизда» Ўзбекистан Хамширалар ассоциацияси Хоразм вилоят булими. Доя, хамширалар ва хомиладор аёллар учун укув куанма. Урганч 2006.
2. Т.Ю.Умарова. И.А.Каюмова, М. К. Ибрагимова «Хамширалик иши» Абу Али Ибн Сино, 2003.
3. Основы сестринского дела» Т. Побуковец., Т. А. Склера., О. В. Чернова., Феникс 2004.
4. Практическая гинекология. Кулакова В. Н.
5. G.V. Tuvchieva, Yu.K. Djabbarova, N.X. Raxmanova. Gineiologiyada hamshiralik ishi. O'quv qo'llanma. Toshkent.2011.

SO'Z SAN'ATI SEHRGARI

*Usarov Ravshan Xudayarovich
Nizomiddin Mir Alisher tavalludiga
583 yil to'lishi munosabatiga bag'ishlanadi
TerDPI rus tili va adabiyoti o'qituvchisi*

Tiling birla ko'nglingni bir tut

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alisher Navoiyning bosib o'tgan hayotiy va ijodiy yo'li aks etilgan. Alisher Navoiyning bolaligi temuriyzodalardan bo'lgan, xususan bo'lajak podshoh Husayn Boyqaro bilan birga tarbiyalangan. O'zbek tili bilan bir qatorda forsiy tilni ham mukammal egallagan. Alisher Navoiy she'riyatga g'oyat qiziqdi, Sharq adabiyotini qunt bilan o'rgandi. Oila muhiti bolaligidayoq unda adabiyotga zo'r havas tug'dirgan edi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiylar uyida shoirlar tez-tez to'planishib, mushoira qilishar, adabiyot va san'at haqida suhbatlashar edilar. Tarixchi Xondamirning yozishicha, yosh Alisher Navoiyning iste'dodidan mamnun bo'lgan mavlono Lutfiy.

Alisher Navoiy (taxallusi; asl ismi Nizomiddin Mir Alisher) (1441.9.2. — Hirot — 1501.3.1) — buyuk o'zbek shoiri, mutafakkir, davlat arbobi.

Alisher Navoiyning ota tomondan bobosi Amir Temurning Umar Shayx ismli o'g'li bilan ko'kaldosh (emikdosh) bo'lib, keyinchalik Umar Shayx va Shohruxning xizmatida bo'lgan. Otasi G'iyosiddin Bahodir esa Abulqosim Boburning yaqinlaridan; mamlakatni idora etishda ishtirok etgan. Onasi (ismi noma'lum) Kobul amirzodalaridan Shayx Abusaid Changning qizi.

Alisher Navoiyning bolaligi Shohrux hukmronligining so'nggi yillariga to'g'ri kelgan. U temuriyzodalar, xususan bo'lajak podshoh Husayn Boyqaro bilan birga tarbiyalangan. 4 yoshida maktabga borib, tez savod chiqarib, turkiy va forsiy tildagi she'rlarni o'qib, yod ola boshlagan. O'zbek tili bilan bir qatorda forsiy tilni ham mukammal egallagan. 1447 yil 12 martda mamlakat podshohi Shohrux vafot etgach, taxtga da'vogarlar orasida o'zaro kurash boshlanadi. Urush-janjallar ko'p kishilarni Xurosondan turli tomonga ko'chib ketishga majbur etdi. Alisher Navoiylar oilasi o'z tinchligini ko'zlab, Iroqqa ko'chishdi (1449). Taf shahrida Alisher mashhur «Zafarnoma» tarixiy asari muallifi, shoir Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi. Bu uchrashuv bolada yorqin taassurot qoldiradi. G'iyosiddin Bahodir oilasi Hirotga, qariyb ikki yil muddat o'tgach, qaytadi. Abulqosim Bobur G'iyosiddin Bahodirni

Sabzavor shahriga hokim qilib tayinladi. Alisher Navoiy Hirotida qolib o'qishni davom ettirdi.

Alisher Navoiy she'riyatga g'oyat qiziqdi, Sharq adabiyotini qunt bilan o'rgandi. Oila muhiti bolaligidayoq unda adabiyotga zo'r havas tug'dirgan edi. Tog'alari Mirsaid — Kobuliy, Muhammad Ali — G'aribiy yetuk shoir edilar. Alisher Navoiylar uyida shoirlar tez-tez to'planishib, mushoira qilishar, adabiyot va san'at haqida suhbatlashar edilar.

Alisher Navoiy 10—12 yoshlaridan she'r yoza boshlagan. Tarixchi Xondamirning yozishicha, yosh Alisher Navoiyning iste'dodidan mamnun bo'lgan mavlono Lutfiy, uning:

*Orazin yopqoch, ko'zumdan sochilur har lahza yosh,
Bo'ylakim, paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'ach quyosh*

matla'li g'azalini tinglab: «Agar muyassar bo'lsa edi, o'zimning o'n-o'n ikki ming forsiy va turkiy baytimni shu g'azalga almashtirardim...» degan. Alisher Navoiy 15 yoshida shoir sifatida keng tanilgan. She'rlarini turkiy (Navoiy taxallusi bilan) va forsiy (Foniy taxallusi bilan) tillarida yozgan.

Alisher Navoiy 13—14 yoshlarida otasi hayotdan ko'z yumadi. Uni Abulqosim Bobur o'z tarbiyasiga oladi, katta badiiy iste'dodi uchun g'oyat e'zozlaydi. 1456 yil oktyabrda mamlakat poytaxti Hirotidan Mashhadga ko'chiriladi, Abulqosim yosh Alisherni ham, o'z xizmatida bo'lgan Husayn Boyqaroni ham Mashhadga olib ketadi. 1457 yilning bahorida to'satdan Abulqosim Bobur ham vafot etdi. Alisher Navoiy uchun bu, otasi vafotidan keyingi, ikkinchi og'ir judolik bo'ldi. U Mashhad madrasalaridan birida o'qishini davom ettiradi. Do'sti Husayn Boyqaro esa Marv va Chorjo'y tomonlarga omad qidirib ketadi. Xurosonni temuriylarning yana bir vakili, Movarounnahr hukmdori Sulton Abu Said egalladi va poytaxtini Samarqanddan Hirotga ko'chiradi. Husayn Boyqaroning taxtni egallash yo'lidagi birinchi raqibi — Abu Said edi.

Alisher Navoiy oilasining xohish-rag'batini Husayn tomonida bo'lib, bu avvalo ularning oilaviy yaqinliklari bilan izohlanardi; bundan yangi hukmdor ham yaxshi xabardor edi. O'rtadagi bu vaziyat Alisher Navoiy hayotini murakkablashtirgan. Alisher Navoiy Mashhadga oddiy bir mullavachcha sifatida yashadi. Shoirning bu davrdagi ijodida o'z yurtini sog'inib yozgan g'azallari talaygina. Orada, xususan, yoz fasllarida Hirotga borib-kelib ham turgan. 1463 yilda esa u uzil-kesil Hirotga qaytdi. Biroq bu yerda ahvol o'zgargan, shahar xarobaga aylangan edi. Xuroson poytaxtida Sulton Abu Said o'z tartibini o'rnatgan, muhim vazifalarga u bilan Movarounnahrdan kelgan kishilar tayinlangan, Alisher Navoiy ga yaqin kishilar quvg'in qilingan, Husayn Boyqaro bilan birga ketgan tog'alari — Mirsaid va Muhammad Ali urushda halok

bo'lgan, yashash uchun biron joy topish muammo edi. Alisher Navoiyning o'sha kunlardagi ahvoli uning keyinchalik ustozlari Sayyid Hasan Ardasheriga Samarqanddan yozgan maktubidagi she'riy satrlarda nihoyatda ta'sirli va haqqoniy ifodalab berilgan.

Bu vaqtda mamlakatda taniqli shoir bo'lib qolgan Alisher Navoiyni Abu Said ta'qib qilib, Hirotidan chiqarib yuboradi. Shoir Samarqandga ketishga majbur bo'ladi. Alisher Navoiy Samarqandda 1465 yildan 1469 yilning bahorigacha yashadi, Fazlulloh Abu Lays madrasasida o'qib, turli fanlarga oid bilimlarini yanada chuqurlashtirdi. Samarqandning ko'zga ko'ringan shoirlari — Shayxim Suhayliy, Mirzobek, Mavlono Xovariy, Mir Qarshiy, Harimi Qalandar, muammogo'y Uloyi Shoshiy, olim Mavlono Muhammad Olim va boshqalar bilan hamsuhbat bo'ldi va do'stlashdi. Samarqand shahri hokimi Ahmad Hojibek asli hirotlik bo'lib, Vafoiy taxallusi bilan she'rlar yozardi, u Alisher Navoiyga alohida hurmat va e'tibor bilan qaradi. Uning yordamida Alisher Navoiy davlat ishlari bilan ham shug'ullana boshladi. U davlat ishlarini boshqarishda dastlabki tajribani shu yerda orttirdi va bu unga keyinchalik asqotdi. Alisher Navoiyning Samarqanddagi siyosiy va davlat faoliyati yuqori baholanib, unga «Chig'atoy amiri» unvoni berilgan.

1469 yil boshlarida Sulton Abu Said Qorabog'da o'z askarlari tomonidan o'ldiriladi. Ko'pdan buyon shunday vaziyatni kutib yurgan Husayn Boyqaro zudlik bilan kelib, Hirot taxtini egallaydi. Alisher Navoiy ham Hirotga yetib keladi. 1469 yil 14 aprel kuni, ramazon hayiti munosabati bilan uyushtirilgan qabul marosimida Alisher Navoiy o'zining Husayn Boyqaroga yangi yozgan «Hiloliya» qasidasini taqdim etadi. Podshoh Alisher Navoiyni muhrdorlik mansabiga tayinlaydi.

Alisher Navoiy Husayn Boyqaroning eng xavfli siyosiy raqibi — Yodgor Muhammad Mirzoni tunda qo'lga olishda shaxsiy jasorat ko'rsatadi. Yangi hukumatning ortiqcha soliqlaridan norozi bo'lib, qo'zg'olon ko'targan xalq ommasini tinchitishda adolat va mardonavorlik bilan ish tutadi. Shu voqealardan so'ng ma'lum vaqt o'tgach, Husayn Boyqaro hukumatidagi muhrdorlik vazifasiga Alisher Navoiyning roziligi bilan uning samarqandlik do'sti, shoir Shayxim Suhayliy tayinlanadi. Alisher Navoiyning maqsadi saroyda maslahatchi bo'lib qolish, ko'proq ijodiy ish bilan shug'ullanish edi. Biroq Husayn Boyqaro 1472 yilning fevral oyida uni o'z saroyining bosh vaziri qilib tayinlaydi va unga «Amiri kabir» unvonini beradi.

Alisher Navoiy yangi lavozimda avvalo butun kuchini mamlakatda tinchlik va osoyishtalik o'rnatishga qaratdi. Vaqf ishlarini tartibga solishga kirishdi. Shaharlarda savdo-sotiqni, hunarmandchilikni rivojlantirishga katta ahamiyat beradi. Alisher Navoiy sa'yi harakati bilan qishloqlarda dehqonchilik madaniyati o'sib boradi. Shaharlar, xususan Hirot kun sayin obod bo'la boshlaydi.

Buyuk insonparvar Alisher Navoiy o'rta asrdagi Uyg'onish davrining boshqa ulug' zotlari singari butun hayoti bilan haqiqiy inson qanday bo'lishi lozimligini ko'rsatdi. U o'z davridagi nohaqlikka, adolatsizlikka qarshi kurashdi, amaldorlarning

o'z vazifalarini suiiste'mol qilishlarini va ta'magirliklarini fosh etdi, o'jiz, muhtoj kishilarni o'z himoyasiga oldi. Sulton Husayn Boyqaro podshohlik qilgan, Alisher Navoiy hukumatda bosh vazir vazifasini egallagan paytlarda hech bir mamlakatga qarshi bosqinchilik urushi olib borilmadi. Bosh vazir Alisher Navoiy madaniyat va san'atning chinakam homiysi sifatida taniladi. Uning faoliyatida ijtimoiy-siyosiy masalalarni to'g'ri hal etishga intilish, jamiyatdagi barcha ijtimoiy qatlamlarga, barcha qavmlarga bir xil munosabatda bo'lish, hech qaysi birini kamsitmaslik, hammaning manfaatiga barobar xizmat qiladigan jamoat binolarini qurishga alohida e'tibor berish oldingi o'ringa chiqa boshladi.

Xondamirning qayd qilishicha, 80-yillar davomida Alisher Navoiy o'z mablag'lari hisobidan Hirotda va mamlakatning boshqa shaharlarida bir necha madrasa, 40 ta rabot, 17 masjid, 10 xonaqoh, 9 hammom, 9 ko'prik, 20 ga yaqin hovuz qurgan yoki ta'mirlattirgan. Ular orasida Hirotdagi «Ixlosiya», «Nizomiya» madrasalari, «Xalosiya» xonaqohi, «Shifo'iya» tibgohi, Qur'on tilovat qiluvchilarga mo'ljallangan «Dorul-huffoz» binosi, Marvdagi «Xusraviya» madrasasi, Mashhaddagi «Dorul-huffoz» xayriya binosi va boshqa noyob me'morlik yodgorliklari bor.

Bu davrda Hirotda adabiy hayot jo'sh urgan. Alisher Navoiy atrofida Shayxim Suhayliy, Xoja Osa'iy, Binoiy kabi o'nlab shoirlar, Hasan Noiy, Xoja Abdullo Marvoriy, Qulmuhammad Udiy, Shohquli G'ijjakiy kabi o'nlab sozandalar, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilar, Sultonali Mashhadiy, Abdujamil Kotib, Xoja Hofiz Muhammad, Sultonali Koiniy, Muhammad Xandon, Mavlono Hijroniy kabi mashhur kotiblar, Behzod kabi musavvirlar qizg'in ijodiy mehnat bilan band edilar. Hirotda, umuman Xuroson mulkida ma'naviy hayotning baquvvat ustunlaridan Abdurahmon Jomiy bilan Alisher Navoiy o'rtasidagi ijodiy hamkorlik — ustoz-shogirdlik ko'p masalalarda hamfikrlilikka olib keldi. Alisher Navoiyning o'zbek tilidagi dastlabki yirik asarlaridan «Hiloliya» qasidasi Sulton Husayn Boyqaroga bag'ishlangan bo'lsa, forsiy tildagi birinchi yirik asari «Tuhfat ul-afkor» (1476) qasidasi Jomiyga bag'ishlangan edi.

1470-yillarning oxirlarida Alisher Navoiy o'zining o'zbek tilida yozgan she'rlaridan iborat ilk devoni — «Badoe' ul-bidoya» («Badiiylik ibtidosi»)ni tuzdi. Mazkur devonda 777 g'azal, 85 ruboiy, 52 muammo, 46 qit'a, 53 fard, 10 tuyuq, 10 lug'z, 3 mustazod, 5 muxammas, 3 tarje'band, 2 musaddas bo'lib, bunday mukammal devonni tuzish Navoiygacha kamdan-kam o'zbek shoiriga nasib bo'lgan. Alisher Navoiy «Badoe' ul-bidoya» tuzilgandan keyingi davrda yozilgan o'zbekcha she'rlari asosida 1480 yillarning oxirida «Navodir un-nihoya» («Behad nodirliklar») devonini tuzdi. 1841 — 82 yillarda Alisher Navoiy «Chixl hadis» («Qirq hadis» yoki «Arbain») asarini yozadi. Bunda Muhammad payg'ambar(sav) ning qirq hadisi to'rtlik bilan she'riy ifodalab berilgan.

Alisher Navoiy mansub adabiy hayotda she'riy janrlardan g'azal, qasida, ayniqsa muammo yozishga qiziqish kuchli edi. Alisher Navoiy forsiy devoniga 373 muammo kiritgan. Shunday adabiy mayllar tufayli 1485 yil muammo yozish qoidalari haqida maxsus «Mufradot» asarini yaratdi.

Alisher Navoiyda o'zbek tilida «Xamsa» — besh doston yaratish maqsadi yoshligidan bo'lgan. Bu maqsadini 1483—85 yillarda amalga oshirdi. Asar o'zbek adabiyoti shuhratini olamga yoyib, jahon adabiyotining durdonalaridan biriga aylandi.

«Xamsa»dan keyin Navoiy yana bir qancha asarlar yaratdi. 1485 yil o'zining mashhur «Nazm ul-javohir» asarini yozdi, bunda birinchi xalifalardan bo'lmish Hazrat Alining 266 ta hikmatli gapi ruboyi tarona (to'rt misrasi ham qofiyalangan) shaklida bayon etilgan. O'sha davr kitobxonlari, shu jumladan, tarixchi Xondamir bu asarni g'oyat yuksak baholagan.

Alisher Navoiyning insonparvarlik faoliyati, ilg'or qarashlari, uning obro'e'tibori xalq orasida tobora ortib borishi o'z manfaatlarini ko'zlagan saroy a'yonlari orasida norozilik tug'dirdi. Ular shoir bilan podsho orasiga nifoq solishga urindilar. Natijada 1487 yilda Husayn Boyqaro Alisher Navoiyni vazifasidan bo'shatadi, bosh vazir vazifasini Muhammad Majdiddin egallaydi. Navoiy esa Astrobodga hokim qilib tayinlanadi. Navoiy hokimlik qilgan 2 yil davomida Astrobod shahri va viloyati obodonlashib, qo'shni davlatlar bilan yaxshi munosabatlar o'rnatiladi, savdo ishlari yo'lga qo'yiladi. Alisher Navoiy Astrobodda ham ko'p yangi she'rlar yozgan, Hirotdagi yor-do'stlariga maktublar yo'llab turgan. Uning Astroboddan Husayn Boyqaroning katta o'g'li Badiuzzamonta yozgan maktubini davlatni boshqarish haqidagi risola, deyish mumkin.

Alisher Navoiy doim Husayn Boyqaroni adolatli va ma'rifatli hukmdor qiyofasida ko'rish orzusi bilan yashadi. Astroboddan Husayn Boyqaroga va boshqa amaldorlarga yozgan maktublarida ularni insof va adolatga chaqirar, davlat idora usulida mustahkam tartib o'rnatish va ayrim islohotlar o'tkazishga undar edi. Lekin Alisher Navoiyning istaklari to'la amalga oshishi qiyin edi. Astrabodda Navoiy bilan Husayn Boyqaro munosabatlariga putur yetkazuvchi gaplar yuzaga kelgach, podshoh Alisher Navoiyning Hirotda qaytishiga ruxsat beradi. Husayn Boyqaro Navoiyga bir nechta yuksak lavozimlarni taklif qiladi. Alisher Navoiy rozi bo'lmagach, unga «Muqarrabi hazrati sultoniy» («Sulton hazratlarining eng yaqin kishisi») degan rasmiy unvon beriladi. Bu bilan u davlatning hamma ishlariga aralasha olar va podshoh bilan ko'rishish imkoniga ham ega bo'lar edi. Binobarin, saroy amaldorlari, shu jumladan, Muhammad Majdiddin ham har bir muhim masalani ko'p vaqt u bilan kelishishga majbur edi. Lekin Alisher Navoiy bilan Majdiddin o'rtasidagi nodo'stona munosabatdan ko'pchilik xabardor edi. Navoiyning Balxda hokim bo'lib turgan ukasi Darveshali Majdiddindan ranjib, bosh hukumatga qarshi isyon ko'targani ham ma'lum.

Bu isyon Navoiyning aralashuvi bilan tinchitilgan. Aynan shu voqea 1490 yildan Majdiddinning siyosat maydonidan ketishiga asosiy sabab bo'lgan.

Alisher Navoiy hamisha ko'proq ijodiy va ilmiy ishlar bilan shug'ullanish, bu boradagi rejalarini amalga oshirish xayoli bilan yashardi. Hayot esa uning rejalariga o'z tuzatishlarini kiritar edi. 1488 yil Sayyid Hasan Ardasher, 1492 yil Jomiy, 1493 yil olim va shoir Pahlavon Muhammad birin-ketin hayotdan ko'z yumdilar. Navoiy o'zi uchun qadrdon bo'lgan bu insonlar xotirasini abadiylashtirish, ularga o'z hurmatini izhor etish uchun «Holoti Sayyid Hasan Ardasher», «Xamsat ul-mutahayyirin» («Besh hayrat»), «Holoti Pahlavon Muhammad» nomli risolalarini yozdi. Astrobodda yoza boshlagan «Tarixi muluki Ajam» («Ajam podshohlari tarixi») asarini tug'alladi (1489).

1490 yil u o'ziga zamondosh shoirlar haqida Jomiyning «Bahoriston», Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkirat ush-shuaro» asarlari shaklida «Majolis un-nafois» («Nafislar majmuasi») tazkirasini tuzishga kirishib, 1492 yilda tugalladi. Shu vaqtning o'zida Alisher Navoiy o'zbek tilida she'riyat nazariyasi, aniqrog'i, aruz vazni qoidalari haqida «Mezon ul-avzon» («Vaznlar o'lchovi») ilmiy qo'llanmasini yaratdi. 1494 yilda turkiy tildagi maktublarini to'plab «Munshaot» («Maktublar») majmuasini tuzdi. 1495 yil Jomiyning «Nafahot ul-uns» asarini «Nasoyim ul-muhabbat» («Muhabbat shabadalari») nomi bilan tarjima qilib, uni qayta ishlab, turkiy mashoyixlar haqidagi yangi ma'lumotlar bilan boyitdi. Shu boisdan «Nasoyim ul-muhabbat»ga Alisher Navoiyning mustaqil asari sifatida qarash mumkin.

Alisher Navoiy 1491—92 yillardan boshlab turkiy tilda yozilgan hamma she'rlaridan yangi, yig'ma devon tuzishga kirishdi va bu ish 1498—99 yilda nihoyasiga yetdi. Devonning umumiy nomi «Xazoyin ul-maoniy» («Ma'nolar xazinasini») bo'lib, 4 qismdan iborat bo'lganligi uchun «Chor devon» deb ham atalgan. Devon shoirning butun hayoti davomida yozilgan she'rlarini qamrab olgan, ularda Alisher Navoiy ning barcha davrlaridagi kayfiyati, dunyoqarashi, orzu-umidlari ifodalab berilgan. Taxminan shu yillarda Alisher Navoiy forsiy she'rlaridan tashkil topgan «Devoni Foni» («Foni devoni»)ni, forsiy tildagi 2 qasidalar majmualarini tuzib, forsiy she'riyat taraqqiyotiga ham o'zining munosib hissasini qo'shdi. Xurosonda forsiyzabon xalqlar ko'pchilikni tashkil etganligi inobatga olinsa, Alisher Navoiyning bu tilda ham samarali ijod qilgani mamlakat ma'naviy ehtiyojini yaxshi his etganligini bildiradi.

1490 yillarning o'rtalariga kelib mamlakatda ijtimoiy-siyosiy tanglik kuchaya boshlaydi. Temuriylar xonadonida hukmdor o'g'illari o'rtasida yuzaga kelgan ziddiyatlar esa bu tanglikni yanada kuchaytiradi. Har bir shahzodaning o'z tarafdorlari bo'lib, ularni murosaga keltirish ko'p vaqt Alisher Navoiy zimmasiga tushar edi. Bosh vazir Nizomulmulk esa 1496—97 yillarda bu oilaviy mojarolarda bir tomonlama harakat qilib, Muzaffar Mirzoning onasi — Xadicha begimga yon bosadi. Shu asosda Husayn Boyqaro bilan Astrobodda hokimlik qilayotgan Badiuzzamon o'rtasida harbiy

to'qnashuv yuz berdi. Saroydagi fitna, jumladan, Nizomulmulkning qabihligi natijasida Badiuzzamonning o'g'li, Husayn Boyqaroning eng sevimli nabirasi, Navoiyning esa ixlos qo'ygan shogirdi Mo'min Mirzo fojiali o'ldiriladi. Bular hammasi Alisher Navoiy hayoti va kayfiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Alisher Navoiyning she'riy dahosi 15-asr oxirlariga kelib yana jo'sh urdi. U 2 yil mobaynida 2 ta yirik asar — «Lison ut-tayr» («Qushlar tili») dostonini va «Muhokamat ul-lug'atayn» («Ikki til muhokamasi») nomli ilmiy asarini yaratdi. Alisher Navoiyning so'nggi buyuk asarlaridan yana biri nasriy pandnoma yusinida yozilgan «Mahbubul-qulub» («Qalblar sevgani»)dir. U Sharq adabiyoti tarixida Shayx Sa'diyning «Guliston», Kaykovusning «Qobusnoma», Nizomiy Aruzi Samarqandiyning «Chor maqola» kabi asarlari qatorida turadi. Bu asarida Alisher Navoiy o'zining hayot yo'lini, boshidan kechirgan turmush mashaqqatlarini yorqin tasvirlab bergan.

1500 yilning dekabrda Husayn Boyqaro isyon ko'targan o'g'li — Muhammad Husayn bilan sulh tuzib, Hirotga qaytar ekan, Alisher Navoiyni ham uni kutib olishi lozimligiga ishorat qiladi. Orada 2—3 kunlik yo'l bor edi. Alisher Navoiy o'zining so'nggi she'rini Poyob rabotida yozgan va undan nusxa ko'chirtirib, kelayotgan Husayn Boyqaroga yuborgan. Uchinchi kuni Alisher Navoiy hukmdor istiqboliga yaqinlashayotganida o'zini yomon his etgan, u bilan ko'rishayotganda hushidan ketib, qaytib o'ziga kelmagan va hayotdan ko'z yumgan.

Alisher Navoiyning adabiy va ilmiy merosini 4 faslga bo'lish mumkin: 1. Devonlari. 2. Dostonlari. 3. Forsiy tildagi she'riy merosi. 4. Ilmiy-filologik, nasriy va tarixiy asarlari.

Alisher Navoiyning o'zbek tilida yaratgan she'riy merosi asosan «Xazoyin ul-maoniy» devoniga jamlangan. Asar 4 qismdan iborat. Devonning birinchi qismiga «G'aroyib us-sig'ar» («Bolalik g'aroyibotlari»), ikkinchi qismiga «Navodir ush-shabob» («Yigitlik nodirotlari»), uchinchi qismiga «Badoe' ul-vasat» («O'rta yosh badialari») va nihoyat, to'rtinchi qismiga «Favoyid ul-kibar» («Keksalik foydalari») degan nomlar berildi. «Xazoyin ul-maoniy» inson bolasining murakkab va yuksak tafakkuri hamda behisob his-tuyg'ulari bilan bog'liq minglarcha she'r va o'nlarcha she'r turlarini o'z ichiga olgan majmua bo'lib, Sharq adabiyoti tarixida noyob hodisadir. Bu xil majmua Alisher Navoiyga qadar Amir Xisrav Dehlaviy tomonidagina tuzilgan. Ushbu devonga kirgan minglarcha she'rlarni Alisher Navoiy butun umri davomida turli sharoitlarda, har xil sabablar bilan yozgan bo'lib, ular shoir hayoti va u yashagan davr bilan sonsiz-sanoqsiz iplar orqali bog'langan. Alisher Navoiy «Xazoyin ul-maoniy» ga qadar «Ilk devon», «Badoe' ul-bidoya», «Navodir un-nihoya» devonlarini tuzgan. «Xazoyin ul-maoniy» ana shu 3 devonga kirgan hamda «Navodir ul-nihoya» tuzilgandan keyin yozilgan she'rlar asosida yuzaga kelgan.

Alisher Navoiyda keksalik chog'larida barcha she'rlarini yig'ib, xronologik tartibda 4 devon tuzish g'oyasi bo'lgan. Biroq «Xazoyin ul-maoniy»ni tuzishda

muharrirlik vazifasini bajargan Husayn Boyqaro bu g'oyani qo'llab-quvvatlamagan ko'rinadi. Uning «G'aroyib us-sig'ar» devoni bolalik mashqlaridan, «Navodir ush-shabob» yigitlik she'rlaridagina iborat bo'lmay, bu boshlang'ich devonlarda shoirning keyingi davr she'riy mo''jizalaridan ham namunalar borki, Husayn Boyqaro shuni ma'qul ko'rgan. Shu sababdan «Xazoyin ul-maoniy» tarkibidagi 4 devon nomining mazmunini shartli ma'noda tushunish, bunda she'rlar ko'p holda aralash holda joylashtirilganini nazardan qochirmaslik zarur.

«Xazoyin ul-maoniy»dagi 4 devonning har birida 650 tadan 2600 g'azal, umuman 4 devonda 210 qit'a, 133 ruboiy, 86 fard, 52 muammo, 13 tuyuq, 10 muxammas, 10 chiston, 5 musaddas, 4 tarje'band, 4 mustazod, 1 musamman, 1 tarkibband, 1 qasida, 1 masnaviy, 1 soqiynoma mavjud bo'lib, Sharq she'riyatining 16 turi namoyondir.

Alisher Navoiyning muhabbat va bu bilan bog'liq tug'yonlari, xususan g'azallari uning yigitlik davrida yozilgan. Bunga uning «Ilk devoni»ga kiritilgan, xalq orasida «Qaro ko'zum», «Kelmadi» («Munojot») nomlari bilan mashhur bo'lgan va kuylanadigan g'azallari yaxshi misol bo'la oladi. Bu kabi she'rlarida shoir pok va yuksak ishqiy kechinmalarni baland ehtiros va falsafiylik bilan ifodalab bera olgan.

Uning «Topmadim» radifli g'azali ham shu davrda, aniqrog'i, Mashhaddan Hirotga qaytib, shaxsiy turmushini izga solish taraddudida yurganda, lekin uning moddiy jihatdan nochor ahvoldaligi tufayli oila qurishi qiyinlashgan, Sulton Abu Said esa uni ta'qib qilgan paytda yozilgan bo'lib, uning har bayti yurakni tirnaydi. Alisher Navoiyning ishqiy she'rlarini faqat bir sub'ektga qaratilgan, deyish qiyin. U hayotga keng nigoh bilan qarab, barcha go'zalliklarni nazokatli tuyg'ularni qadrlagan, noyob so'z va iboralar bilan qalbdan ifodalay bilgan. Lekin hayot qiyinchiliklari va ziddiyatlari orqasida o'z orzu-umidlariga yetisha olmagan shoir o'zining insoniy norozilik tuyg'ularini olovli she'riy satrlarda bayon etadi.

Alisher Navoiyning ishq bilan bog'liq tasvirlari rang-barang va boy bo'lib, biz unda inson hayoti va holatining cheksiz ko'p qirralarini — shodlikni ham, xafachilikni ham, takrorlanmaydigan lahzalarni ham, har kun, har soatda yuz beruvchi ko'ngilsizliklarni ham ko'ramiz. Zotan o'zbek she'riyatida inson dardi va hasratlarini, o'z sevgilisiga talpinishlarini Navoiydan o'tkazib ifodalagan shoirni topish qiyin. Alisher Navoiyning ishqiy mavzuda yozgan she'rlarining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, ulardagi ko'p g'oya va timsollar, tasviriy detallar an'anaviy xarakterga ega. Shu bilan birga ishq va ishqiy obrazlar talqinida ham boshqa mumtoz ijodkorlar kabi Alisher Navoiy ramziylikka ko'p o'rin beradi. «Yor» — bu dunyo go'zalgina emas, uningcha, bu — butun borliqni yaratgan va hamma narsani harakatga keltirib turgan Alloh hamdir. Shoir o'zining tasavvufiy she'rlarida yorning qoshi, ko'zi, zulfi, sochi (va h.k.) deganda Allohning kuch-qudrati, mehri, oliy darajadagi go'zalliklarini ko'zda tutadi. Alisher Navoiyning barcha lirik janrlarga oid she'rlari yuksak mahorat bilan yozilgan bo'lib, inson manfaatlariga, uning e'tiqodini

mustahkamlashga, ruhini sog'lomlashtirishga xizmat qiladi. Uning falsafiy, axloqiy mazmundagi hayot nafasi ufurib turgan har bir she'ri bu janrning o'lmas namunalidir.

Ulug' shoir ijodining shoh asari «Xamsa» 5 dostonidan iborat. Bular «Hayrat ul-abror» («Yaxshilar hayrati»), «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab'ayi sayyor» («Etti sayyora»), «Saddi Iskandariy» («Iskandar devori») dostonlaridir. Fors adabiyotidagi xamsachilikka javob sifatida o'zbek tilida birinchi marotaba yaratilgan Alisher Navoiy «Xamsa»si bu tilning cheksiz imkoniyatlarini amalda isbot etdi. 52 ming misradan iborat bu beshlik 15-asr islom tafakkurining borliq va tabiat, inson va jamiyat, axloq va kamolot haqidagi o'ziga xos qomusi edi. Shoir voqealarni qadim Sharq tarixining Xusrav, Bahrom, Iskandar kabi nomlari afsonalar bilan chulg'angan shaxslar, Layli va Majnun kabi oshiqlar hayotidan oldi. Ularga yangi mazmun berdi, turkona ruh kiritdi. Davrning dardli masalalarini, avlodlarning orzu va armonlarini ko'tarib chiqdi. «Xamsa» zamondoshlariga nihoyatda zo'r ta'sir ko'rsatdi. Abdurahmon Jomiy uni hayajon bilan olqishladi. Sulton Husayn esa shoirni o'zining oq otiga mindirib, jilovdorlik qildi.

«Lison ut-tayr» — Alisher Navoiyning so'nggi dostoni «Xamsa»dan 14 yil keyin — 1498—99 yilda yaratilgan. Bu asarini shoir «Foniy» taxallusi bilan yozgan. Chunki bu davrda uning hayoti keksalikka yuz o'giran, aniqrog'i, bu dunyosidan ko'proq u dunyosini o'ylay boshlagan edi. Mazkur asar bolaligida sevib o'qigani — Fariddin Attorning «Mantiq ut-tayr» («Qushlar tili») dostoniga javob tarzida, shoirning o'z ta'biri bilan aytganda, «tarjima rasmi bila» yuzaga keltirgan she'riy mo'jizasi edi. «Lison ut-tayr» aruzning ramali musaddasi maqsur (foilotun — foilotun — foilon) vaznida yozilgan bo'lib, 3598 baytdan iborat. Dostondagi bosh g'oya, bosh muammo tasavvufdagi imon, e'tiqod va ma'naviyat masalalaridir. Alisher Navoiyning niyati oddiy insonlarga insoniylikning ilohiy mohiyatini tushuntirib berish, ularni og'ir sinovlardan o'tkazib, komil inson darajasida ko'rish. Shoir asarda qushlar timsolida tasavvuf yo'liga kirgan va Allohni ko'rishga, unga yetishishga astoydil kirishgan xudojo'y insonlarni tasvirlashga intilgan. Hudhud degan qush nomidan so'ylangan yuzlarcha hikoyalar tasavvufiy mazmunda bo'lib, ular hammasi hayotiy, biri biridan qiziqarli. Qushlarning rang-barang timsollari orqali Alisher Navoiy o'zining tasavvuf ta'limoti bilan bog'liq g'oyalarini, Allohning hamma narsaning tashqarisida emas, balki ichida, o'zida ekanini ko'rsatish va isbotlashga harakat qiladi. Insonning ulug'vorligini majoziy uslub bilan, ta'sirli qilib, real ijtimoiy, axloqiy hodisalar ila bog'lab tasvirlagan. Tasavvufning vaxdat ul-vujud nazariyasi ham shu tarzda o'zining badiiy in'ikosini topgan. Bu bilan Navoiy tasavvuf g'oyalarini keng kitobxonlar ommasiga badiiy kurkam va jonli yetkazishda oliy darajada san'atkorlik ko'rsatgan.

Alisher Navoiy butun hayoti davomida o'zbek tili bilan bir qatorda forsiy tilda ham ijod qilib, barakali meros yaratdi. Uning bu tildagi she'rlari 1490-yillarning o'rtalarida, Eron olimi Yusuf Sheroziy taxminicha, 1495—1500 yillar orasida muallif

tomonidan devon holiga keltirilgan va «Devoni Foniyy» nomi bilan mashhur. Mazkur devoni 1963 yilda Tehronda, 1965 yilda Toshkentda, 1993 yilda Dushanbada nashr etilgan. O'zbek olimi Sulaymonov tavsifi bo'yicha, «Devoni Foniyy»da, «Debocha»dan tashqari, 7 qasida, 554 g'azal, 1 musaddas, 1 marsiya, 72 qit'ya, 73 ruboiy, 16 tarix, 373 muammo, 9 lug'z bor. «Devoni Foniyy»dagi g'azallarning aksariyati mashhur fors shoirlari she'rlariga tatabbulardan iborat. Jumladan Jomiyning 52, Hofiz Sheroziyning 237, Xisrav Dehlaviyning 33, Sa'diy Sheroziyning 25, Mavlono Kotibiyning 5, Shohiy Sabzavoriyning 5, Kamol Xo'jandiyning 4 va boshqa g'azaliga tatabbu bog'langan. Alisher Navoiy fors tilida yozgan original g'azallariga «Muxtara», «Ixtiro» deb sarlavha qo'ygan bo'lib, ularning soni 50 dan ortiq.

Alisher Navoiy o'zining forsiy kasidalaridan alohida to'plamlar ham tuzgan bo'lib, ularning biri «Sittai zaruriya» («Olti zarurat»), ikkinchisi «Fusuli arbaa» («To'rt fasl») deb ataladi. «Sittai zaruriya» to'plamiga 6 qasida kiritilgan bo'lib, ularni Xisrav Dehlaviy, Jomiy, Anvari, Haqoniy, Solmon Sovajiy va boshqa qasidanavislar ta'sirida yaratgan. U davrlarda shoirning she'riy mahorati ko'p vaqt qasida yozish bilan belgilanganini hisobga olsak, Alisher Navoiyning ham qasidanavislik salohiyati yuqori bo'lgan. Alisher Navoiyning «Fasuli arbaa» to'plamiga 4 qasidasi kiritilgan bo'lib, ulardan «Bahor» 57 baytdan, «Saraton» 71 baytdan, «Xazon» 33 baytdan, «Day» 70 baytdan iborat. Ularda yilning 4 fasli — bahor, yoz, kuz va qish, bu fasllardan har birining o'ziga xos go'zalligi zavq bilan tasvirlangan va to'rttalovi ham zamon podshohi — Sulton Husayn Boyqaroni podshoh va shaxs, yaxshi dust va yaxshi inson sifatida vasf etishga bag'ishlangan. Umuman, Alisher Navoiy o'zining forsiy tildagi asarlari bilan zamondoshlarining, birinchi navbatda, Jomiyning yuqori tahsiniga sazovor bo'lgan va fors-tojik adabiyoti, xususan she'riyati rivojiga munosib hissasini qo'sha olgan.

Alisher Navoiy shoir bo'lish bilan birga o'z davrining ulug' olimi, mutafakkiri ham edi. Navoiysiz bu davr fani va madaniyati taraqqiyotini tasavvur etish qiyin. Alisher Navoiy ilmiy tadqiqotlari va izlanishlarining katta qismi, tabiiyki, til va adabiyot masalalari bilan bog'langan. Shu ma'noda «Majolis un-nafois» tazkirasini yaratish bilan Alisher Navoiy o'z davri adabiyotiga, uning ijodkorlariga o'ziga xos haykal o'rnatdi. Unda o'zbek va forsiy tillarda ijod qilgan 359 shoirning hayoti va yozgan asarlari haqida noyob ma'lumotlar berilgan, bu ijodkorlarning yutuklari va kamchiliklari, o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatilgan.

Alisher Navoiyning «Xamsat ul-mutahayyirin», «Holoti Sayyid Hasan Ardasher», «Holoti Pahlavon Muhammad» asarlari «Majolis un-nafois»ning davomiday bo'lib, bu davr adabiyoti, fani va madaniyatining yirik namoyandalari hayotini o'rganishda eng qimmatli manbalardir. Bu asarlar badiiy-tasavvuf adabiyotining manqab (yoki manqaba) janriga tegishli bo'lib, uslubining samimiyligi bilan ajralib turadi.

Alisher Navoiyning katta adabiy va tarixiy ahamiyatga ega «Munshaot» asari uning turkiy tilda o'z zamondoshlari — podshohlar va shahzodalar, ilm va adabiyot axdlari bilan olib borgan yozishmalari majmuidan iborat, maktub janrining mukammal namunalari sanaladi. Maktublarning miqdori turli qo'lyozmalarda turlicha, bir-birini to'ldiradi. Alisher Navoiy o'zining forsiy maktublarini ham yig'ib, «Munshaot» tuzgan. Biroq u bizgacha yetib kelmagan.

Alisher Navoiyning eng muhim asarlaridan biri «Vaqfiya» bo'lib, bir qarashda, shoir va buyuk davlat arbobining o'zi qurgan imoratlariga vaqfi, ya'ni rasmiy hujjatidek ko'rinsa ham, aslida unda Sulton Husayn Boyqaro davri davlat tizimi, Alisher Navoiyning bu davlatni boshqarishdagi o'rni, uning tarjimai holi, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy qarashlari katta bilimdonlik va aniqlik bilan yoritilgan. Shuning uchun ham navoiyshunoslikda bu asarga Alisher Navoiy nasrining ajoyib namunasi sifatida qaraladi. Muallif fikrlarining ba'zilarini she'r bilan, xususan ruboiy shaklida bayon qilishi uning qaysi masalaga qo'l urmasin, o'zini she'riyatdan hech uzoq turmaganini, doim she'riyat bilan nafas olganini namoyon etadi.

Alisher Navoiyning adabiyot nazariyasiga oid «Mufradot» («Risolai muammo») asari forsiy tilda yozilgan, muammo yozish va yechish qoidalarini ilmiy izohlashga bag'ishlangan. Navoiy davrida bu she'r turi nihoyatda keng iste'molda bo'lgan. Aftidan, bu janr nazariyasi va amaliyoti shu davr kitobxonlarining adabiy didi, tarbiyasi bilan ham bog'langan edi. Alisher Navoiy ba'zan maxsus muammo yechish majlislari tashkil etgan.

Alisher Navoiyning «Mezon ul-avzon» («Vaznlar o'lchovi») va «Muhokamat ul-lug'atayn» («Ikki til muhokamasi» yoki «Ikki til tadqiqi») asarlari boshqa ilmiy tadqiqotlaridan farqli o'laroq umumturkiy ahamiyatga ega va boshqa turkiy xalqlarning she'riyati va tillarini o'rganishga ham xizmat qilib kelmoqda. Alisher Navoiy «Mezon ul-avzon»ni aruzning birinchi tadqiqotchisi Xalil ibn Ahmad, keyingi davr olimlaridan Shams Qays, Xoja Nasriddin Tusiy, zamonaviy tadqiqotchilardan Jomiy tajribalaridan ijodiy istifoda etib yaratgan. Aruz vazni bo'yicha o'zbek tilidagi bu birinchi ilmiy qo'llanmada uning asosiy ruknlari va boshqa unsurlari, 19 bahrining tuzilishi, ruboiy vaznlarini aniq ta'riflab, turkiy she'riy misollar opqali asoslab, izohlab berilgan. Asarda aruz vazniga tushmaydigan she'riy vaznlar — tuyuq, chinga, mustazod, aruzvoriy, budi-budoyi va boshqa turkiy she'riy vaznlarga ham izoh va talqinlar berilgan. Bu asar aruz bo'yicha bugungi kunda ham o'z ilmiy qimmatini va amaliy ahamiyatini yo'qotmagan.

«Muhokamat ul-lug'atayn»da turkiy tilning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotdagi o'rni, uning grammatik mukammalligi, so'zlarga boyligi forsiy til qoidalari va hodisalariga qiyoslangan holda chuqur va aniq misollar orqali tahlil etilgan. Alisher Navoiy o'zining bu tilni, uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini, so'z va iboralarga boyligini shoir sifatida chuqur egallagani uchun, uning boshqa tillardan kamlik joyi

yo'qligini, aksincha, ularga nisbatan o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini vatanparvar olim sifatida ehtiros bilan ko'rsatib, isbotlab bergan. Uning muqoyasa uchun keltirgan 100 ta turkiy fe'lining aksari o'zbek tilida hozirgacha iste'molda. Shu bilan birga «Muhokamat ul-lug'atayn»da o'zbek adabiyoti tarixi, uning boshqa adabiyotlar, xususan forsiy adabiyot bilan yaqindan bog'langanligi, Navoiy ijodining rivojlanish yullari, ayrim asarlarining yuzaga kelishi sabablari haqida ham qimmatli ma'lumotlar bor. Alisher Navoiy hayotining oxirlarida «Mahbub ul-qulub» nasriy asarini yezdi. Asar 3 qismdan iborat. Uning birinchi qismi 40 fasl. Har bir faslida muallif o'zi yashagan davrdagi bir tabaqa hayoti, axloqi va vazifalari haqida suhbat yuritadi. U ushbu tabaqa vakillarining yaxshi ishlari haqida ham, ayb va nuqsonlari haqida ham goh halimlik bilan, goh g'azab-nafrat bilan mulohaza yuritib, ularni insofga chaqirmoqchi, tarbiyalamoqchi bo'ladi. Asarda Alisher Navoiyning inson axloqiga va tarbiyasiga doir eng noyob pand va nasihatlar xalq maqollari va hikmatli so'zlari shaklida bayon qilingan. Ko'p o'rinda shoir o'z fikrlarini bayt, qit'a, masnaviy, ruboiy shaklida ifodalashi asarga rang-baranglilik bag'ishlagan. «Tarixi muluki Ajam» va «Tarixi anbiyo va hukamo» Alisher Navoiy Sulton Husayn Boyqaro davri ijtimoiy-siyosiy tarixiga bag'ishlab yozmoqchi bo'lgan asarining boshlang'ich bo'laklaridir.

Alisher Navoiy «Tarixi muluki Ajam»da qadimgi Eron podshohlari, ularning tarixda muhrlanib qolgan ishlari va shaxsiyatlari to'g'risida hikoya qiladi. Bunday ma'lumotlarni Navoiy ko'proq Abulqosim Firdavsiyning «Shohnoma» dostonidan hamda «Tarixi Tabariy» kitobidan olgan.

Alisher Navoiyning «Tarixi anbiyo va hukamo» asari esa islom dini tarixi bilan bog'liq rivoyatlar va adabiy asarlarni, xususan bir qator payg'ambarlar hayotini Buqrot (Gippokrat), Aflotun (Platon), Batlimus (Ptolemey) kabi donishmandlarni bilib olish uchun muhim manbadir. Ayni vaqtda Alisher Navoiyning bu asarlari o'zbek badiiy nasrining qadimiy va go'zal namunalari.

Alisher Navoiy o'zidan boy she'riy, nasriy va ilmiy meros qoldirgan bo'lib, bu merosning hajmi, «Lison ut-tayr» dostonida shoirning o'zi ta'kidlashicha, 100 ming baytdan iboratdir. Bu boy meros bilan Alisher Navoiy o'zbek adabiyotini jahon yuksakligiga ko'tardi va o'zbek adabiy tiliga asos soldi. O'zbek adabiyotida lirik janrlar va dostonchilikning eng yuqori taraqqiyoti Alisher Navoiy nomi bilan bog'langandir.

Alisher Navoiy asarlari o'nlab xalqlarning tillariga tarjima bo'lgan. Macalan, «Majolis un-nafois» 16-asrdayoq fors tiliga Faxriy bin Sulton Muhammad Amiriy, Muhammad Qazviniy va Shohali Abduali Nishopuriy tomonidan 3 marta tarjima qilingan. Alisher Navoiyning boshqa tillarga tarjima qilingan dastlabki badiiy asari «Sab'ai sayyor» bo'ldi. Xristofor Armaniyning 1557 yilda italyan tilida nashr etilgan «Sarandib shohi uch o'g'lonining ziyorati» asarida Alisher Navoiyning «Sab'ai sayyor» dostonidagi qoliplovchi hikoyasi — «Bahrom va Dilorom» hikoya qilinadi.

Bu asar nemis, frantsuz va golland tillariga tarjima qilinib, 11 marta nashr etilgan. Shuningdek, 17-asr Gruzin shoiri Sitsishvili Alisher Navoiyning «Sab' ai sayyor» dostonini erkin tarjima qilib, «Etti go'zal» dostonini yaratdi. 19-asrning oxiri va 20-asrning boshlarida Alisher Navoiyning «Muhokamat ul-lug'atayn» asari turk va tatar tillariga tarjima qilindi.

Alisher Navoiy vafot etganidan keyin o'tgan davr mobaynida uning asarlari forsiy va turkiy xalqlar orasida keng yoyildi. Atoqli tojik shoirlarining ko'pchiligi, Fuzuliy, Kishvari, Mirzo Fatali Oxundov, Sobir kabi ozarbayjon yozuvchilari, Ozodiy, Mahtumquli va Zelili kabi turkman shoirlari, qozoq yozuvchisi Abay Qo'nonboev, qoraqalpoq sohibqalamlari Berdaq, Ajiniyoz, tatar shoirlari Abdulla To'qay, Hayum Nosiriy va boshqa Alisher Navoiyga yuksak baho berib, asarlaridan ta'lim oldilar, ayrim asarlariga nazira bitdilar.

Alisher Navoiy ijodiyotiga qiziqish, uni o'rganish Yevropa va Rossiyada ham hiyla katta tarixga ega. Frantsuz sharqshunosi Katrmer 1841 yilda bosilgan xrestomatiyasida Alisher Navoiyning «Muhokamat ul-lug'atayn» va «Tarixi muluki Ajam»ni e'lon qilgan, I.N. Berezin «Turk xrestomatiyasi»da uning bir necha asarlaridan parchalar bergan. M. Nikitskiy 1856 yilda birinchi manbalar asosida «Amir Nizomiddin Alisher. Uning davlat va adabiyot sohasidagi ahamiyati» mavzuida magistrlik dissertatsiyasini yozadi. Shu bilan birga, N.I. Il'minskiy, V.V. Vel'yaminov-Zernov, V.V. Bartold, Ye.E. Bertels, S.N. Ivanov, N.I. Konrad, M. Belen, Pave de Kurteyl, E. Braun va boshqa sharqshunoslar Alisher Navoiyning faoliyati va merosi bilan shug'ullandilar.

Turkistonda 20-asr boshidan boshlangan, tashabbuskori jadidlar bo'lgan ma'rifiy uyg'onish Alisher Navoiyning hayoti va faoliyatini o'rganishda ham o'z ifodasini topdi. 1919 yilda Toshkentda Fitrat nashrga tayyorlagan «Insoniyat haqida Navoiyning fikri» nomli risola bosilib chiqdi. Bu kitobcha Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror» dostonining «Salotin bobida» («Sultonlar haqida») degan qismidan parcha edi. Shundan so'ng Alisher Navoiy ijodini o'rganish va ommalashtirish keng tus oldi. Adabiyotshunoslik fanining navoiyshunoslik sohasi yuzaga keldi. Bu sohada olimlar va adiblardan Oybek, O. Sharafiddinov, S. Ayniy, V. Zohidov, Izzat Sulton, A. Qayumov, P. Shamsiev, H. Sulaymonov, N. Mamaev, S. G'anieva, A. Hayitmetov, A. Abdug'afurov, A. Rustamov va boshqa salmoqli ishlar qildilar, Alisher Navoiy ijodi bo'yicha o'nlab nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari yozildi. Yozuvchi Oybek «Navoiy» romanini, Izzat Sulton «Navoiyning qalb daftari» hujjatli qissasini, L. Bats «Hayot bo'stoni» qissasini, Mirkarim Osim hikoyalar turkumini yaratdi. Ayniqsa, keyingi 50 yil navoiyshunoslikda sermahsul yillar bo'ldi. Alisher Navoiy asarlarining mamlakatimiz kitob fondlari va chet ellardagi kutubxonalarda saqlanayotgan deyarli barcha nodir nusxalari o'rganildi.

Alisher Navoiy ijodiyotiga qiziqish, uni o'rganish Yevropa va Rossiyada ham hiyla katta tarixga ega. Frantsuz sharqshunosi Katrmer 1841 yilda bosilgan xrestomatiyasida Alisher Navoiyning «Muhokamat ul-lug'atayn» va «Tarixi muluki Ajam»ini e'lon qilgan, I.N. Berezin «Turk xrestomatiyasi»da uning bir necha asarlaridan parchalar bergan. M. Nikitskiy 1856 yilda birinchi manbalar asosida «Amir Nizomiddin Alisher. Uning davlat va adabiyot sohasidagi ahamiyati» mavzuida magistrlik dissertatsiyasini yozadi. Shu bilan birga, N.I. Il'minskiy, V.V. Velyaminov-Zernov, V.V. Bartold, Ye.E. Bertels, S.N. Ivanov, N.I. Konrad, M. Belen, Pave de Kurteyl, E. Braun va boshqa sharqshunoslar Alisher Navoiyning faoliyati va merosi bilan shug'ullandilar.

Turkistonda 20-asr boshidan boshlangan, tashabbuskori jadidlar bo'lgan ma'rifiy uyg'onish Alisher Navoiyning hayoti va faoliyatini o'rganishda ham o'z ifodasini topdi. 1919 yilda Toshkentda Fitrat nashrga tayyorlagan «Insoniyat haqida Navoiyning fikri» nomli risola bosilib chiqdi. Bu kitobcha Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror» dostonining «Salotin bobida» («Sultonlar haqida») degan qismidan parcha edi. Shundan so'ng Alisher Navoiy ijodini o'rganish va ommalashtirish keng tus oldi. Adabiyotshunoslik fanining navoiyshunoslik sohasi yuzaga keldi. Bu sohada olimlar va adiblardan Oybek, O. Sharafiddinov, S. Ayniy, V. Zohidov, Izzat Sulton, A. Qayumov, P. Shamsiev, H. Sulaymonov, N. Mamaev, S. G'anieva, A. Hayitmetov, A. Abdug'afurov, A. Rustamov va boshqa salmoqli ishlar qildilar, Alisher Navoiy ijodi bo'yicha o'nlab nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari yozildi. Yozuvchi Oybek «Navoiy» romanini, Izzat Sulton «Navoiyning qalb daftari» hujjatli qissasini, L. Bat «Hayot bo'stoni» qissasini, Mirkarim Osim hikoyalar turkumini yaratdi. Ayniqsa, keyingi 50 yil navoiyshunoslikda sermahsul yillar bo'ldi. Alisher Navoiy asarlarining mamlakatimiz kitob fondlari va chet ellardagi kutubxonalarda saqlanayotgan deyarli barcha nodir nusxalari o'rganildi.

Alisher Navoiyning ko'pgina asarlarining ilmiy tanqidiy matni ishlab chiqildi. «Devoni Foni» va boshqa asarlarining nodir nusxalari topilib, nashr etildi. 20-asrda Alisher Navoiyning chinakam sahnaviy hayoti boshlandi. Izzat Sulton va Uyg'un «Alisher Navoiy» dramasini (1945, 1948), I. Mahsumov bastakorlar Yu. Rajabiy va S. Jalil bilan hamkorlikda «Navoiy Astrobodda» musiqali dramasini (1967) yozdilar. Alisher Navoiy obrazi kinoekranda ham mujassamlashdi. Alisher Navoiy dostonlari asosida yaratilgan «Farhod va Shirin» musiqali dramasi (1937), «Layli va Majnun» operasi (1942), «Suhayl va Mehri» baleti (1967), «Dilorom» operasi (1958), «Iskandar» dramasi (1991) teatr san'atining eng yaxshi asarlaridan bo'lib qoldi.

1991 yilda Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi tantanali nishonlandi. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti ta'sis etildi. Toshkentda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'i barpo etildi va bu bog' o'rtasida shoirning salobatli haykali qad ko'tardi. Shoirning 20 jildli mukammal asarlar to'plami

nashr etildi. Mamlakatimizda Alisher Navoiy xotirasi yuksak darajada e'zozlanadi. Bir viloyat, shahar, oliy o'quv yurti (Samarqand davlat universiteti), Toshkentdagi Davlat kutubxonasi, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti, Adabiyot muzeyi, Toshkentdagi Katta akademik opera va balet teatri, San'at saroyi, Toshkentdagi metro bekati, o'nlab ko'chalar va jamoa xo'jaliklari uning nomi bilan atalgan. Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag'ishlab haykaltaroshlar, rassomlar va bastakorlar asarlar yaratishgan. Har yili Alisher Navoiy tug'ilgan kun — 9 fevralda ilmiy-an'naviy konferentsiya o'tkazilib, Alisher Navoiy merosini o'rganish sohasida qilingan yillik ishlarga yakun yasaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alimamatova Sh. O'zbek tilida frazemalarning komponent tahlili. Fil. fan. no mz. diss. . avtoref. T., 2008.-B.11.
2. Alisher Navoiy. Xazoyinul-maoniy. I t. G'aroyibus-sig'ar. T.: FAN, 1959.
3. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – T.: Qamuslar bosh tahririyati, 1992. –B.11
4. Tursunov U. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: O'qituvchi, 1992.- B. 316.
5. Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. T., «Sharq», 1998

V- VI QARAQALPAQ KLASLARÍNDÁ INGLIZ TILIN OQÍTÍWDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARDÍ QOLLANÍW USÍLLARÍ

Urazimbetova Zuxra Uzaqbaevna
Qaraqalpaq mámlekeklik universiteti
Birinshi basqish tayanish doktoranti

Ключевые слова: Цифровая грамотность, текстовая грамотность, компьютер, вербальность, невербальность, язык, метод, обучение, процесс урока, произведение.

Key words: Digital literacies, texting literacy, computer, verbatim, non-verbalism, language, method, writing, genres, training, the process of the lessons, work.

Ózbekstan Respublikası bilimlendiriw sistemasına usı jańalıqlardı engiziw zárúrlıgı hám áhmiyeti tómenдеги jaǵdaylardan kelip shıǵadı: Birinshiden, ilim hám texnikanıń tez pát penen rawajlanıwı nátiyjesinde informaciyalardıń keskin artıwı, tez tarqalıwı, ózgeriwı hám olardı jaslarǵa úyretiwge waqıttıń jetkiliksizligi, tálim-tárbiya processindegi oqıtıwshı hám oqıwshı arasındaǵı qarım-qatnastı, olardıń wazıypaların ózgeriw zárúrlıgı payda boldı. Ekinshiden, házirgi dáwirde insaniyattıń teoriyalıq oy-pikirdiń anıq juwmaqlarǵa, ámeliy áhmiyetke iye texnikalıq oy-óriske ótip baratırǵanlıǵı, jaslardı tárbiyalawda kompetenciya tiykarda qatnas jasaw principin basshılıqqa alıw tiyis. Usı kózqarastan qaraqalpaq ádebiyatın oqıtıwda interaktiv texnologiyanıń metodikalıq ózgeshelikleri basshılıqqa alınıp, interaktiv oqıtıw usılları arqalı oqıwshılardıń bilim alıw múmkinshiligin, belsendiligin rawajlandırıw zárúr.

Dúnyada tezlik penen jańalanıp atırǵan rawajlanıwlar dáwiri hár saatta ózgermekte hám ósip kiyatırǵan jas áwladtıń pikirlewi, dúnyaǵa kózqarası túrlishe hám bul process búgingi bilimlendiriw sistemasında oqıtıwshınıń tınımsız izleniwine, jańadan-jańa ideyalardı qollanıwǵa, tálimde innovaciyalıq texnologiyalardan, AKT dan paydalanıw zárúrligin arttırıp barmaqta. V-VI qaraqalpaq klasslarında ingliz tilin oqıtıwda dástúriy emes sabaq túrlerin alıp kiriw hám onı tálim mazmunına sińdiriw, sabaq ótiwdiń jańasha usılların tabıw mámleketlik bilimlendiriw standartları talapların orınlawǵa imkan jaratadı. V-VI qaraqalpaq klasslarında ingliz tili sabaqlarında oqıwshılardı hár tárepleme tárbiyalaw, ósip kiyatırǵan jas áwlad ulıwma insaniylyq hám milliy qádiriyatlarǵa sadıq bolıw, milliy tilge óz xalqınıń dástúrlerine maqtanish sezimlerin oyatıw zárúr.

Ózbekstan Respublikasınıń 2030-jılǵa kelip, PISA (The Programme for International Student Assessment) xalıqaralıq kólemde oqıwshılardı bahalaw dástúri reytingi boyınsha jáhanniń birinshi 30 aldıńǵı mámleketi qatarına kiriwine erisiw,

úzliksiz tálim sisteması mazmunın jańalaw, sonday-aq, professional kadrlardı tayarlaw, qayta tayarlaw hám olardıń tájiriybelerin asırıw, oqıtıw metodikasın jetilistiriw, tálim-tárbiya processine individuallastırıw principlerin basqıshpa-basqısh járiya etiwge qatań itibar beriw aktual wazıypa bolıp esaplanadı. O'zbekstan Respublikası Ministrler Kabinetiniń 2017-jıl 15-marttaǵı "Ulıwma orta tálim sistemasın shólkemlestiriw tuwralı nızamın tastıyıqlaw haqqında"ǵı 140-sanlı, 2017-jıl 6-apreldegi "Ulıwma orta hám orta arnawlı, kásip-óner táliminiń Mámleketlik bilimlendiriw standartların tastıyıqlaw haqqında"ǵı 187-sanlı qararı, 2020-jıl 23-sentyabrdegi O'zbekstan Respublikasınıń «Bilimlendiriw haqqında» Nızamı hám basqa normativ-huqıqıy hújjetlerdi hárbir oqıwshı biliwi kerek.

Ulıwma bilim beriw mektepleriniń V-VI qaraqalpaq klasslarında ingliz tilin oqıtıwda innovaciyalıq texnologiyalardı qollanıw, ingliz tili sabaqlarında oqıwshılardıń kompetenciyasın rawajlandırıwǵa baylanıslı ilimiy metodikalıq jumıslardı hám usılların anıqlaw, ingliz tilin oqıtıwda innovaciyalıq texnologiyalardı paydalanıwdıń ilimiy teoriyalıq tiykarların jaratıw, ingliz tilin oqıtıwda interaktiv metodlardı qollanıwdıń ózgesheliklerin, didaktikalıq tallawdıń principlerin jetilistiriw kerek. Jánede qaraqalpaq klasslarında ingliz tili sabaqlarında innovaciyalıq texnologiyalardı qollanıwı boyınsha nátiyje beretuǵın tájiriybeler anıqlanıw, ingliz tili páni baǵdarlamasına innovaciyalıq texnologiyalardı qollanıw boyınsha materiallar tańlaw hám olardıń aldına qoyılatuǵın metodikalıq talapların támiyinlew hám ingliz tilin úyreniw usılları kórip shıǵıw hám teoriyalıq metodikalıq jaqtan talıqlanıw nátiyjesi kórsetiw, ingliz tilin oqıtıw metodikasınıń eń sońǵı jetiskenlikleri tiykarında shınıǵıwlardı tallawdıń usılları, sabaq islenbelerinde úlgiler berilgen, ingliz tili páni oqıtıwshılarınıń metodikalıq sheberligin asırǵan teoriyalıq juwmaqları tiykarında nátiyjelerdiń sapası anıqlaw eń zárúrli metodikalıq máselerden esaplanadı.

5-6- qaraqalpaq klaslarında ingliz tili boyınsha sabaqlardı oqıtıw barısında interaktiv iskerliktiń tiykarǵı belgileri bolǵan óz ara baylanıs, jeke juwapkershilik, bir-birine járdem kórsetiw háreketi, jumıstı birge alıp barıw qábileti, topardaǵı jumıs nátiyjesi sawleleniwı tiyis. Interaktiv texnologiyanıń áhmiyetli tárepi - bir shıǵıp sóylewshiniń, bir pikirdiń ústemligin shekleydi. Nátiyjede oqıwshılar bilim alıw barısında óz pikirin sın kózqaras penen aytıwǵa hám tiyisli ádebiy materiallardı talqılaw tiykarında quramalı máselelerdi sheshiwge, qáte pikirlerdi saplastırıwǵa, tereń oylap kórilgen sheshimlerdi qabıl etiwge, óz-ózi menen mádeniyatlı qarım-qatnas jasawǵa úyrenedi. Bul ushın ádebiyat sabaqlarında jeke, jup hám topar jumısları shólkemlestirilip barıladı.

5-6- qaraqalpaq klaslarında ingliz tili boyınsha hárqıylı maǵlıwmatlar menen tanııp, pikirlew qábileti, dóretiwshilik uqıbı jetilisedi. Ingliz tili oqıtıwda interaktiv usıllar klasta yamasa auditoriyada sherikleslik jaǵdayında shólkemlestiriledi. Ingliz tili páni sabaǵında interaktiv texnologiyalardı qollanıw barısında oqıtıwshı dóretiwshi

shariklesler sıpatında islewge, turaqlı tayarlıqqa hám juwapkershilikli máselelerdi sheshiwge úyrenedi. Ingliz tili sabaqlıqlarında temağa say interaktiv texnologiyalarınan paydalanıladı. Interaktiv texnologiyalar mashqalalı máselelerdi sheshiwde, diskussiya ótkeriwde, ulıwmalastırw sabaqlarında yaki oqıw rejesi tiykarında bir bólim úyrenilip bolıngannan soń qollanılıwı múmkin. Interaktiv texnologiya oqıwshılardı óz pikirini qorǵawǵa, erkin pikirlew hám óz pikirini basqalarǵa ótkeriwge, ashıq túrde tartıswǵa, sonıń menen bir qatarda, oqıwshılardı oqıw procesinde iyelegen bilimlerin talqılawǵa úyretedi.

5-6- qaraqalpaq klaslarında ingliz tili sabaqlarında interaktiv texnologiyalardan paydalanıw, jeke tájiriye toplaw eń áhmiyetli metodikalıq máselelerden esaplanadı. Ingliz tili sabaqlarında interaktiv texnologiyalardı qollanıw haqqında jazılǵan metodikalıq ádebiyatlar menen tanısw múmkin. Negizinde muǵallimniń ózi sabaqlarında interaktiv usıllardı nátiyjeli paydalanıw arqalı kóp tabıslarǵa erisedi.

5-6- qaraqalpaq klaslarında ingliz tilin oqıtıwda interaktiv usıllar tómendegi nátiyjelerge alıp keledi: Birinshiden, oqıwshılardıń ádebiyat sabaǵına, pánge qızıǵıwshılıǵı artadı hám oqıw materialların bekkem ózlestiredi. Ekinshiden, oqıwshılardıń tereńnen oylaw hám erkin pikirlew qábleti rawajlanadı sóylew mádeniyatı qalıpleseidi. Úshinshiden, oqıwshılar sabaqqa belsendilik penen qatnasadı.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Богданова О.Ю., Леонова С.А., Чертова В.Ф. Методика преподавания литературы. – Москва: Педагогика, 2002. – 162 с.
2. Юлдашев Қ., Юлдашева М. Бадиий таҳлил асослари. – Тошкент: КАМАЛАК, 2016, – стр 461.
3. Хусанбоева Қ., Ниёзметова Р. Методика преподавания литературы. –Т.: Баркамал файз мадиа, 2018. – стр. 352
4. Юсупов К.А. Qaraqalpaq ádebiyatın oqıtıw metodikası. Sabaqlıq. – Tashkent: Sano-standart, 2018. – 21 б.т. – 336 б.
5. Юсупов К.А. Академиялық лицейлерде қарақалпақ әдебиятын оқытыў методикасы. Монография. – Нөкис: Qaraqalpaqstan, 2019. – 7 б.т. – 112 б.
6. Юсупов К.А. Академик лицейларда қорақалпоқ адабиётини ўқитиш методикаси (педагогика фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати). – Нөкис: Miraziz Nukus, 2021. – 66 бет.
7. Юсупов К.А. Kórkem shıǵarmalardıń mazmunıń úyreniw metodikası. Oqıw qollanba. – Tashkent: Yosh avlod matbaa, 2021. – 23,75 б.т. – 380 б.
8. Юсупов К.А. Qánigelik hám pedagogikalıq ámeliyat. Oqıw qollanba.– Nókis: Ilimpaz, 2021.. – 60 б.
9. Yusupov KA Arnawlı pánlerdi oqıtıw metodikası. sabaqlıq. – Tashkent: INNOVATSIYA-ZIYO, 2022. – 19 б.т. – 304 б.
10. Qaraqalpaq ádebiyatın oqıtıw texnologiyaları. Oqıw qollanba. – Tashkent: INNOVATSIYA-ZIYO, 2022. – 9.3 б.т. – 144 б.
11. Konis A. Yusupov. Studying Forms of Teaching Karakalpak Poetry at Academic Lyceums. Eastern European Scientific Journal. Germany. Ausgabe, 3-2018. 72-75.

12. Konis A. Yusupov. Studying Karakalpak Poetry in Academic Lyceums by Various Methods in Class. Eastern European Scientific Journal. (ISSN 2199-7977). Germany. 1-2019. 83-85.
13. Yusupov K.A. Scientific and theoretical foundations of teaching Karakalpak literature at academic lyceums // Journal of Critical Reviews. (ISSN 2394-5125). – Vol 7, Issue 7, 2020. – №1. – P.P. 349-354 (<https://www.scopus.com/sourceid/21100920227>).
14. Yusupov K.A. Akademik litseylarda qoraqalpoq adabiyoti // Til va adabiyot ta'limi. – Тошкент, 2020. – №6. – Б. 40-41
15. Yusupov K.A. Methods of teaching literary material at academic lyceums according to the program // Academicia. An International Multidisciplinary Research Journal (India). (ISSN: 2249-7137). – Vol. 10 Issue 5, 2020. – P.P. 1628-1634 (Impact Factor: SJIF 2020= 7,13).
16. Yusupov K.A. Curricula for teaching karakalpak literature. // Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal <https://saarj.com>. Academicia ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 5, May 2021, Стр. 1069-1074. Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492, 10.5958/2249-7137.2021.01525.1
17. Yusupov K.A. Scientific and methodological problems of studying karakalpak literature. //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR) <https://www.tarj.in>. ISSN: 2278-4853 Vol 10, Issue 5, May, 2021. Стр. 585-590. Impact Factor: SJIF 2021 = 7.699. 10.5958/2278-4853.2021.00451.1
18. Юсупов К.А. Изучение творчества Чингиза Айтматова в академических лицеях // Til va adabiyot ta'limi. – Тошкент, 2021. – №7. – стр. 52-53 (13.00.00. №8).
19. Yusupov K.A., Seytjanov J.E. Problems of artistic psychologism in Karakalpak prose. Philosophical Readings XIII.4 (2021), pp.2054-2060.2054 10.5281/zenodo.5584439. Info@philosophicalreadings.org
20. Юсупов К.А. Ш.Сейтов прозасын таллаў усыллары. (Методикалык қолланба). – Нөкис, «Miraziz Nukus», 2017. – 4 б.т. – 64 бет.
21. Юсупов К.А. Научно-методических основы преподавания каракалпакской литературы. Internaional Scienfiic Jounal Theoretical & Applied Science p-ISSN: 2308-4944 (print) e- ISSN:2409-0085 (online) Year: 2021 Issue: 11. Pp. 362-371. <http://T.Science.org>.
22. Юсупов К.А.Педагог шайыр лирикасы хэм тәлим-тәрбия мәселелери // Ilim ha'm ja'miyet. Нукус давлат педагогика институту журналы. – Нукус, 2021. – №4. – Б. 100-102.
23. Юсупов К.А. Өсербай Әлеуовтың лирикасын үйрениў. «Әмиўдәрья» журналы, 2021, – №4, – Б. 63-68.
24. Юсупов К.А. Развитие устной культуры учащихся на уроках литературы // Til va adabiyot ta'limi. – Тошкент, 2022. – №1. – Б. 70-71
25. Yusupov K.A. Umumiy orta ta'lim maktablarida qoraqalpoq adabiyotini o'qitish masalalari// Til va adabiyot ta'limi. – Тошкент, 2022. – №2. – Б. 17-18 (13.00.00. №8).
26. Yusupov K.A. Teaching students the metods of artistic depiction in Karakalpak prose. // Journal of Hunan University (Natural Sciences). Vol. 49. No. 04. April 2022. Page - 590-603.
27. Yusupov K.A. Methods of selection of Karakalpak Novels. // Journal of Positive School Psychology. (Scopus) Volume. 6, No. 4 (2022). Page - 26-30. ISSN: 7152-7159.
28. Yusupov K.A. Learning Discussing the Epic Novels. // Eurasian Journal of Learning and Academic Teahing. Volume 7 I March 2022. Page - 26-30. ISSN: 2795-739X.

29. Юсупов К.А. Обучение основам письменной речи учащихся. // «PEDAGOGS» international research journal. Volume-7, Issue-1, April-2022. – Стр. 176-181.
30. Yusupov K.A. Theoretical foundations of teaching Karakalpak literature. // GALAXY international interdisciplinary research journal (GIIRJ). ISSN (E): 2347-6915. Vol. 10, Issue 5. May, (2022). PP. 210-216.
31. Yusupov K.A. Qoraqalpoq adabiyotini ўqitish masalalari // Journal of new century innovations. (WSRjournal.com), Volume - 5, Issue - 6. May, (2022). PP. – 113-122.
32. Юсупов К.А. Изучение произведений писателя на уроках литературы // Международный научно-образовательный журнал «Образование и наука в XXI веке». Выпуск №26 (том 4), май, 2022. – Стр. 196-201.
33. Yusupov K.A. Methodology for analyzing lyrical works in literature lessons. // Miasto Przyszłości. (Impact Factor: 9.2). Vol. 26 (2022). Page - 200-208. ISSN: 2544-980X.
34. Юсупов К.А. Изучение творчества С.Мажитова в школе. //V Международный журнал научных исследований «Научный импульс». Выпуск №1, 30 август, 2022. – Стр. 44-50.
35. Yusupov K.A. Methods of Teaching the Works of O.Satbaev in Schools. // Journal of intellectual property and human rights. Vol. 01 Issue. September - 2022. Page – 44-53. ISSN: 2720-6882. <https://juournals.academiczone.net/index.php/jiphir>
36. Yusupov K.A., Jiemuratova A.S. Development of Oral and Written Speech of Students in Schools. // Journal of intellectual property and human rights. Vol. 01 Issue. September - 2022. Page – 56-66. ISSN: 2720-6882. <http://juournals.academiczone.net/index.php/jiphir>
37. Yusupov K.A. of Teaching Karakalpak literature // Central asian journal of literature, philosophy and culture. Vol. 03 Issue: 10 - 2022. Page – 75-85. eISSN: 2660-6828.
38. Юсупов К.А. Образ Айдос бия в каракалпакской литературе. // I International science conference on multidisciplinary research, Abstracts of International Scientific and Practical Conference. Berlin, Germany January 19-21, 2021, стр. 766-769
39. Юсупов К.А. Изучение в современной каракалпакской лирике. / III International science conference on e-learning and education, Abstracts of III International Scientific and Practical Conference. Lisbon, Portugal February 2-5, 2021, стр. 349-353.
40. Юсупов К.А. Изучение творчества Казакбай Юлдашева /V Международная научно-практическая конференция по новым тенденциям в науке и образовании «Theoretical and scientific bases of scientific thought», 16-19 февраля, 2021 г., Рим, Италия, стр. 503-508.
41. Юсупов К.А. Академиялық лицейлерде Аббаз Дабылов лирикасын оқыту технологиялары. /VI Международная научно-практическая конференция по фундаментальным наукам, искусству, бизнесу и образованию, интернет-технологиями и обществу. 23-26 февраля, 2021 г., Стокгольм, Швеция, стр. 431-432.
42. Юсупов К.А. Юсупов И.К. Лирикалық шығармаларды оқыту методикасы. /VI Международная научно-практическая конференция по фундаментальным наукам, искусству, бизнесу и образованию, интернет-технологиями и обществу. 23-26 февраля, 2021 г., Стокгольм, Швеция, стр. 469-474.
43. Юсупов К.А. Изучение литературных жанров. / VIII Международная научно-практическая конференция «Problems and tasks of modernity and approaches to their solution», 02-05 марта, 2021 г., Токио, Япония, стр. 198-203.
44. Юсупов К.А. Изучение творчества Аденбая Тажимуратова в академических лицеях. /IX Международная научно-практическая конференция

- «Innovative technologies in science and education», 04-06 марта, 2021 г., Израил, стр. 226-232.
45. Юсупов К.А. Изучение произведения писателя в академических лицеях. // IX Международная научно-практическая конференция «Innovative technologies in science and education», 04-06 марта, 2021 г., Иерусалим, Израил, стр. 233-238.
 46. Юсупов К.А., Алламбергенова Минайым. Изучение творчества Кали Жуманиязова в академических лицеях. /IX Международная научно-практическая конференция «Innovative technologies in science and education», 04-06 марта, 2021 г., Израил, стр. 239-243.
 47. Юсупов К.А. Изучение творчества Коньсбай Камалова в академических лицеях. // IX Международная научно-практическая конференция «Innovative technologies in science and education», 04-06 марта, 2021 г., Иерусалим, Израил, стр. 250-256.
 48. Юсупов К.А. Изучение произведения Мамбеталы Кайыпова в академических лицеях. // IX Международная научно-практическая конференция «Innovative technologies in science and education», 04-06 марта, 2021 г., Израил, стр. 257-264.
 49. Юсупов К.А. Изучать разборы эпических произведений в академических лицеях. /X Международная научно-практическая конференция «Topical issues, achievements and innovations of fundamental and applied sciences», 09-12 марта, 2021 г., Лиссабон.
 50. Юсупов К.А., Академиялық лицейлерде көркем шығармаларды оқыту технологиялары. /X Международная научно-практическая конференция «Topical issues, achievements and innovations of fundamental and applied sciences», 09-12 марта, 2021 г., Лиссабон, Португалия: стр.237-242
 51. Юсупов К.А. Жазыушылардың дәретиушлик психологиясы. / XIII Международная научно-практическая конференция «Development of modern science: theory, methodology, practice», 18-19 марта, 2021 г., Мадрид, Испания: – стр. 180-185.
 52. Юсупов К.А. Использование современных педагогических технологий в преподавании каракалпакской литературы / Материалы **Международной** научно-практической конференции. «Татарская литература и культура в контексте взаимодействия национальных литератур и искусств». Казанский федеральный университет, 26-27-марта, 2021 г. Стр.356-362.
 53. Юсупов К.А. Изучение творчества Сапа Матчанова. /XV Международная научно-практическая конференция «The world science of modernity. Problems and prospects of development», 25-26 марта, 2021 г., Париж, Франция: стр. 170-175.
 54. Юсупов К.А. Инновационные технологии в обучении каракалпакской литературе /Материалы Международной научно-практической конференции. «Татарская поэзия и культура второй половины XX начала XXI века». Казань, 26- апреля, 2021 г. Стр.341-346.
 55. Юсупов К.А. Т.Қайыпбергеновтың «Айдос баба» (Мың тиллаға баҳаланған гелле) драмасын таллау усыллары / «Түркий халықлары фольлоры ҳәм әдебияты тарийхы изертлениуиниң әхмийетли мәселелери» атамасындағы online халықаралық илимий-теориялық конференция материаллары топламы. – Нөкис: НМПИ баспасы, 2021 (27-28-май), – 245-248-бб.
 56. Юсупов К.А. Карақалпақ прозасында миллий психологияның сәулелениуи. /«Түркий филологияның әхмийетли мәселелери» атамасындағы халықаралық илимий-теориялық конференция материаллар топламы. Нөкис, «Қарақалпақстан», 2021, 113-118-бб.

57. Юсупов К.А., Кабулова М.Т. Развитие литературной речи и письменного языка учащихся на уроках литературы. "Models and methods for increasing the efficiency of innovative research" a collection scientific works of the international scientific conference (11 Desember, 2021) – Berlin: Copenhagen, 2021. ISSUE– p. 161-165.
58. Юсупов К.А. Анализ методика художественного произведения /Сборник материалов Международную научно-практическую конференцию посвященной 60 – летию кафедры «Педагогика» на тему: «Современное общество и педагогическое образование». Казакстан, Л.Н.Гумилев атындағы Еуразия университети. 22-апреля, 2022 г Стр.268-271.
59. Юсупов К.А. Adebıyat sabaqlarında oqıwshılardıń dóretıwshılık kompetencıyasın rawajlandırıw. /The and analytical aspects of recent research: International scientific-online conference, Part 1, Issue 5: May 31st 2022. Turkiya, Istanbul: pp. 104-109.
60. Юсупов К.А. Эпик асарларини ўрганиш усуллари. / в конференция и публикацию статьи в сборнике «Международная конференция академических наук », 25-сентябрь, 2022. Россия. Стр. 115-126. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7111598>.
61. Юсупов К.А. Изучение лирических произведений на уроках литературы. /Spain International scientific-online conference: "Solution of social problems in management and economy" Part 1, Issue 2: September 20, 2022. www.conf.com. Spain, Испания: pp. 21-26.
62. Yusupov K.A. Allambergenova M. Akademiyalıq liceylerde poeziyalıq shıǵarmalardı oqıtıw usılları. /Proceedings of international Conference on Educational Discoveries and Humanities. Vol. 1 No.1 (2022): ICEDH. Texas, USA.pp. 46-58.
63. Юсупов К.А. Халмурат Сапаров дөретиўшилиқ жолы. «Әмиўдәрья» журналы, Нөкис, 1996. 3-4-саны, 54-60.
64. Юсупов К.А. Бердақ шығармаларын үйрениў усыллары. «Қарақалпақстан муғаллими» журналы, Нөкис, 1996. 1-2-саны, 12-15.
65. Юсупов К.А. «Айдос бий» дәстаны хәм тарийх. «Әмиўдәрья» журналы, Нөкис, 2000. 2-саны, 94-96
66. Юсупов К.А. (авторлар менен бирге) Оқыўшыларымыз пикир айтады. «Әмиўдәрья» журналы, Нөкис, 2000. 3-саны.
67. Юсупов К.А. «Айдос бий» дәстаны хәм тарийх. «Әмиўдәрья» журналы, Нөкис, 2000. 6-саны, 112-115.
68. Юсупов К.А. Хәзирги дәўир хәм Бердақ шайыр мийрасына көз қарас. «Әмиўдәрья» журналы, Нөкис, 2001. 2-саны, 126-128.
69. Юсупов К.А. Хәзирги дәўир қарақалпақ әдебиятында Айдос бий образы. ӨзРИАҚҚБ «Хабаршысы» журналы, Нөкис, 2001. 5-саны, 130-131.
70. Юсупов К.А. Хәзирги дәўир қарақалпақ әдебиятында Айдос бий образының өзгешеликлери. ӨзРИАҚҚБ «Хабаршысы» журналы, Нөкис, 2001. 6-саны, 138-139.
71. Юсупов К.А. «Шырашылар» романының көркем психологизми. «Әмиўдәрья» журналы, Нөкис, 2006. 6-саны, 112-115.
72. Юсупов К.А. XX әсирдеги қарақалпақ прозасында көркем психологизм мәселелери. «Муғаллим хәм үзликсиз билимлендириў» журналы, 2007, 4-саны, 11-15 бб.
73. Юсупов К.А. Ишки монолог хәм шеберлик. «Әмиўдәрья» журналы, Нөкис 2008. 1-саны, 113-116 бб..
74. Юсупов К.А. Лирикалық прозада көркем психологизм. «Әмиўдәрья» журналы, Нөкис 2008. 2-саны, 124-127.

75. Юсупов К.А. Жазыушылардың дәретиушилик шеберлигин үйрениу методикасы. ҚМУ хабаршысы, 2009, 3-4-санлар, 126-129.
76. Юсупов К.А. И.Юсуповтың «Ұатан топырағы» шығармасының мазмунын үйрениу. ҚМУ хабаршысы, 2009, 3-4-саны, 46-49.
77. Юсупов К.А. Қарақалпақ әдебиятын интерактив методлар менен оқытуу усыллары. ҚМУ хабаршысы, 2011, 1-2-саны, 58-60.
78. Юсупов К.А. Қарақалпақ лирикасын изертлеуши алымның дәретиушилигин үйрениу. «Муғаллим хәм үзликсиз билимлендириу» журналы, 2012, 1-саны, 3-8.
79. Юсупов К.А. «Академиялық лицейлерде И.Юсупов дәретиушилигин лекция түрлери менен үйрениу усыллары». ҚМУ хабаршысы, 2012, 3-4-санлар, 30-32.
80. Юсупов К.А. Жазыушылар дәретиушилигин үйрениу усыллары. «Әмиудәрья» журналы, Нөкис 2012. 4-саны, 115-118.
81. Юсупов К.А. Қонысбай Камалов-қарақалпақ прозасын изертлеуши алым. «Әмиудәрья» журналы, 2014, 1-саны, 82-91.
82. Юсупов К.А. Әдилбай Қожықбаев-қарақалпақ әдебиятын изертлеуши. «Әмиудәрья» журналы, 2014, 6-саны, 123-128.
83. Юсупов К.А. Әдебияттанууда салмақлы орны бар алым. ҚМУ хабаршысы, №1, 2015, 132-136.
84. Юсупов К.А. Ш.Сейтов прозасында пейзаж хәм қахарман образын үйрениу мәселелери. ҚМУ хабаршысы, №2, 2015, 92-96.
85. Юсупов Қ. Бердақ шығармаларын үйрениуде конференция сабақ түринен пайдалануу. Түркий халықлар әдебиятының гейпара мәселелери, Нөкис-2004.Б. 30-32.
86. Юсупов Қ. Конфликт қахарманлар минез-қулқын ашыудың негизи. Журналистика ва адабиёт: кеча ва бугун. (Илимий тўплами), 1-қисм. Т. : Юрист – маркази, 2008. 44-47.
87. Юсупов Қ. И.Юсупов поэзиясын оқытуу усыллары. «НМПИ илим билимлендириу хәм тәрбия мәселелерин раўажландыруудағы орны», (Республикалық илимий-теориялық конференция материаллары), Нөкис, «Қарақалпақстан», 2010, 185-187.
88. Юсупов К.А. Әдебияттануу илиминин жан күйери еди... Илим хәм әдебияттын машақатлы жолларында. (илимий-әдебий хәм еске түсириулер), Нөкис, 2012, 70-73.
89. Юсупов К.А.. Кәсип өнер коллежлеринде Т.Қайыпбергеновтин «Көздин қарашығы» романын үйрениу усыллары. Илимий топлам (Магистрантлар ушын), Нөкис-2012.Б. 93-94.
90. Юсупов К.А. Әдилбай Қожықбаев-қарақалпақ әдебиятын изертлеуши. «Әдебиятшы - алым хәм устаз» ҚМУ, Нөкис, 2014, 125-133.
91. Юсупов К.А. Әжинияз шайырдың лирикасын оқытууда интерактив методлардың қолланылыуы. «Қарақалпақ әдебиятының жарық жұлдызлары». (Илимий мақалалар топламы). Нөкис, «Қарақалпақстан», 2015, 42-46.
92. Юсупов К.А. Т.Қайыпбергеновтың «Тәнхә өзиңе мәлим сыр» повестинде қахарман образын жасау усылы. «Қарақалпақ әдебиятының жарық жұлдызлары». (Илимий мақалалар топламы). Нөкис, «Қарақалпақстан», 2015, 42-46.
93. Юсупов К.А. Ғәрезсизлик дәуирде Бердақ дәретиушилигинин үйренилиуи. «Бердақ-классикалық әдебиятымыздың бийик шыңы» атамасындағы республикалық илимий-теориялық конференция материаллары топламы. ҚМУ, Нөкис, 2017.

94. Юсупов К.А. Ғәрезсизлик дәўирде Бердақ дәретиўшилигин үйрениў. «Классикалық әдебияты жәмийеттеги манаўий жаңаланыў мәселелери» атамасындағы халық аралық илимий-конференция материаллары топламы., Нөкис, «Илим», 2017, 49-51.
95. Юсупов К.А. Содержание и способы изучения внеклассных работ по каракалпакской литературе в академических лицеях. (Международная научно-практическая конференция «Фундаментальные научных исследования».) Астана, 2018.стр.116-122.
96. Юсупов К.А. Фантастикалық романды таллаў усыллары. / International scientific – online conference: Intellectual education techological solutions and innovative digital tools. Netherlands conference. January, 2023. - pp. 10-19.
97. Юсупов К.А. Изучение в современной каракалпакской прозы / “England” modern rpsychology and pedagogy: problems and solution. Vol. 11 No.1 (2023): London conference: January, 2023. - pp. 5-14.
98. Юсупов К.А. Изучение лирических произведений в школе // Международный научно-образовательном электронном журнале «Лучшие интеллектуальные исследования». – Москва: Том-1, часть 8. 10-27- 2023 г. – Стр. 44-52.
99. Yusupov K.A., Sagidullaeva K.S. Qaraqalpaq ádebiyatı boyınsha dógerek jumısların shólkemlestiriw usılları // O’zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. Volume 2, No.23 (2023) 2023-10-20. Page-1-13.
100. Юсупов К.А. Методов обучения лирика Ж.Аймурзаева в школе // Международный научный журнал «Научный импульс». – Москва: №14 (100), часть 1. Октября , 2023 г. – Стр. 218-230.
101. Yusupov K.A., Mambetkarimov D.O. SCIENTIFIC AND THEORETICAL ASPECTS OF TEACHING KARAKALPAK FOLKLORE WORKS IN THE SENIOR CLASSES. . “American journal of Public Diplomacy and International Studies. www.grnjournal.us (AJPDIS global research Network), Volume 01, Issue 08, 2023 ISSN (E): 2993-2157, Impact Factor=7.49. SJIF 2023=7.49. Page-20-25.
102. Yusupov K.A., Mambetkarimov D.O. Teaching methods of literary works in Karakalpak literature . “American juornnal of Science on Internation and Human Development . www.grnjournal.us (AJPDIS global research Network), Volume 01, Issue 08, 2023 ISSN (E): 2993-2750, Impact Factor=7.49. SJIF 2023=7.49. Page-55-60.
103. Yusupov K.A. Scientific and methodological problems of studying Karakalpak literature at schools through extracurricular activities. “Best journal of Internation in sciense, research and Development. (www.bjisrd.com), Volume 2, Issue: 10, 2023 ISSN:2835-3579, New York. Impact Factor=9.1. Page- 317-325.
104. Yusupov K.A. Joqarı klasslarda “Alpamis” dástanın oqıtıwda interaktiv texnologiyalar // Международный современный научно-практический журнал «Новости образование: Исследование в XXI веке». – Москва: №14 (100), часть 1. Октября, 2023 г. – Стр. 194-205.
105. Yusupov K.A. Joqarı klasslarda xalıq awızeki dástanların oqıtıwda interaktiv texnologiyalar // Международный современный научно-практический журнал «Новости образование: Исследование в XXI веке». – Москва: №14 (100), часть 1. Октября, 2023 г. – Стр. 206-217.

RAHBAR FAOLIYATINI TASHKILLASHTIRISHDA JAMOATCHILIK ISHTIROKINI KUCHAYTIRISH

Tursunmurodov Otabek Shuxrat o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tarix mamlakatlar va yo'nalishlar

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada rahbar faoliyatini tashkillashtirishda jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish haqida to'liq malumot berilgan hamda Maqolada boshqaruv va boshqaruv jarayoni tushunchalariga tarif hamda rahbarlik faoliyatini rivojlantirish uchun ilmiy amaliy taklif va tavsiyalar berilgan.

KALIT SO'ZLAR: Boshqaruv, rahbar, natija, personal, prinsip, identifikatsiya,

ANNOTATION: This article provides full information on strengthening public participation in the organization of leadership activities, and the article provides scientific and practical proposals and recommendations for the development of management and management process concepts.

KEY WORDS: Management, leader, result, personnel, principle, identification, social, activity, responsibility.

АННОТАЦИЯ: В статье представлена полная информация по усилению участия общественности в организации лидерской деятельности, а также в статье приводятся научно-практические предложения и рекомендации по разработке концепций менеджмента и процессов управления.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Управление, лидер, результат, персонал, принцип, идентификация, социальный, активность, ответственность.

Har bir inson vaqt, mehnat sarflayotgan ijtimoiy zaruriyati, vazifasi yohud topshiriqlari yig'indisi yanada samarali, foydali va manfaatli bo'lishi uchun harakat qiladi. O'z o'rnida bu harakatlar esa individual (yakka) va kollegial (jamoaviy) holatlarda amalga oshiriladi. Bunda harakatlar ko'zlangan maqsad, maqsadga erishish yo'lidagi amallar hamda amallarga prinsipial yondashuv bilan harakterlanadi. Ma'lumki, yakka tarzda ishlash nisbatan qulayroq, jamoaviy ishlashda esa har qanday qulaylik, yutuqlar va inqiroz ham jamoaning ijtimoiy muhiti, hamda jamoaga boshchilik qiladigan shaxsning boshqaruvchanlik qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Tom ma'noda to'g'ri yo'lga qo'yilgan boshqaruv ko'p jihatdan e'tiborli hisoblanadi. Shuningdek, savol paydo bo'lishi tabiiy. Boshqaruv o'zi nima?

Boshqaruv - boshqaruv subyekting boshqaruv obyektiga nisbatan maqsadga muvofiq va doimiy ta'sir etish jarayoni hisoblanadi. Umumiy ma'noda boshqaruv subyekti rahbar bo'lsa, boshqaruv obyektini xodim sifatida qaraladi. Bunda rahbar korxonaga yoki tashkilot manfaatini uchun qaror qabul qiluvchi va unga javobgar shaxs, xodim esa ijrochi vazifasini bajaradi. Korxonaga va tashkilotlarda iqtisodiy, ilmiy, ishlab

chiqarish hamda xizmat ko'rsatish kabi bir qator ko'plab sohalarda faoliyat olib borilar ekan, faoliyatning ham ko'zlangan va erishilgan natijalarning ham asosida rejalashtirilgan, muvofiqlashtirilgan, kommunikativ boshqaruv jarayoni yotadi.

Boshqaruv jarayoni - tashkilot resurslarini u tomonidan o'zining maqsadlariga erishish uchun shakllantirish va ulardan foydalanish bo'yicha uzluksiz o'zaro bog'liq harakatlarning majmuasi. Ta'kidlangan jarayonni ya'ni uzluksiz o'zaro bog'liq harakatlarning majmuini maqsadlarga erishish uchun har tomonlama to'g'ri yo'naltirish eng avallo rahbar zimmasiga yuklanadi. Shuning uchun rahbar shaxs doimo rivojlanish uchun harakatda bo'lishi va faoliyatining ijobiy izchilligini ta'minlay olishi zarur.

Boshqaruvning qaysi bo'g'inida bo'lishidan qat'iy nazar, rahbar o'z faoliyati natijalari va o'zi rahbarlik qilayotgan bo'linma faoliyatiga javobgardir. "Rahbar mas'uliyati" tushunchasi mansabdor shaxslarning boshqaruv faoliyatiga baho berishda, ularning o'ziga topshirilgan ishga munosabatini tavsiflashda keng qo'llaniladigandi. Boshqaruv mansabdor shaxs anglab yetgan va qabul qilgan barcha vazifalarni sifatli bajarish zaruriyatini ifodalaydi. Darhaqiqat, har bir rahbarda birinchi navbatda shaxsiy javobgarlik va mas'uliyat tushunchalari shakllangan bo'lishi kerak. Chunki unga berilgan mansab yoki unvonning o'zi avallo ishonch va ikki barobar mas'uliyatdir. Bildirilgan ishonchni oqlash uchun xizmat vazifasiga mas'uliyat bilan yondashish tashkilot yutug'ining yarmiga tengdir. Shunday ekan boshqaruv jarayoni va rahbarlar faoliyatida "Rahbar mas'uliyati" eng muhim tushunchalardan biridir.

Rahbar mas'uliyati - rahbar madaniyatining asosiy belgilaridan biri bo'lib, uning ma'lum sohaga javobgarligini aks ettiradi hamda alohida shaxs, xodim mas'uliyatidan farq qilib, ko'lami kengligi, salmog'i bilan ajralib turadi. Shu bois, rahbar mas'uliyati hamisha muhim sanalgan. Mas'uliyat, avvalo, har bir kishining vijdoni, iymoni, qolaversa, o'zгалar oldidagi, jamoa, jamiyat, Vatan, millat oldidagi burchini teran anglashdir. Umuman, mas'uliyat rahbarning zimmasidagi vazifasiga nisbatan javobgarlik tuyg'usidir. Mas'uliyatli rahbar, eng avvalo, o'ziga, so'ngra boshqalarga nisbatan talabchan bo'ladi. Rahbar faoliyatidagi barcha salbiy hodisalar esa ana shu mas'uliyat hissining yo'qligidan kelib chiqadi. Albatta, o'zi sidqi dildan ishlayotgan rahbar ish faoliyati va natijani sifat jihatdan yaxshilash uchun xodimlarini ham ortidan ergashtira oladi. Kezi kelganda xodimlaridan korxonaga yoki tashkilot maqsadi uchun samarali va foydali mehnat faoliyatini ham talab qila oladi. Bunday rahbarlarning bunaqa holatda talabi qanoatlantirilishi, xodimlarining o'zidan vakolat bo'yicha baland personal buyrug'ini bajarish emas balki, rahbar bo'lishiga qaramay jamoa va tashkilot uchun hamda xodimlar bilan teng harakat qilgan, o'zlari uchun namuna bo'ladigan, motivatsiya oladigan shaxs bilan birgaligidan vujudga keladi.

Har qanday rahbar keng va chuqur fikrlay olishi bilan birga, chaqqon va uddaburon, harakatchan va shijoatli bo'lishi ham kerak. Shuning uchun rahbarlik faoliyatini tafakkur va harakat birligi deb atadik. Fikrlash va harakat bir paytning o'zida

ro'y beradi, boshliq o'zi o'ylashi, o'zi mantiqiy xulosaga kelishi va ularni amalga oshirishga kirishishi kerak. Avvalo, rahbar o'zi boshchilik qilayotgan tizim, tuzulma haqida yetarlicha dunyoqarash, bilim, tajriba va ko'nikmaga ega bo'lishi shart. O'z navbatida intiluvchan hamda har tomonlama o'tkir zehni bo'lishi ham zarur. Chunonchi, har bir xodimning vazifasini tushunish, fursat talab qilganda ularga amaliy yordam ko'rstish juda muhim. Shundan kelib chiqadiki, rahbar ma'lum bir sohani emas balki qo'shimcha sifatida faoliyatiga hamisha chambarchas bo'g'liq bo'lgan, iqtisodiy, huquqiy bilimlarni egallagan bo'lishi, axborot texnologiyalaridan foydalana olishi va chet tilini bilishi kerak. Yuqorida keltirilganlarning barchasi boshqaruv rivoji hamda ko'zlangan natijaga erishishda rahbarlar uchun juda muhim omillardandir. Har qaysi rahbar qanchalik tajribali va bilimli bo'lmasin, faoliyati davomida qarorlar qabul qilishga, qaror ijrosiga e'tibor bilan yondashishi lozim. Bunda jamoatchilik, ya'ni tashkilot a'zolari, xodimlar fikri kerak bo'ladi. To'g'ri oxirgi qarorni rahbar qabul qiladi. Ammo ko'zlangan maqsad va natija tashkilotniki, jamoaniki bo'ladi. Yuqorida qayd etilgan berilishi kerak bo'lgan maslahatlar boshqaruv jarayonida boshqaruv maslahatlari deb ataladi.

Boshqaruv maslahatlarini berish - rivojlanish strategiyasini o'zgartirishga, qo'shimcha o'sish manbalarini topishda murakkab muammolarni yechish uchun rahbarlarga mutaxassis yordamidir. Bu bilan u o'z-o'zini tashkil etish va rivojlantirish mexanizmini yuritadi. Maslahatchi - ijtimoiy menejer, umumijtimoiy va umuminsoniy ne'matalar tashuvchisi, u jamiyat hayotining turli jabhalariga yaxshi moslashadi.

Tashkilotdagi holatni majmuaviy baholashdagi maslahatlarida u butun hayoti davomida to'plagan bilimlarini ishga soladi. Juda ham murakkab masalalarni yechish uchun u eng yuqori toifali ekspert va mutaxassislarni jalb qiladi. Boshqaruv maslahatlari turli sohalarda turlicha bo'lishi mumkin. Biroq undan ko'zlangan maqsad korxonada va tashkilotning rivojlanishida foydalanishdir. Maslahatlar doim rivojlanish va foyda uchun xizmat qilishi maslahatchilarga bog'liq. Boshqaruv maslahatchilarini rahbarlar turli ko'rinishda jalb qiladilar. Ular yollangan yoki tashkilot xodimlari ichidan tanlangan bo'lishlari mumkin. Xodimlar orsidan tanlangan maslahatchilar rasmiy va norasmiy o'rinbosarlar sifatida xizmat qilishadi. Maslahatlar ko'lami va sifati mavjud muammolarni bartaraf qilishda, rivojlanish ko'rsatgichlarini hamisha yuqori bo'lishida xizmat qilishi kerak.

Rahbarning professional rivojlanishida shunday obyektiv va subyektiv omillar mavjudki, ular shaxsning boshqaruv sohasida ulg'ayishiga to'sqinlik qilib, shu bilan birga uning professional jihatdan o'zini yana bir bor namoyon etishiga, kasb sohasi bilan o'zining mutanosibligini aniqlashtirishga asos bo'ladi. Har qanday professional inqiroz - shaxsning kasb bilan identifikatsiyalashuvi borasidagi ziddiyat bo'lib, bunda insonning kasb sohasida o'zini yangitdan ifodalash zaruriyati uning avvalgi identifikatsiyasini saqlab qolish niyati bilan ziddiyatga boradi. Tabiiyki, har qanday

harakat, faoliyat doim ham o'ylanganidek bir tekisda davom etmaydi. Ayniqsa, ishga, shaxsiy va jamoaviy professionalizm rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan holatlar rahbarlik faoliyatida juda ko'p uchraydi. Ularning sog'lig'iga jiddiy ta'sir ko'rsatish darajasida bo'lishi ancha ayanchli. Bunday holatlarga duch kelmaslik uchun boshqaruv jarayonini strategik yo'lga qo'yish juda muhimdir. Sababi kichik xato ham ulkan oqibatlariga olib kelishi mumkin. Aytib o'tilganidek asosiy javobgar rahbar bo'ladi. Shuning uchun bunday holatlarda ko'p jabr rahbarlar zimmasida qoladi. Bazi rahbarlar iloji boricha xato qilmaslikka harakat qilishadi, ammo yuqoridagi vaziyatlar vujudga kelsa muammoni bartaraf qilishga kirishadilar. Bazi rahbarlar esa barchasini o'z holiga tashlab qo'yishadi yoki xizmat vazifasidan bo'sh uchun ariza topshiradilar. Aslida to'siqlar ham rivojlanish uchun yana bir turtki bo'lsa ajab emas. Chunki ayrim rahbarlar muammo yechimini topib, o'zlari uchun yana bir bor tajriba maktabini o'tagan vaziyatlardan motivatsiya oladilar. Bu esa rahbarlik rivojining yana bir pog'onaga ko'tarilishiga zamin yaratadi.

Prezidentimiz rahbarlarga shunday fikrlar bilan yuzlanadi. "Ish yuzasidan talabchanlik qilish boshqa odamlarning shaxsiyatiga tegish butunlay boshqa narsa. Odamlar ish yuzasidan sizga bo'ysinishi mumkin, boshqa har qanday masalada siz bilan teppa-teng huquqqa ega ekanini aslo esdan chiqarmang. ...Barchamiz yaxshi bilamiz, xalqimiz oriyatli, nomusli xalq. Xalqimiz barcha narsaga chidashi mumkin, lekin takror-takror aytaman, adolatsizlik va nohaqlikka chiday olmaydi. Haqiqiy rahbar, haqiqiy yetakchi odamlarning bardoshini sinash uchun emas, balki ularga munosib shart-sharoit yaratib berish, og'irini yengil qilish uchun rahbar etib tayinlanadi. Barcha bog'indagi rahbarlar - u vazir yoki hokim bo'ladimi, idora yoki tashkilot boshlig'i bo'ladimi, o'zining odob-ahloqi va madaniyati bilan hammaga o'rnak va namuna bo'lishi zarur". Bu fikrlar rahbarlar yana bir bor o'ylab Identifikatsiya - (lot.identificare - aynanlashtirmoq, tenglashtirmoq). Kriminalistikada obyekt yoki shaxsning umumiy va xususiy belgilar majmuyiga qarab aynanligini aniqlash.

Gap shundaki, nisbiy tushuncha tor doiradagi qarashlar va kechagi kun sarqitlari bugungi kun vaziyatiga umuman to'g'ri kelmeyapti. Endilikda rahbarlar ortiqcha hashamat, noodatiy karyeralar uchun ishlashmayapti. Maoshlarini belgilangan vaqtda xonalarida o'tirib olishmayapti. Rahbarlar jamiyat va xalq ichiga kirib bormoqdalar. Boshqaruv sohasida ham jamiyatni, davlatni tanazzul uchratadigan ayanchli holat bo'lgan korrupsiyaning sekin-astalik bilan bo'lsada yo'qolishi, muammolar, takliflar joyida hal etilishi yoki ko'rib chiqilishi bu sohada ham o'sish kuztilishiga asos bo'lmoqda.

Albatta, har qaysi soha rivoji biz uchun muhim. Boshqaruv jarayonlarida rahbarlikning ham rivoji asosiy jihat bo'lishi kerak. Chunki barcha sohalar o'zaro bog'liq va bu bog'liqlik negizi boshqaruv sohasidir. Shunday ekan, yuqorida keltirilgan

jamiki fikrlar, takliflar, tavsiyalarni yanada chuqurroq o'rganish va amal qilish, boshqaruv sohasi hamda rahbarlik jarayonida o'z natijalarini berishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. E.Xojiev. Davlat va jamiyat boshqaruvining huquqiy asoslari. // Toshkent. - "Yangi kitob", 2017. 257 bet
2. A.Haydarov. Madaniyat va san'at sohasini boshqarish asoslari.O'quv qo'llanma // Toshkent. -"Kamalak" nashriyoti, 2019. 192 bet
3. A.Xolov. Boshqaruv qarorlari ijrosini ta'minlashda rahbar mas'uliyati. // - Toshkent: "Akademiya", 2014, - 124 bet
4. O'sha manba.19-bet.
5. N.Boymurodov. Rahbar psixologiyasi. - Toshkent, -"Yangi asr avlod" 2016,132 bet
6. N.Rahmatullayeva, A.Kamolov. Ijtimoiy menejment. // O'quv qo'llanma. -T.: "Iqtisod-Moliya", 2017. - 288 b
7. I.Mahmudov. Boshqaruv professionalizimi: psixologik tahlil. // - Toshkent: "Akademiya" nashriyoti, 2011. - 304 bet
8. O.Salimov, Q.Quronboyev, M.Bekmurodov, L.Tangriyev. Boshqaruv hikmati. // - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, "Ta'lim" nashriyoti, 2018, - 168 bet <http://oac.dsmi-qf.uz>

HODIMNING TASHQI QIYOFASI VA NUTQ ODOBI

Usmonqulov Jaloliddin

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tarix
(mamlakatlar va mintaqalar) yo'nalishi*

ANNOTATSIYA: Ushbu maqola jahon tilshunosligida til va nutqning o'rni, ahamiyati, ularning o'ziga xos funksiyalari haqida bo'lib, maqolada turli olimlarning til va nutq haqidagi qarashlari, fikrlari bilan tanishishingiz, til va nutqning bir-biriga xos bo'lgan mavhum-konkret tarzdagi korrelyat nisbiy mustaqil birliklarini ko'rib chiqishingiz mumkin.

KALIT SO'ZLAR: til, nutq, so'z, fonema, morfema, leksema, konstruksiya, umumiylik, xususiylik, belgi, ma'no.

Til va nutq, dialektikasi nazariy tilshunoslikning, shuningdek, amaliy tilshunoslikning hamda psixologiya, falsafa, mantiq kabi fanlarning ham muhim va murakkab muammolaridan biri bo'lib, ayni masala jaxon tilshunosligining doimiy markazida turgan va hozirda ham shunday.

XX asr tilshunosligining — sistem tilshunoslikning bosh, asosiy mezonini til va nutq munosabati, til va nutq hodisalarini, birliklarini farqlash bo'ldi. Ushbu muammo tarixiga nazar tashlasak, professor X.Ne'matovning ma'lumot berishicha, til va nutq hodisalarini o'zaro farqlash dastlab VII-IX asrlarda shakllangan arab tilshunosligining til o'rganish usullarida ko'rish mumkin. Professor A.Nurmonovning tadqiqotida esa temuriylar davri o'zbek tilshunosligining sardori bo'lgan Alisher Navoiy asarlarida til va nutq hodisalari farqdangani, alloma shu masalaga aloxida e'tibor bergani qayd etiladi.

Til va nutq muammosi umumiy nazariy tilshunoslikning asoschisi bo'lgan Vilgelm fon Gumboldtning tildagi energeo (xarakat, jarayon, kuch) va ergon (maxsulot), tilshunoslikdagi psixologizm oqimining asoschisi G.Shteyntalning tildagi "barkaror mohiyat" va "harakatdagi kuchlar", buyuk nazariyotchi va amaliyotchi tilshunos Boduen de Kurtenening "tildagi barkarorlik va o'zgaruvchanlik" haqidagi ta'limotlarida ham beriladi.

Ta'kidlash shart, til va nutq, dialektik munosabati o'zining dastlabki haqiqiy, mukammal ilmiy - nazariy yechimini tilshunoslik fanida keskin burilish yasagan buyuk tilshunos olim Ferdinand de Sossyur asarlarida topdi.

Demak, til va nutq, masalasi nafaqat sistem tilshunoslikning, umuman, jahon tilshunosligi fanining hamma davrlaridagi - ham diaxron, ham sinxron bos-qichlaridagi eng jiddiy nazariy muammosi bo'lgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi. Chunki, tilshunoslikning ushbu o'ta murakkab va o'ta dolzarb muammosisiz nafaqat

nazariy-umumiy tilshunoslikning, balki xususiy-amaliy tilshunoslikning ham qator eng muhim, asosiy masalalarini to'liq, mukammal va ob'yektiv hal qilib bo'lmaydi. Shunga ko'ra til va nutq, dialektikasi jahon tilshunosligi fanining doimiy muammolaridan biri sifatida qolaveradi. F. De Sossyur tomonidan xalqning aloqa qilish, fikr ifodalash vositasining til va nutq deb berilishi, bularning bir-biridan farqlanishi olimlar o'rtasida fikrlar qarama-qarshiligini tug'dirdi. Bir kator olimlar til va nutq o'zaro farqlanmaydi, aslida farqlanmaydigan bitta ob'yekt mavjuddir, til va nutq bir narsa, desa, boshqa bir qator olimlar til va nutqni farqlash albatta, kerak bular farqlanadi, degan fikrlarni bildirishgan Xullas, hozirda til va nutqni, til va nutq, hodisalarini, birliklarini farqlash umumtilshunoslikda, shuningdek, o'zbek tilshunosligida ham mustahkam o'rin egalladi.

Til va nutq, dialektikasida til o'ziga xos murakkab tuzilishga (strukturaga) ega bo'lgan bir butun sistema sifatida faoliyat ko'rsatadi. Demak, F.de Sossyur mutlaqo to'g'ri ta'kidlaganidek, til sistemadir. Til sistemasining bir-biri bilan uzviy bog'langan tovush tomoni, lug'at tarkibi, grammatik ko'rilishi mavjud bo'lib, ular birgalikda bir butunlikni, sistemani tashkil etadi. Tilning sistem xarakteri aslida qayd etilgan satrlar, qatlamlar (yaruslar) bilan belgilanadi, asoslanadi. Ayni vaqtda ushbu satrlarning har biri o'ziga xos sistema-ichki sistema bo'lib, til sistemasining tarkibiga kiradi. Demak, til sistemalar sistemasi-supersistema, makrosistema sifatida jamiyatga xizmat qiladi, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'ladi, ijtimoiy - amaliy vazifa bajaradi.

Tilning ijtimoiy mohiyati jamiyatda aloqa-aralashuv quroli bo'lishida ko'rinadi. Shunga ko'ra professor. S.Usmonov "Insonlar orasidagi munosabat uchun xizmat qiladigan narsa, albatta, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lishi lozim. Chunki bunday munosabat, aloqa kollektiv ichida-jamiyatda paydo bo'ladi", deydi.

Tilning material mohiyati haqida fikr yuritilganda, tilni belgilar sistemasi yoki semiotik sistema deb qarash hozirda tilshunos olimlar tomonidan qabul lingan. Masalan, professor V. M. Solnsev "Til tipik semiotik yoki belgilar sistemasidir..." desa, tilshunos B.V.Kosovski "til o'zining material mohiya-tiga ko'ra belgilar sistemasini yoki semiotik sistemani hosil qiladi", deb alohida qayd etadi. Xullas, til supersistema-sistemalar sistemasi sifatida jamiyat uchun tarixan mukammal yaratilgan barchaga birday xizmat qiladigan va barcha uchun umumiy bo'lgan, asosan fikr ifodalash, fikrni moddiy qilish uchun ishlatiladigan alohida so'zlar, gaplar nutq biriklaridan, ifoda vositalaridan, ularning o'zaro mantiqiy bog'lanishi uchun, nutqni ko'rish uchun xizmat qiladigan qonun-qoidalardan tashkil topadi.

Til o'zining jamiyatdagi kommunikativ (informativ, ekspressiv, emotiv, volyuntativ va boshqa) vazifasini qanday ko'rinishda, qanday qiyofada, qanday shaklda amalga oshiradi?

Ijtimoiy-psixik jarayon bo'lgan til o'zining jamiyatdagi kommunikativ, umuman har qanday vazifasini nutq shaklida, nutq ko'rinishida, nutq orqali amalga oshiradi.

Nutq til sistemasining so'zlashuv, fikr almashuv jarayonidagi yoki yozuvdagi-matndagi aniq ifodasidir, ko'rinishidir, holatidir. Shunga ko'ra, S.Usmonov "Til qachon ma'lum funksiyami bajarishi mumkin? Til nutq sifatida namoyon bo'lgandagina ma'lum funksiyani bajarishi mumkin", deydi.

Miyamizda (ongimizda) ob'yektiv olamning ta'siri tufayli hosil bo'lgan tushunchalar, tasavvurlar, turli xil fikrlar, demak, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan til (nutq) orqali voqelashadi. Yana ham aniqrog'i, har qanday fikrni ifodalash, boshqalar bilan aloqada bo'lish, faqat til materiali orqali amalga oshadigan real, jonli nutq jarayonida sodir bo'ladi til aloqa quroli, insonlar orasidagi munosabat vositasi deb baholanganida til materialiga asoslaigan nutq ko'zda tutiladi? Ichki - ideal jarayon, tashqi-material voqelikka o'tar ekan, aylanar ekan, bu utish-jarayon faqat nutq asosida, ya'ni doim til materialiga suyanadigan nutq, orqali amalga oshadi. Nutq uchun esa asos (baza) vazifasini til boyligi, til materiali o'taydi.

Til materialini S.Usmonov ikkiga bo'ladi:

1. Psixik material. Bu-so'z, morfema va fonemalarning xotiradagi obrazi (qiyofasi).

2. Moddiy material. Bu-nutq yaratish chog'ida belgili tovush qobig'iga ega bo'lgan, aniq talaffuz qilinayotgan so'zlar, morfemalar va tovushlar.

Demak, real jonli nutqning real til birliklaridan tashkil topishi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Masalan. Bizning davrimiz bozor itisodiyotiga o'tish davridir, gapi real nutq bo'lib, u tovush materiyasiga ega bo'lgan real til birliklaridan tashkil topadi. Ya'ni, ushbu gap: bizning davrimiz bozor Iqtisodiyotiga, o'tish davridir kabi aniq til birliklaridan-so'z (leksema) va affiksial morfemalardan tarkib topgan. Demak, ayni gapni qayd etilgan til birliklariga-so'z (leksema) va affiksial morfemalarga ajratish, aslida, uni real til birliklariga ajratish demakdir. "Ammo ajratishdan hosil bo'lgan har bir element o'sha nutq o'tib ketganidan keyin o'z material qobig'ini yo'qotib, ma'lum obrazlar sifatida doimiy ravishda xotirada saqlanadi. Xotiradagi bu elementlar endi moddiy hodisa bo'lmay, psixik hodisadir. Psixik hodisadan esa lozim bo'lganida nutq a'zolarining faoliyati tufayli yana moddiy hodisa hosil qilish mumkin".

Psixik hodisa bilan real nutq orasidagi oraliq hodisa xotiradagi real til elementlarining, til birliklarining nutq tuzish vaqtida talaffuz orqali ro'yobga chiqariladigan real ekvivalentlaridir. Demak, xotiradagi til elementlarining obrazlari nutq, faoliyati vaqtida real til elementlariga aylanadi. Zotan real elementlar aslida birlamchi bo'lib, ularning ongdagi (xotiradagi) obrazlari ikkilamchidir va ular real elementlar tufayli hosil bo'ladi.

Til "tashqi" jihatdan ham moddiy ham psixik hodisa. Uning moddiylik-tovush materiyasi bo'lsa, psixik hodisaligi xotirada saqlanish xususiyatidir. Tilning ijtimoiy vazifasi moddiylikda ko'rinadi. Tildagi moddiylik so'z, so'z birikmasi va morfemalarning tovush materiyasiga o'ralganligida namoyon bo'ladi. Xuddi shu

xususiyat tildan ijtimoiy maqsadda foydalanish imkoniyatini beradi. Ma'lum bo'ldiki, tildan fikr almashuv-kommunikatsiya maqsadida foydalanish jarayoni nutqdir. Hozirgi vaqtda nutqning til materiali orqali aloqa qilish jarayoni ekanligi tajriba yo'li bilan ham isbotlangan. Masalan, psixolog Z.A.Ne'matov "Eksperimental — fonetik va eksperimental — psixologik tadqiqotlar nutqning til orqali aloqa qilish jarayoni ekanligiga bizni ishontirmoqda. Hozirda ko'pchilik psixologlar, usulist va tilshunoslar ushbu fikrga kelishgan". Demak, til nutq orqali, nutq esa til materiali orqali amalga oshadi.

REFERENCES

1. Брендалъ В. Структуральная лингвисти^а. — В кн.: В.А.ЗВерна,еВ. История языкознания XIX и XX веков в очерах и извлечениях. Н.П. -- М., 1960.
2. Холодович А.А. Курс общей лингвистики ФД Сос^ара. — Ф.Де Соссюра. Труды по языкознанию. — М., 1977.
3. Normatov A.Struktur tilshunoslik:ildizlari va yo'nalishlari.Toshkent: Ta'lim,2009.-260b.
- 4.Rasulov R.Umumiy tilshunoslik. Toshkent:Fan va Texnologiya,2007.-256b.
- 5.Sayfullayeva R,Mengliyev B,Boqiyeva G, Qurbonova M, Yunusova Z, Abuzalova M.Hozirgi o'zbek adabiy tili.Toshkent: Fan va Texnologiya,2009.
6. Mirtojiyev M.O'zbek tili semasiologiyasi. . - T.: МИМТ02 80'2, 2010. - 288
7. Спирина Т.С. Фразеологические единицы английского, русского и немецкого языков, характеризующие власть, с компонентами -соматизмами Лингвистика и перевод. №3 (41), 2013. С. 133-139.
8. 1. Hojiyev A. O'zbek tili so'z yasalishi. - ^аs^аkent, 1989 - 111 b.; O'zbek Tili so'z yasalishi tuzilishi. - Toshkent: O'qituvchi, 2007. - 168 b.
9. Mirtojiyev M. O'zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi. -^аshkent: O'zMU, 2000.
10. Nurmanov A., Mahmudov N. O'zbek tili so'z yasalishiga bir nazar // O'zbek tili va adabiyoti. ^аshkent, 1987. -№3. - В.36-38.
11. Шанский Н.М. Лексикология современного русского языка. - М.: Просвещение, 1964.
12. Mamatov A. O'zbek tili frazeologiyasi (o'quv qo'llanma). Toshkent, «Navro'z» nashriyoti, 2019.
13. Mamatov A. O'zbek va ingliz tili onomastikasining lingvomadaniy xususiyatlari (uslubiy qo'llanma) Xorijiy til va adabiyoti (tillar bo'yicha). 2019 yil.

ARAB XALIFALIGI ABBOSIYLAR DAVRIDA

*Usmonqulov Jaloliddin Anvar**Olimova Saida**Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tarix
(mamlakatlar va mintaqalar) yo'nalishi*

Annotatsiya: Maqolada Islom tamadduning beshigi Arab xalifaligi Abbosiylar poytaxti, eng katta madaniyat va ma'rifat markazi, buyuk olim va fuzalolarni bergan Bog'dodning eng qora va dog'li kunlar, mo'g'ullarning hujumi, beshavqat qirg'inlar ho'nrezliklar, vayrongarchiliklari va Bog'dodni tanazzulga yuz tutishi sabablari xususda so'z boradi.

Kalit so'zlar: Bog'dod, Mustasim Billoh, Xulaku, Ibn Alqami.

Abbosiylar — arab xalifalari sulolasi (750–1258), Muhammad (sollallohu alayhi vasallam) ning amakilari Abbas avlodlari. Abu Muslim harakati natijasida hokimiyat tepasiga kelgan. Dastlabki poytaxti — Kufa shahri. „Saffoh“ („Xunrez“) laqabi bilan mashhur bo'lgan Abul-Abbos Abdulloh sulolaning birinchi xalifasi edi. Ikkinchi xalifa Saffohning ukasi Abu Ja'far Mansur (754–775) Bag'dod shahriga asos solib, poytaxtni shu yerga ko'chiradi. Abbosiylar hukmronligining dastlabki davrida savdo-sotiq rivojlanadi.

Bag'dod Sharqning yirik savdo markaziga aylanadi, ilm-fan ravnaq topib, falsafa, matematika, tibbiyot va boshqa fanlarga oid ko'plab asarlar yaratiladi. Andalusiya (Ispaniya)dan tashqari butun musulmon mamlakatlari — Mag'ribdan to Movarounnahr gacha abbosiylar qo'l ostiga o'tadi. Bular xalifalikning iqtisodiy negizini, siyosiy va harbiy qudratini mustahkamladi. Ayniqsa Horun ar-Rashid va uning o'g'li Ma'mun zamoni abbosiylar sulolasining gullagan davri edi. 9-asrning ikkinchi yarmidan boshlab abbosiylar xalifaligi zaiflasha boshladi. 10-asrning boshiga kelib faqat Bag'dod va uning atroflaridagina siyosiy hokimiyat abbosiylar qo'lida qoldi. Harbiy kuchlar turk sarkardalari qo'lga o'tib ketdi. Ular xohlagan vaqtlarida xalifalarni almashtira olar edilar. 10-asr o'rtalariga kelib abbosiylar siyosiy hokimiyatni tamoman qo'ldan boy berib, musulmonlarning diniy xalifasi (payg'ambar o'rinbosari)gina bo'lib qoldilar. Erondagi buyayhiylar (945) Bag'dodni o'z qo'lga oldi, lekin ular abbosiylarning mavqei bilan hisoblashar edi. Bag'dod saljuqiy-sunniylar tomonidan bosib olingandan keyin abbosiylar siyosiy hukmronligi qisman tiklandi va dinning mavqei mustahkamlandi. 1258-yil mo'g'ullar Bag'dodni vayron qilib, abbosiylarni tamoman tor-mor keltirdi.

Mo'g'ul xoni Huloku buyrug'i bilan abbosiy xalifalarning so'nggisi — Musta'sim qatl etildi. Abbosiylar sulolasining qolgan vakillari esa Misrga qochdi.

Mamluk sultonlari davrida (turklar 1517-yil Misrni olgunga qadar) Abbosiylar Qohirada muqaddas kishilar sifatida yashab keldilar. 1261-yil Mamluk sultoni Beybars abbosiylardan biri al-Mustansirni xalifa deb e'lon qildi. 1517-yil abbosiylarning avlodi Mutavakkil III Istanbulga keltirilib, u diniy rahnamolik huquqini turk sultonlariga topshirgan. Abbosiylardan 37 kishi xalifa bo'lgan.

Abbosiylar arab xalifalari sulolasi (750–1258), Muhammad (sallollohu alayhi vasallam) ning amakilari Abbas avlodlari. Abu Muslim qo'zg'oloni natijasida hokimiyat tepasiga kelgan. Dastlabki poytaxti — Kufa shahri „Saffoh“ („Xunrez“) laqabi bilan mashhur bo'lgan Abul Abbas Abdulloh sulolaning birinchi xalifasi edi. Ikkinchi xalifa Saffohning ukasi Abu Ja'far Mansur (754-775) Bag'dod shahriga asos solib, poytaxtni shu yerga ko'chirdi. Abbosiylar hukmronligining dastlabki davrida mulkchilik munosabatlari o'sib, savdo-sotiq rivojlandi. Bag'dod Sharqning yirik savdo markaziga aylandi, ilm-fan ravnaq topib, falsafa, matematika, tabiiyot va boshqa fanlarga oid ko'plab asarlar yaratildi. Andalusiya (Ispaniya) dan tashqari butun musulmon mamlakatlari — Mag'rib, Hindiston, Movarounnahr Abbosiylar qo'li ostiga o'tdi. Bular xalifalikning iqtisodiy negizini, siyosiy va harbiy qudratini mustahkamladi. Ayniqsa Horun ar-Rashid va uning o'g'li Ma'mun zamoni Abbosiylar sulolasining gullagan davri edi. 9-asrning ikkinchi yarmidan boshlab Abbosiylar xalifaligi zaiflasha boshladi, Afrikada ag'labiylar, Misrda tuluniylar, Xuroson va Movarounnahrda somoniylar Abbosiylar xalifaligidan ajrab chiqdilar. 10-asrning boshiga kelib faqat Bag'dod va uning atroflaridagina siyosiy hokimiyat Abbosiylar qo'lida qoldi. Harbiy kuchlar turk sarkardalari qo'lga o'tib ketdi. Ular xohlagan vaqtlarida xalifalarni almashtira olar edilar.

10-asr o'rtalariga kelib Abbosiylar siyosiy hokimiyatni tamoman qo'ldan boy berib, musulmonlarning diniy xalifasi (payg'ambar o'rinbosari)gina bo'lib qoldilar. Erondagi buyayhiylar (945 yil) Bag'dodni o'z qo'lga oldi, lekin ular Abbosiylarning mavqei bilan hisoblashar edi. Bag'dod saljuqiylar tomonidan bosib olingandan keyin Abbosiylar siyosiy hukmronligi qisman tiklandi va dinning mavqei mustahkamlandi. 1258-yil mo'g'ullar Bag'dodni vayron qilib, Abbosiylarni tamoman tor-mor keltirdi. Mo'g'ul xoni Huloku buyrug'i bilan Abbosiy xalifalarning so'nggisi -Mustasim qatl etildi. Abbosiylar sulolasining qolgan vakillari esa Misrga qochdi. Mamluk sultonlari davrida (turklar 1517-yili Misrni olgunga qadar) Abbosiylar Qohirada muqaddas kishilar sifatida yashab keldilar. 1261-yili mamluk sultoni Beybars Abbosiylardan biri al-Mustansirni xalifa deb e'lon qildi. 1517-yil Abbosiylarning avlodi Mutavakkil III Istanbulga keltirilib, u diniy rahnamolik huquqini turk sultonlariga topshirgan. Abbosiylardan 37 kishi xalifa bo'lgan.

Abbosiylar xalifaligi poytaxti Bog'dodni xalifa Mustasim Billoh boshqarar un " Al bidaya ana nihaya " kitobida maqtovgga arzigulik shaxs va adolatli podisho sifatida tilga olinadi, lekin uning bir gina hatosi bu xalifaligi boshqaruvni bo'sh qo'yib yuborgan

shuning uchun ham eng kerakli paytda eng havfli dushmanga qarshi ummatni birlashtira olmadi, bunga xalifaligi ichidagi xoyinlar ham sabab bo'ldi. Bu xoyinlarni ichda xalifa bosh vaziri Muadadadin ibn Alqami ham bor edi. Ibn Alqami shiyalardan bo'lgan buni hammadan sir tutar hatto xalifa ham bilmas edi. Ibn Alqami musulmon suniylarni nihoyatta yomon ko'rar va hokimiyatni egallash uchun Xulakuga barcha ma'lumotlarni yetkazar edi. Ko'p manbalarda Ibn Alqami Xulaku bilan oldindan til biriktirgan va Xulakuni yaqin sharqa yurishga ham u ko'ndirgan ekan. Xulaku Bag'dot himoyasda 100000 kishilik qo'shin borligini bilar va bu vaziyatda sotqin Ibn Alqamidan foydalanadi. Ibn Alqami mo'g'ullar hujumi hafi borligini shu sababdan davlat xazinasini shahar tashqarisiga xavfsiz joyga ko'mib qo'yish kerak ekanligini aytib xalifani ko'ndiradi, hech narsadan shubha qilmagan xalifa bu qaltis ishga rozi bo'ladi va Ibn Alqami 15000 qo'shini o'zi aytmaguncha shaharga kelmasliklarini aytib shahardan chiqarib yuboradi va bu ishni bir necha bor qiladi, buning oqibatida shahar mudofasidagi 100000 askardan 10000 askar qiladi holos. Ibn Alqami bu rejasini amalga oshirgach Xulakuga habar beradi. Bu habardan so'ng Xulaku Bag'dotga hujum qildi. 1256- yili Xulaku Bag'dotni qamal qilishni boshlaydi. Xalifa Mustasim Billoh bundan dahshatga tushadi va zudlik bilan kengash chaqiradi. Kengashda bu yovni qanday qilib to'xtatish masalasi qo'yiladi.

Abbosiyalar (arabcha: العباسيون, Abbāsīyūn) — Arab xalifalarining sulolasi. 1. Abul Abbas Saffoh, Abdulloh ibn Muhammad ibn Ali ibn Abdulloh ibn Abbas ibn Abdulmuttalib (722-750-754). 2. Abu Ja'far al-Mansur (714-754-775) 3. Al-Mahdiy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Abu Ja'far al-Mansur (744-775-785). 4. Al-Hodiy, Abu Muhammad Muso ibn al-Mahdiy (766-785-786). 5. Horun al-Rashid ibn al-Mahdiy (765-786-809).

Abul-Abbos Abdulloh davrida zodagonlardan bo'lgan va o'z vatanini tashlab Makkaga ziyoratga borayotgan kambag'al kishilarga alohida g'amxo'rlik qilishgan. Bunday shaxslar "g'urbo" yoki "ibn sabil" nomida yuritilgan. Mahalliy xalqdan bo'lgan qadimiy aholi qatlami da'iflar ham asli zodagonlardan sanalib, bu paytda kambag'allashib qolgan edi. Bundan tashqari ular «ahl-i buyutot» nomida ham aytilgan. Xalifaning buyruq va farmonlarini bajaruvchilar, unga tobe hukmdorlar sohib haros degan nomda aytilgan.

Abdulloh otasi maslahati bilan raiyatga nisbatan ancha mo'tadil siyosat yuritgan, chunki bu ularning bosh ko'tarishi va isyoniga to'siq bo'lardi. Huquq, tohiriylarning islomlashtirish siyosatida mustahkam turganliklari manbalarda qayd qilingan. Ular islom peshvolariga tayangan holda davlatda huquqiy munosabatlarni rivojlantirganlar.

O'z mamlakatida tartib saqlanishini istagan Abdulloh har qanday isyon yoxud qo'zg'olonning oldini olishning eng muhim usuli soliq yiquvchilarning suiste'mollariga yo'l qo'ymaslikdadir, deb tushuntirdi. Xiroj va boshqa soliqlarning miqdorini kamaytirmagan bo'lsa-da, soliq yig'ishda turli jinoiy ishga qo'l urganlarni jazoladi.

Amal va mansab egalarining suiste'molliklarini oldini olish va davlat xazinasiga ziyon etkazmaslik maqsadida u oz qo'l ostidagi sodiq kishilar orasidan maxfiy ayg'oqchilarni tanlab, ularni xizmatidan foydalandi. Bunday maxfiy shaxslar joylarda hukmdorlarning yurish-turishi, har bir mansabdorning Abdulloh oldidagi majburiyatini qay darajada bajarishi xususida noibga etkazib turishgan. Hoh u shaxs viloyat hokimi bo'lsin yoki yirik dehqon bo'lsin, Abdullohning nazorati ostida edi.

Manbalarda yer-mulk munosabatlarida suv va sug'orish inshootlaridan foydalanish xususidagi qonunlar ishlab chiqilganligi va mazkur huquqiy qoidalarning shariatga asoslanishi haqida yozilgan. Qozi mayda mulk egasi yerida uy qurgan yirik zamindor o'rtasidagi nizo-janjalni yoki suv inshootlaridan foydalanishdagi munozarali masalalarni shariat qoidalari asosida hal qilgan.

Abdullohning buyrug'iga asosan qonunshunoslar suvdan foydalanish, suniy sug'orishdagi turli munozaralarni echish, sug'orish tizimi xususida «Kitob al kuniy» nomli qonunlar toplamini tuzdilar.

REFERENCES

1. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi.-T.:Sharq, 2000.
2. Buniyatov Z.M. Gosudarstvo Xorezmshaxov Anushteginidov.-M.: Nauka, 1986.
3. Vamberi Herman. Buxoro yohud Movarounnahr tarixi.-T.:Adabiyot va san'at, 1990.
4. Jaloliddin Mirzo. Termiz Saljuqiylar davrida. O'zbekiston tarixi.-2001.-№1.-B 20-25
5. Karayev O. Gosudarstvo Karaxanidov.-Frunze: 1983.
6. Nabiyeu A. Mustaqillik uchun kurash yohud parchalangan Turkiston tarixi.-T.,1998.
7. Narshahiy. Buxoro tarixi. «Meros».-T.: Kamalak, 1991.
8. Shoniyozov K.SH. Qang' davlati va qang'lilar.-T.: Fan,1990.
9. O'zbekiston tarixi. 1-qism.-T.: O'qituvchi, 1994.
10. Ochilov Alisher. "The Role of Zamanbaba Culture in The Social and Economic History of Bukhara Oasis During Bronze Age." CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY 2.4 (2021): 42-47.
11. OCHILOV, Alisher. "JEWELRYC TRADITION IS A SOURCE OF STUDY OF BUKHARA HISTORY." Bayterek Uluslararası Akademik Araştırmalar Dergisi 1.1: 105-116.

SAMIMIY ORZULAR KUYCHISI

*Yo'ldosheva Farangiz Sayfiddin qizi**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI**Yurisprudensiya (xalqaro transport huquqi) 2-bosqich talabasi**yoldoshevafarangiz311@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada samimiyatli ko'nglida neniki o'ylasa, o'shani so'zlash, fikrlaganini gapirishni hayotining asl ma'nosiga aylantirgan buyuk shoir Madsud Shayxzoda haqida so'z yuritimiz. Zero, kasbda ham, hayotda ham o'rtamiyonlar samimiy bo'la olishmaydi. Ular o'zini oqlash uchun yasama samimiyatni kasb qilib olishadi. Qo'lidan ish kelmaydigan, irodasiz kishilar ham shunday. Samimiy odam yaxshiligini nafaqat minnat, hatto ko'z-ko'z ham qilmaydi. Birovning ahvoliga ichida achinadi va yordam berish yo'lini qidiradi.

Kalit so'zlar: samimiyat, ko'ngil, oqko'ngillik, kuy, mehr, orzu, maqsad, muhabbat, iroda, istak.

Абстрактный. В этой статье мы поговорим о великом поэте Мадсуде Шейхзаде, который сделал истинным смыслом своей жизни сказать то, что он думает в своем искреннем сердце, сказать то, что он думает. Ведь посредники не могут быть искренними ни в профессии, ни в жизни. Они приобретают ложную искренность, чтобы оправдать себя. То же самое и с людьми, которые не способны что-то делать и не имеют воли. Искренний человек не просто хвастается своими добрыми делами. Он сожалеет о чьей-то ситуации и ищет способ помочь.

Ключевые слова: искренность, сердце, доброта, мелодия, любовь, мечта, цель, любовь, воля, желание.

Abstract. In this article, we will talk about the great poet Madsud Sheikhzadeh, who made it the true meaning of his life to say what he thinks in his sincere heart, to say what he thinks. After all, middlemen cannot be sincere either in their profession or in life. They acquire false sincerity to justify themselves. The same is the case with people who are unable to do things and have no will. A sincere person doesn't just show off his good deeds. He feels sorry for someone's situation and looks for a way to help.

Key words: sincerity, heart, kindness, melody, love, dream, goal, love, will, desire.

Ko'ngil samimiyligi-ko'ngilda neniki o'ylasa, o'shani so'zlash, fikrlaganini gapirishdir. Shunday go'zal fazilatni o'zining hayotiga singdira olgan buyuk shoir Maqsud Shayxzodani balki shuning uchundir bugungi kungacha o'zgacha ta'riflar

bilan yodga olamiz. Zero, kasbda ham, hayotda ham o'rtamiyonlar samimiy bo'la olishmaydi. Ular o'zini oqlash uchun yasama samimiyatni kasb qilib olishadi. Samimiyat, nazarimda, tug'ma fazilat. Ya'ni, har kimning o'z-o'zidek yashashidir. Samimiyat - inson qalbining ko'rinishi. Uni o'zgartirib bo'lmaydi. U samimiyat turfa insonlarda turfa xil bo'ladi. Samimiyat yoki nosamimiyatlik tezda ko'zga tashlanadi. Ko'ngil har bir so'z va harakatning samimiyligini yoki yolg'onligini tez sezadi. Bu borada "hech kim bilmadi", "bopladim" degan fikrlardan qochish kerak. U insonni tobora g'arazlik botqog'iga botiradi. Qalbingizni nafs va badbaxtlik egallab olishi bu hazrati insoniylikning eng ayanchli holatidir. Samimiyluk to'g'rilik, poklik, oqko'ngillik, bag'rikenglik, bilimlilik, yaxshilik singari insoniy fazilatlar asosida shakllanadi va rivojlanadi. Samimiyluk insonlarning o'zaro munosabati va muloqotida, to'g'ri so'zi va shuning amaldagi isbotida namoyon bo'ladi. Samimiy muomalaning teskarisi takalluf – sun'iy muomaladir. Bu hazrat Navoiyning quyidagi misralarida ifodasini topgan: “Takalluf erur anga farsudalik, Aning tarkidur jonga osudalik”. (Ma'nosi: Takalluf – sun'iy muomala tanga notinchlik, charchoq keltiradi. Uni tark etish esa osudalik, osoyishtalik bag'ishlaydi). Shu o'rinda ulug' shoirimizning “Uch istak” she'rini yodga olishni xohladik:

Istaksiz qalb sahrong toshi,
Umid-qalbning sodiq yo'ldoshi.
Umlarga sarlavha istak,
Sahardagi yo'lchi yulduzdak.

ya'ni shoir bunda istaksiz, orzularsiz qalbni sahrdagi bir toshga qiyos qilajak. Umid esa qalbni tug'yon urdiradigan, kelajak hayotga intilish, go'zal xayollar surish imkonini beradi. Umid qalb-yuragidir. Umrimizni yashab o'tar ekanmiz vaqti kelib keksalik davriga yetib kelamiz. Shunday vaqtlar kelganida umrimizga sarlavha qo'yish kk bo'lar on bor. O'shanda hech birimizning yuzimiz yerga qaramasligi hazrati insonning eng oliy maqsadidir. Saharda osmonda sizga yo'l ko'rsatuvchi yo'lchi yulduzni do'stingiz kabi tasvirlagan.

Ilk orzu: tez kel, azizim,
Yorug'lansin sog'inchli ko'zim.
Tilagimning ikkinchisi shu,
Mahv etilgan dushman jinsi shum.

Ilk tilagini yor vasliga bo'lgan talpinish deb bilgan oshiq tilidan yozilgan ushbu misralar kishini lrzaga keltiradi. Sen kelsang, sog'inchli ko'zlarimga yorug'lik yugursin deya go'zal ta'riflagan. Ikkinchi tilak esa qalbimni kemirayotgan azoblovchi g'am-g'ussadan qalb ozod bo'lishi bu eng muhimidir.

Uchinchi...uchinchi tilak,
Uchrash chog'i, bu tinmas yurak.
Unutmasin istash masdarin,

Tugatmasin xayol daftarin.

Barcha orzularini yor visoli yo'liga bag'ishlagan oshiq yigit tilidan yozilgan ushbu misralarda tinmas, tinchimas bu yurak visol onini intizor kutayotganligi ta'riflangan. Asloki butun umr uni istaganini zinhor unutmash deya nola qiladi.

Tafakkur olamidan hosil bo'lgan xayollar daftari aslo tugamash. Zero, u haqiqatga aylanganida ham bir paytlar bu kunlarni so'rab duolar qilinganini umr daftariga bitaylik deyiladi ushbu jumlada.

Tug'sin yangi-yangi istaklar,
Qofiyamni ular yetaklar.
Istaksiz qalb sahrining toshi,
Umid-qalbning sodiq yo'ldoshi.
Umlarga sarlavha istak,
G'azallarga jon bergan qizdek.

Yuraklar har on yangi-yangi orzular tug'sinki, shoir ularni go'zal baytlar ila muhrlayversin. Va so'ngida birinchi aytilgan misralar takrorlanadi. Hayotda yashar ekansiz doim nimagadir intilasiz, doimo kimdir kabi bo'lishni xohlaysiz, doim nimani istasangiz, neniki niyat qilsangiz vaqti kelib umrimni doim shu narsaga sarf etdim deya ayta olasiz. U sizning umr sarlavhangiz bo'ladi. Muhimi shundaki umr sarlavhalarimiz biz uchun eng xayrli bo'lgan baytlardan iborat bo'lsin!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:(REFERENCES)

1. Maqsud Shayxzoda. She'rlar to'plami.
2. O'zbekiston Respublikasi IIV Qashqadaryo akademik litseyi o'qituvchisi Eralova Marxabo maqolasi.
3. Ziyo.uz.comkutubxonasi.
4. Maqsud Shayxzoda.She'rlar.
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Ijod>
6. Fayllar.org
7. <https://uzhurriyat.uz>
8. <https://www.oyina.uz/>

FIZIKA TARIXINING O'ZIGA XOS BOSQICHLARI RIVOJI

Meliqulov Azimjon Aymatovich
Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumani
64 – maktab fizika fani o'qituvchisi

Aannotatsiya: ushbu maqolada fizika fanining dunyo va mamlakatimiz tarixidagi rivoji, ahamiyati, bugungi kunda fizika fanining ta'limdagi o'рни xususidagi fikrlar berilgan.

Kalit so'zlar: fizika, davrlar, rivojlanish, bosqichlar, sifat, miqdor.

Аннотация: В данной статье даны размышления о развитии, значении физической науки в мировой и отечественной истории, о роли физической науки в образовании сегодня.

Ключевые слова: физика, периоды, развитие, этапы, качество, количество.

Aannotation: this article presents ideas about the development, importance of physical science in the history of the world and our country, the place of physical science in education today.

Keywords: physics, periods, development, stages, quality, quantity.

KIRISH

O'tmish davrlaridan boshlab mamlakatimiz hududida aniq va tabiiy fanlar rivojlanib borgan. Xorazmiy, Farg'oniy, Beruniy, Ibn Sino, Nasriddin Tusiy kabi allomalarimiz jahon ilm-fani rivojiga beqiyos hissa qo'shdi. Ular asos solgan ilmiy an'analar XX asrning 40-yillaridan boshlab O'zbekistonda fizika fanini rivojlantirish jarayonida nufuzli ilmiy maktablar tashkil etish bilan davom ettirildi. Mamlakatimiz fizik olimlari qattiq jismlar fizikasi, atom yadrosi fizikasi, yarim o'tkazgichlar fizikasi, lazer fizikasi va issiqlik fizikasi sohalarida juda katta ilmiy natijalarga, muvaffaqiyatlarga erishmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida ishlab chiqilgan chora-tadbirlar dasturi ayni paytda yurtimizdagi ta'lim muassalarida fizika fanini o'qitish sifatini oshirish, ta'lim jarayoniga zamonaviy o'qitish uslublarini olib kirish, kuchli mutaxassislarni tayyorlash hamda sohadagi mavjud muammolarning yechimini topishga qaratilgan. Fizika fani bo'yicha zamonaviy darsliklar yaratish yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi, fizika fani bo'yicha o'quv va ilmiy laboratoriyalarning zamonaviy jihozlar bilan ta'minlanmaganligi kadrlar tayyorlash sifatiga va tadqiqotlar samaradorligiga salbiy ta'sir etib kelayotgani hamda masalalar to'plami, laboratoriya ishlarini bajarish bo'yicha qo'llanmalar va multimedia

dasturlarini ishlab chiqish lozimligi Qarorda ta'kidlangan. Ayni paytda sohadagi bu kabi muammolarning yechim topishi uchun ishlab chiqilgan chora-tadbirlar maqsadga muvofiq, deyish mumkin. Shu asosda, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi zimmasiga umumta'lim maktablar foydalanishi uchun ilg'or pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish, fizika fani bo'yicha zamonaviy multemediya mahsulotlarini yaratish hamda tayanch maktablar va fizika fani chuqurlashtirib o'tiladigan sinflar tashkil etiladigan maktablar uchun metodik ko'mak ko'rsatish kabi vazifalar yuklatildi.

ASOSIY QISM

Fizika tarixi bobilliklar, hindular, misrliklar va zardushtiyalar tatbiq etgan nozik matematik va astronomiya elementlarini o'z ichiga olgan holda, asosan xudolarning g'ayritabiiy sohasiga singib ketgan.

Qadimgi yunonlarning uslubiy va nazariy yondashuvigagina fizika zamonaviy shaklda paydo bo'lib, u xurofotga emas, balki matematikaga va birinchi tamoyillarga asoslangan edi. Qadimgi fizika tarixini tanlash qiyin bo'lishi mumkin, chunki uni astronomiya, matematika va alkimyo kabi boshqa sohalardan ajratish o'ta qiyin. Ilm-fan hali taniqli fanlarga bo'linishi yoki hatto o'zini ilohiyot va falsafadan butunlay ajratib turishi kerak edi, shuning uchun ushbu shakllanish bosqichida fizika tarixida bir-birining ustiga chiqib ketish bor edi.

Yunoniston sivilizatsiyasi, tarixiy me'yorlar bo'yicha, Afina, Sparta va Fiva kabi shahar-davlatlar o'rtasidagi nizolarga qaramay, juda barqaror edi. Ushbu barqarorlik va boylik san'at va falsafaning rivojlanishiga imkon berdi, Gomerik shoirlar va iste'dodli dramaturglar intellektual sohani dunyodagi eng buyuk faylasuflar bilan baham ko'rishdi. Nazariy matematikadan qadimgi fizikada aniq astronomiya va murakkab falsafa paydo bo'ldi, bu dunyoni tushuntirishga va olamni boshqaradigan qonunlarni kashf qilishga urinish. Qadimgi yunonlar koinot uyg'un, mukammal va Pifagor va Evklid kabi matematiklar tomonidan o'rnatilgandek nafis qonunlar va tenglamalar bilan boshqariladi, deb hisoblashgan.

Tales birinchi fizik edi va uning nazariyalari haqiqatan ham intizomga o'z nomini berdi. Uning fikricha, dunyo, garchi ko'plab materiallardan tashkil topgan bo'lsa-da, aslida bitta elementdan, ya'ni suvdan qurilgan fizik qadimgi yunon tilida. Qattiq, suyuq va gaz fazalari o'rtasidagi suvning o'zaro ta'siri materiallarga turli xil xususiyatlarni berdi. Bu tabiat hodisalarini ilohiy ta'minot doirasidan olib chiqib, tabiiy qonunlar va tushuntirishlar sohasiga olib borishning birinchi izohi edi.

O'zining proto-evolyutsion nazariyasi bilan eng mashxur bo'lgan Anaksimandr Falesning g'oyalariga qarshi chiqdi va suv o'rniga bir moddani taklif qildi apeyron u barcha materiyaning tarkibiy elementi edi. Zamonaviy qarash yordamida bu Anaksimandrning yana bir aqlli bashoratchisi va vodorod bizning koinotimizdagi barcha materiyaning qurilish materiali ekanligi g'oyasiga juda o'xshash edi, deb

aytishimiz mumkin. Geraklit (miloddan avvalgi 500 yillarda) koinotni boshqaradigan yagona asosiy qonun o'zgarishlarning asosiy printsipi va hech narsa abadiy bir xil holatda qolmaydi, degan fikrni ilgari surdi. Ushbu kuzatish uni qadimgi fizikaning birinchilardan bo'lib koinotdagi vaqtning rolini hal qilishga, zamonaviy fizika tarixida ham eng muhim tushunchalardan biriga aylantirdi. Birinchi taniqli qadimgi fiziklardan biri Leykipp (miloddan avvalgi V asr), u koinotga to'g'ridan-to'g'ri ilohiy aralashish g'oyasiga qat'iy qarshi bo'lgan. Ushbu faylasuf, aksincha, tabiiy hodisalarning tabiiy sababi borligini ta'kidlagan. Leykipp va uning shogirdi Demokrit materiyani abadiy bo'linib bo'lmasligini va oxir-oqibat siz kesilmaydigan alohida bo'laklarni o'ylab topishingizni ta'kidlab, birinchi atom nazariyasini ishlab chiqdilar. Ularga atomlar deyiladi ohang (kesilmagan). Biroq, fizika tarixidagi ushbu muhim voqea qariyb ikki ming yillikka qadar unutilgan bo'lar edi. Ushbu nazariya, shuningdek, atomistlarni ushbu atomlarni ilohiy ta'minot bilan emas, balki qat'iy qonunlar bilan boshqarishni taklif qilishlariga olib keldi. Ixtiyoriy irodani va hattoki qalbni qadimiy fizikadan olib tashlash, bu faylasuflarni Aflotun nafratlantirgan qarash edi.

Hozirgi zamon fizikasi. XIX asr oxirida aniqlangan qator yangiliklar (elektronning ochilishi, elektron massasining tezlik o'zgarishi bilan o'zgarishi, harakatlanuvchi tizimlarda elektromagnit hodisalarining ro'y berishidagi qonuniyatlar va boshqalar) Nyutonning fazo va vaqt mutlaqligi to'g'risidagi tasavvurlarini tanqidiy tekshirib chiqish kerakligini ko'rsatdi. J. Puankare, X.A. Lorens kabi olimlar bu sohada tadqiqotlar olib borishdi. 1900-yilda M. Plank nur chiqarayotgan tizim — ossillyatorning nurlanish energiyasi uzluksiz qiymatlarga ega degan klassik fikrni rad etib, bu energiya faqat uzlukli qiymatlar (kvantlar)dangina iborat degan butunlay yangi farazni ilgari surdi. Shunga asoslanib nazariya bilan tajriba natijalarini taqqoslanganda ularning mos kelishini aniqladi. Plank gipotezasini A. Eynshteyn rivojlantirib, yorug'lik nurlanganda ham, tarqalganda ham kvantlar — maxsus zarralardan tashkil topadi degan fikrga keldi. Bu zarralar fotonlar deb ataldi. Foton iborasini 1905-yilda A. Eynshteyn fotoeffekt nazariyasini talqin etishda qo'llagan, bu ibora fizika fanida 1929-yildagina paydo bo'ldi. Shunday qilib, fotonlar nazariyasiga muvofiq yorug'lik to'lqin (interferensiya, difraksiya) va zarra (korpuskulyar) xususiyatga ega. 1905-yilda A. Eynshteyn Plank gipotezasini rivojlantirib, maxsus nisbiylik nazariyasini yaratdi. 1911-yilda E. Rezerfordning alfa zarralarning jismlarda sochilishini tekshirish tajribasi atomlar yadrosining mavjudligini isbotladi va u atomlarning planetar modelini yaratdi. 1913-yilda N. Bor nurlanishning kvant xarakteri asosida atomlardagi elektronlar ma'lum barqaror holatlargagina ega bo'lib, bu holatlarda energiya nurlanishi sodir bo'lmaydi, degan postulatni yaratdi. Nurlanish elektronlarning bir barqaror holatdan ikkinchi barqaror holatga "sakrab o'tishi"da, ya'ni diskret ravishda ro'y beradi. Bu postulat o'sha yili J. Frank va G. Gers o'tkazgan tajribalarda tasdiqlandi. Bor postulati atomning planetar modeli kvant xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. A. Eynshteyn

butun olam tortishishi (gravitatsiya) masalasi bilan shug'ullanib, 1916-yilda fazo, vaqt va tortishishning yangi nazariyasi — Umumiy nisbiylik nazariyasi (UNN) ni yaratdi. Ilgaridan ma'lum va kuzatilgan, ammo to'g'ri hamda mukammal ilmiy tushuntirilmasdan kelayotgan qator hodisa va faktlar nisbiylik nazariyasi tufayli har tomonlama oydinlashdi. Bu nazariya o'ziga qadar fanga ma'lum bo'lmagan ko'plab yangi hodisalar qonunlarning borligini oldindan aytib berdi, eng yangi fan uchun g'oyat zarur bo'lgan natija va xulosalarga erishildi (massaning tezlik o'zgarishi bilan o'zgarishi, massa bilan energiyaning o'zaro bog'lanishi, yorug'lik nurlarining kosmosdagi jismlarning yaqin atrofidan chetlanib og'ishi va boshqalar). M. Laue kristallarda atomlarning tartibli joylashishini rentgen nurlari difraksiyasi yordamida birinchi bo'lib tushuntirib berdi. Rus fizigi G.V. Vulf va ingliz fizigi U.L. Bregg kristallarda atomlarning joylashishini, ular oralig'idagi masofalarni aniqlab, rentgen strukturalari taxliliga asos soldilar. P. Debai, M. Bornlar kristall panjaralari garmonik tebranib turadigan ossilyatorlar yig'indisidan iborat, deb tushuntirdilar. XX asrning 20-yillariga kelib, kvant mexanikaga to'la asos solindi, mikrozarralar harakatining norelyativistik nazariyasi to'la isbotlandi. Buning asosini Plank - Eynshteyn - Borlarning kvantlashuv va L. Broylning materiyaning korpuskulyar-to'lqin xususiyati to'g'risidagi (1924) g'oyalari tashkil etdi. 1927-yilda tajribalarda kuzatilgan elektron difraksiyasi bu fikrni tasdiqladi. 1926-yilda avstriyalik fizik E. Shryodinger atomlarning uzlukli energiyaga ega ekanligini ifodalovchi kvant mexanikaning asosiy tenglamasini yaratdi. Kvant mexanika bilan bir qatorda kvant statistika ham rivojlanib bordi. U ko'p mikrozarralardan tashkil topgan tizimlarning xossalarini kvant mexanika qonunlari yordamida o'rganadi. 1924-yilda hindistonlik fizik Sh. Boze kvant statistikasi qonuniyatlarini fotonlarga (spinlari 1 ga teng) tatbiq etib, muvozanatli nurlanish spektrida energiyaning taqsimlanishi uchun Plank formulasini, Eynshteyn esa ideal gaz uchun energiyaning taqsimlanish formulasini keltirib chiqardi. 1925-yilda amerikalik fiziklar J. Ulenbek va S. Gausmit elektronning xususiy harakat miqdori momentini aniqladilar. Shu yili V. Pauli bir xil kvant holatda faqat bittagina elektron bo'la olishini ko'rsatdi (Pauli prinsipi), shu asosda Mendeleyev davriy sistemasiga nazariy asos berildi. 1926-yilda E. Fermi va P. Dirak Pauli prinsipiga bo'ysunadigan, spinlari 1/2 ga teng bo'lgan, bir xildagi zarralar tizimi uchun Fermi-Dirak statistikasini kashf qildilar. 1928-yilda Ya. Frenkel va V. Geyzenberg ferromagnetizm asosida kvantli almashinishdagi o'zaro ta'sirlar hal qiluvchi ekanligini ko'rsatdilar. 1932-1933-yillarda fransuz fizigi L. Neyel va Ya. Landaular antiferromagnetizm mavjud ekanligini oldindan bashorat qildilar. X. Kamerling Onnes tomonidan simob, qalay va ba'zi elementlarning o'ta o'tkazuvchanligining hamda Kapitsa tomonidan geliy II ning, o'ta oquvchanligi ochilishi kvant statistikasida yangi yo'nalishlarning vujudga kelishiga olib keldi. 1950-yilga kelib L. Landau va V. Ginzburg o'ta o'tkazuvchanlikning batafsil nazariyasini ishlab chiqdilar. 1916-yilda Albert

Eynshteyn yaratgan majburiy nurlanishning kvant nazariyasi asosida 50-yillarga kelib yangi kvant elektronikasi rivoj topdi. N. Basov va A. Proxorov (ulardan mustaqil tarzda amerikalik olim U. Tauns) yaratgan mazerda elektromagnit to'liqlarni hosil qilish va kuchaytirishni amalga oshirdilar. Bu 60-yillarda yorug'likning kvant generatori - lazerning yaratilishiga olib keldi. XX asrning 2-choragida atom yadrolari tizimi sirlarini va mavjud bo'layotgan jarayonlarni o'rganish bilan elementar zarralar fizikasining yaratilishi fizikada inqilobiy o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi. A.E. Bekkerel P. Kyuri va M. Sklodovskaya Kyuri bilan hamkorlikda radioaktiv nurlanishni, keyinchalik E. Rezerford bu nurlanishning o'z-o'zidan parchalanishi nurlanish bilan birgalikda hosil bo'lishini ochdilar. 1932-yilda J.Chedvik neytron zarrani ochdi. Rus olimi D.D. Ivanenko va V. Geyzenberglar atom yadrosining proton va neytrondan iborat ekanligini aniqladilar. 1934-yilda I. Jolio va Kyurilar sun'iy radioaktivlik hodisasini ochdilar.

XULOSA

Fizika tekshiradigan hodisalarni miqdoriy tahlil qilishda matematikadan keng foydalanadi. Hodisalarning o'tishi va ularning tabiatidagi murakkablikka qarab qo'llaniladigan mat. usullari ham murakkablashadi. Hozirgi davrda elementar matematika, differensial, integral hisoblar, analitik geometriya, oddiy differensial tenglamalar bilangina cheklanib qolish mumkin emas. Masalan, maydon nazariyasida tenzorlar, operatorlar kabi tushunchalardan keng foydalaniladi. Fizikaning rivojlanishi hamma vaqt boshqa tabiiy fanlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib kelgan. Fizikaning rivojlanishi boshqa tabiiy fanlarning rivojlanishiga va ko'pgina hollarda yangi fanlarning vujudga kelishiga olib kelgan. Masalan, fiziklar tomonidan mikroskopning ixtiro etilishi kimyo, biologiya, zoologiya fanlarining keng ko'lamda rivojlanishiga sabab bo'ldi. Teleskopning yaratilishi, spektral analiz qonunlarining kashf etilishi astronomiya fanining rivojlanishini jadallashtirdi. Elektromagnit induksiya hodisasining kashf etilishi va radioning ixtiro etilishi elektronika va radiotexnika fanlarining vujudga kelishiga olib keldi. Juda ko'p sohalar borki, ularni fizika boshqa fanlar bilan birgalikda o'rganadi. Shu tariqa kimyoviy fizika, biofizika, astrofizika, geofizika va boshqa fanlar vujudga kelgan. Fizikada yaratilgan kashfiyotlar texnikaning turli sohalari rivojlanishiga, provardida sanoat va xalq xo'jaligining jadal rivojlanishiga olib kelgan. Kundalik hayotda ishlatilayotgan elektr yoritkich asboblari, radiopriyomniklar, televizorlar, zavod va fabrikalardagi turli xil stanoklar, zamonaviy elektron hisoblash mashinalari, samolyotlar va boshqalar fizikadagi yaratilgan kashfiyotlarning natijasidir. O'z navbatida, texnika fanlarining erishgan yutuqlari fizikaning yanada rivojlanishiga sababchi bo'lgan. Texnikaning, umuman xalq xo'jaligining rivojlanib borishida uzluksiz ravishsa vujudga keluvchi fizik muammolarni hal etib borishga to'g'ri keldi. Bu esa texnika fanlarining hamma vaqt fizika bilan hamkorlikda ish olib borishini taqozo etadi. O'zbekistonda yadro fizikasi,

fizik elektronika, qattiq jismlar fizikasi, yuqori energiyali va kosmik nurlar fizikasi, yarimo'tkazgichlar fizikasi, akustooptika, akustoelektronika, lazerlar fizikasi, geliofizika, geliotexnika va boshqa fizika sohalarida muhim yutuqlarga erishildi.

Adabiyotlar:

- 1.Kudryavsev P.S, Kratkiy kurs istorii fiziki, Moskva, 1974.
- 2.M.N.Rahmatov, Vatanimiz fiziklari, Toshkent, 1983.
- 3.M.Ahadova, O'rta Osiyolik mashhur olimlar va ularning matematikaga doyr ishlari, Toshkent, 1983.
- 4.Klassicheskaya nauka Sredney Azii i sovremennaya mirovaya sivilizatsiya, Toshkent, 2000.
5. <http://metodist.11.vu>. - metodika prepodovaniya fiziki.
6. www.phys-campus.bspu.secna.ru.
7. www.mtuci.vu.
8. www.afpovtal.kulichki.com.
9. www.college.ru

FIZIKADA TA'LIM VOSITALARI VA TA'LIM NATIJARINING BOG'LIQLIGI

Meliboyeva Dilobar Melimurodovna
Surxondaryo viloyati oltinsoy tumani
6-maktab fizika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada fizika fani ta'lim vositalari va fizika ta'lim natijalari xususidagi fikrlar berilgan.

Kalit so'zlar: fizik ta'lim vositalari, fizik ta'lim natijalari, o'qish vositalari, tajriba, tahlil.

Аннотация: В этой статье даются идеи о средствах обучения физике и результатах обучения физике.

Ключевые слова: средства физического воспитания, результаты физического воспитания, средства обучения, опыт, анализ.

Aannotation: this article provides ideas on the educational tools of physics and the results of physical education.

Keywords: physical education tools, physical education results, reading tools, experience, analysis.

KIRISH

Respublikamiz mustaqillikka erishgach ta'limi tizimida tub o'zgarishlar sodir bo'ldi: jamiyat taraqqiyotini yoshlarning hayot, ishlab chiqarish, milliy hamda umuminsoniy munosabatlarga sadoqati bilan o'lchash imkoniyatlari kengaydi; yoshlarning ta'lim-tarbiyasi bilan mashg'ul ijtimoiy institutlar son va sifat jihatidan o'sdi - litsey, kollej, magistratura, universitetlar ko'paydi; zamonaviy o'quv dasturlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalari yaratildi; Davlat ta'lim standart (DTS)lari tanlanib, pedagogik amaliyotga tatbiq etila boshlandi; o'qituvchilarning bahs va mushohadalarida pedagogik texnologiyaga oid qarashlari munosib o'rin egalladi. Hozirgi sharoitda pedagogik texnologiya g4oyalarini maktab amaliyotiga olib kirish davlat buyurtmasi hisoblanadi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov shunday deb yozgan edi: «Yangi darsliklami, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o'z vaqtida ishlab chiqish va joriy etishni ta'minlashni alohida nazorat ostiga olish zarur». Istiqbolga yo'nalgan bu zalvorli vazifani hal etish an'anaviy ta'lim tizimini yaxshi ma'noda taftish qilishni, ta'lim jarayoni qobig'ida yashirinib yotgan imkoniyatlamini izlab topish va ishga tushirishni, XXI asr maktabining tabiati va mohiyatiga, xalqimizning milliy mintalitetiga, o'quvchilarining real bilish imkoniyatlariga mos ta'lim tizimini asoslashni taqozo qiladi. Ilm fan axborotlarining hozirgi davr o'sish tezligi va hajmi ulami o'tgan 15-20-yildagi holatidan keskin farq

qiladi. Shu bois talab zamonaviy talablarga ko'proq moslashgan shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarini yaratishni taqozo qiladi

Yigirma birinchi asrda tadqiqotchilar tomonidan fizika haqidagi kontseptual tushunchalar, muammolarni hal qilish, e'tiqodlar va munosabatlarni baholash uchun ko'plab innovatsion vositalar aniqlandi. Shunga qaramay, fizika bo'yicha muammolarni hal qilish bo'yicha turli xil baholash vositalarining yetishmasligi ko'zga tashlanmoqda. Bu fizika sohalarining murakkabligidan dalolat beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, fizikadagi muammolarni hal qilish ko'nikmalari sohasidagi asosiy to'siqlar matematik qobiliyatlarning pastligi, pedagogik, didaktik usullardan xabarsizlik va muammoni tushunmaslikdir. Bu to'siqlarni yengib o'tish uchun o'qituvchilar yetarlicha topshiriqlar berishlari va o'quvchi bilan mustaqil topshiriqlar asosida ko'proq ish olib borishlari lozim.

ASOSIY QISM

Vosita keng ma'noda inson bilan mehnat predmeti o'rtasiga qo'yiladigan moddiy va nomoddiy narsalardir. Masalan, 8-sinf fizika darsligidagi «Jismlarning o'zaro ta'siri. Kuch» mavzusini tushuntirishda prujina, yuklar va kuchni o'lchovchi asbob dinamometr sinfga olib kirildi, deb tasavvur qiling. Darsga olib kirilgan detallar o'qituvchi uchun vosita vazifasini o'taydi. O'qituvchi sinfga olib kirgan detallarni o'zi bilan o'quvchilar o'rtasiga qo'yib rejalashtirilgan natijaga erishadi. Yana bir misol: boshlang'ich sinflarda predmet darslari o'tiladi. Poliz mahsulotlarini tushuntirish uchun bodring, qovun, tarvuzni sinfga olib kirish mumkin. Har ikkala holatda ham - prujina, yuklar, poliz mahsulotlari moddiy narsalardir. O'qituvchi o'z mashg'ulotlarida foydalanish uchun turli chizma, jadval, diagramma kabilarni ham ko'rgazma qurol sifatida darsxonasiga olib kirishi mumkin. Bu tipdagi vositalarni nomoddiy vositalar qatoriga kiritamiz. Moddiy va nomoddiy narsalar faqat o'qituvchi uchun fizika ta'limi vositasidir. Ular o'quvchi uchun ta'lim manbasi sanaladi. Xo'p, shunday ekan, o'quvchi uchun fizika ta'limi vositalarini qanday tushunish kerak? Shu savol munosabati bilan ilmiy pedagogik manbalardan olingan bir ko'chirmaga diqqatni qaratamiz. «O'qish vositalari - o'quvchining o'zida. O'quvchida shakllangan ijtimoiy tajriba, o'zlashtirilgan bilimlar, malakalar, ijodiy faoliyat va aqliy mehnat usullari o'quvchi uchun vosita vazifasini o'taydi» [1,22]. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, o'quvchi o'qish-o'rganish jarayonida o'zi bilan o'rganilayotgan obyekt o'rtasiga o'z xatti-harakatlari, orttirgan tajribasi, shakllangan aqliy faoliyat usullari, bilim va malakasi, aqliy mehnat usullarini qo'yib, ko'zlangan natijaga erishadi, o'z oldiga qo'yilgan maqsadni amalga oshiradi. Bu hodisaga maktab tajribasidan olingan juda ko'p misollarni keltirish mumkin. Ko'paytirish usullarini puxta bilgan o'quvchi bo'lish usullarini amalga oshirishda nisbatan oz vaqt sarflaydi. Shuningdek, geometriya va algebradan ma'lum tayyorgarlik ko'rmagan o'quvchining trigonometrik hodisalarni tushunishi, masala va

misollarni bajarishi amri mahol. Shunga o'xshab fotosintez hodisasini o'rganish, tushunishda ximiya, fizikadan o'rganilgan bilimlardan foydalaniladi. O'quv predmetini o'qitishning deduktiv yo'llaridan mohirona foydalana olmagan o'qituvchi ta'limning induktiv usullarini san'atkorona qo'llay bilmaydi. Moddalarning molekulalardan tuzilganligi to'g'risidagi tasavvurlami egallab olmagan o'quvchi jismlarning o'zaro ta'sirini puxta egallay bilmaydi. Bunday misollarni yana davom ettirish mumkin. Keltirilgan misollardan ko'rinadiki, oldin o'rganilgan bilim, malaka, faoliyat usullaridan vosita sifatida foydalanish faqat maktab o'quvchisi uchungina mansub bo'lmasdan, barcha kasb egalari uchun umumiydir. Garchand, pedagogikada, shuningdek, psixologiyada ham, ta'lim vositalarining moddiy va nomoddiy shakllari qancha ko'p o'rganilgan bo'lsa-da, bir hodisani o'rganish yo'li bilan erishilgan natijani ikkinchi hodisani o'zlashtirishda vosita sifatida ishlatish, turli misol, masalani bajarish yo'li bilan chiqarilgan xulosani yangi misol, masalani bajarishda vosita sifatida qo'liash fanda haligacha atroflicha o'rganilmagan. Ushbu tadqiqotda «fizika ta'limi vositasi» tushunchasi ana shu ma'noda - o'rganilgan fizikaviy bilim, malaka, faoliyat usuli, hayotiy tajribadan o'quv faoliyati vositasi vazifasida foydalanish ma'nosida qo'llanadi.

XULOSA

Ta'lim natijalarini aniqroq tavsiflashga «Didaktika» darsligida to'g'ri yondashilgan: «O'quvchi faoliyatining mahsuli (natijasi) uni ta'lim jarayonida o'quvchi oldiga qo'yilgan maqsadga taqqoslash yo'li bilan o'lchanadi. Shuningdek, erishilgan natija qo'yilgan maqsadga qancha yaqinlashsa, ta'lim shuncha samarador sanaladi» [2]. Mualliflar ta'lim natijasini o'zlashtirish darajalari bilan aloqadorlikda o'rganishgan. Fizika ta'limi natijasini o'zlashtirish jarayoni bilan daxldor hodisa deb qaraymiz. Shu munosabat bilan quyidagi fikrga e'tibomi qaratamiz. O'zlashtirish psixologik hodisa bo'lib, quyidagi hodisalar tizimidan iborat: idrok etish, tushunish, fikrlash, umumlashtirish, mustahkamlash, tatbiq qilish [2,31-32].

Fikrimizcha, o'zlashtirishni faqat psixologik hodisa sifatida qarash mantiqan to'g'ri emas. Garchand, o'zlashtirish jarayonidagi idrok qilish, bilish, tushunish kabi hodisalar psixologik zaminga ega bo'lsa-da, o'zlashtirishning o'zi juda keng qamrovli hodisadir. «O'quvchi turli o'quv materialini o'zlashtirar ekan, o'z faoliyatida avlodlar faoliyatini ham jonlantiradi. O'zlashtirish - o'z faoliyati natijasini o'z galar faoliyati natijasiga qo'shib ko'rsatishdir» [3, 130]. Bundan ko'rinadiki, mualliflar o'zlashtirishni ijtimoiy tajriba va shaxs tizimida qarashni taklif qilishgan. Ma'lum bo'la-diki, o'zlashtirish keng qamrovli ijtimoiy hodisa bo'lib, tarixiv-madaniy muhit, qabul qilingan an'analar, o'zlashtirishning fiziologik, psixologik, pedagogik mexanizmlari bilan daxldor hodisadir. Ta'lim natijasi o'zlashtirish kategoriyasi kontekstida qaraladigan, qo'yilgan maqsadga ko'ra tahlil qilinadigan. ma'lum vositalarni ishlatib erishiladigan, o'quvchilarning individual qobiliyatlariga ko'ra baholanadigan samara (hosila)dir. Xo'p, shunday ekan, ta'lim natijasini o'lchash birligi sifatida nimani ajratish

kerak? O'zlashtirish, o'quv materialii bilan dastlabki uchrashishdan tortib, uni o'quvchilarning o'z mulkiga aylantirishigacha bo'lgan hodisalar - idrok etish, bilish, tushunish, tahlil qilish, qayta qo'shish, tatbiq etish, baholash jarayonlaridan iborat. Fizika ta'limi jarayonida amal qiladigan didaktik hodisalarda o'quvchilar o'zlashtirishining qator xususiyatlari namoyon bo'ladi. Bu hodisalaming madaniy-etnik (masalan, milliy), falsafiy, psixologik, pedagogik xususiyatlari mavjud. Davr talabi uchun melanholik (sekin siljiydigan) ta'lim emas, ko'tarinki, his-hayajonlarga boy, jadal ta'lim zarur. Bu uning madaniy-etnik xususiyatidir. Ta'lim sharoitida o'quvchilar bilishining falsafiy xususiyatlari empirik, nazariy, ratsional bilish bilan izohlanadi. Ta'lim jarayonida idrok, hissiyot, xotira, tafakkur hodisalarining amal qilishi o'quvchilar o'zlashtirishining psixologik jihatlari hisoblanadi. Didaktik hodisalarni tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish o'quvchilar o'zlashtirishining pedagogik jihatlari sanaladi.

Adabiyotlar:

1. Roziqov O va boshqalar. Ta'lim texnologiyasi, -T.: O'qituvchi, 1999, 71 b.
2. Roziqov O va boshqalar. Didaktika, -T.: FAN, 1997, 256-b.
3. Икромов Дж. Язык обучения математике. -Т.: Укитувчи, 1989.- с.176.
4. Yo'ldoshev J. G \ Xorijda ta'lim. -Toshkent: Sharq, 1995.
5. Qahhorov S. Ta'lim jarayonining davriyligi qonuniyati. -Buxoro, 2000.
6. Qahhorov S.Q. Fizika ta'limida o'quvchilarning biluv faoliyatini davriy boshqarish. - Buxoro, 2003.
7. Qahhorov S.Q. Fizika ta'limini davriy tashkil etishning metodik konsepsiyasi. - Buxoro, 1998.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ НОВЫХ ИННОВАЦИЙ И ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРЕЕМСТВЕННОСТИ

Холтураева Барно Рустам кизи

Термезский государственный педагогический институт

Аннотация: В данной статье рассматривается влияние инновационных педагогических технологий на повышение качества образования, а также требования к использованию инновационных педагогических технологий в образовании.

Ключевые слова: интеллект, инновации, педагогический процесс, образование, педагогика, технология, подготовка кадров, потенциал, тенденция.

ВВЕДЕНИЕ

Известно, что современные социально-экономические условия, в том числе высокие требования, предъявляемые к духовно-этическому, интеллектуальному и профессиональному потенциалу будущих специалистов, ставят перед образовательными учреждениями задачу подготовки качественных кадров, соответствующих международным требованиям. Для решения этих задач необходимо использовать инновационные педагогические технологии в образовании. При этом постепенно осваиваются современные тенденции в системе образования нашей страны, современный опыт реформирования инновационных педагогических технологий, используемых в системе образования развитых зарубежных стран.

В нашей республике непрерывное образование составляет основу системы подготовки кадров, которая является приоритетным направлением, главным образом удовлетворяющим научные, технические и культурные потребности личности, общества и государства в процессах, обеспечивающих социально-экономическое развитие, а также в связи с этим формирование творческой, социально активной, духовно богатой личности создает необходимые условия для такой непрерывный образовательный процесс считается наиболее благоприятным периодом для принятия человеком комплексного решения. В этот период человек познает основы науки и профессиональных знаний, созревает как личность с высокими духовно-нравственными качествами и как квалифицированный работник. В частности, формируется определенное мировоззрение.

Образование – образование дает возможность человеку понять существование и его тайны, адаптироваться к постоянно развивающемуся миру, сформировать мировоззрение, внести вклад в гуманизацию общества.



Известно, что мощь и уровень развития любой страны определяется системой образования. Отношение государства к этой системе определяет ее будущее. В настоящее время непрерывное образование в Республике Узбекистан включает в себя следующие виды образования:

- -дошкольное образование;
- -общее среднее, среднее специальное образование;
- - профессиональное образование
- -высшее образование;
- - послевузовское образование;
- - повышение квалификации кадров и их переподготовка;
- - внеклассное образование.

В Республике Узбекистан сформирована система 11-летнего общего среднего образования, академических лицеев и техникумов, их роль в подготовке кадров несопоставима. Подобные работы можно оценить как беспрецедентное за короткий период времени событие в истории. Кроме того, вопросы целостности и преемственности в образовательной системе рассматривались на высоком уровне, а функции ее компонентов были четко определены и установлены. требуется обеспечить планомерное выполнение поставленных задач. В связи с этим выполнение государственных требований оценивается через статистическую систему. Хотя этот статистический подход и оценка отличаются рядом преимуществ, он не позволяет учесть некоторые ситуации, которые могут возникнуть в динамических системах. Известно, что существует несколько проблемных вопросов в обеспечении качества системы непрерывного образования.

В том числе нормативные документы системы непрерывного образования, которые служат для определения содержания образования, анализа связности образовательных программ, работы по предотвращению их повторения между этапами по каждому предмету, а также развития связности. по координации содержания учебников на основе научных программ. Президент подчеркнул необходимость «совершенствования школьных программ на основе передового зарубежного опыта, пересмотра учебных программ и предметов, адаптации их к международным стандартам, повышения качества учебников и литературы», а также «Стандартов высшего образования на основе зарубежного опыта». пересмотреть учебные направления и предметы, а количество предметов, не связанных со специализацией, сократить вдвое». По этому вопросу были организованы встречи и семинары, сформированы рабочие группы. В результате анализа установлено, что существуют следующие проблемы с точки зрения обеспечения преемственности в системе непрерывного образования:

- ✓ неэффективное использование времени – повторение, неэффективное использование времени преподавателя и ученика в обмен на избыточное время;
- ✓ отсутствие связности – в связи с междисциплинарным характером непрерывного образования наблюдаются дисбалансы в выборе объектов и предметов, а также в содержании;
- ✓ повторение тем – наличие точного или содержательного повторения тем на межвидовых этапах непрерывного образования;
- ✓ слишком много часов по некоторым предметам – избыточное время, отведенное некоторым предметам на учебных этапах. Тем более что очень много времени уделяется теоретической подготовке и урокам.

ЛИТЕРАТУРНЫЙ АНАЛИЗ И МЕТОДОЛОГИЯ

Педагогическая инновация, основанная на высокой социальной значимости образования в устойчивом развитии общества, современных требованиях, проблемах в системе и обеспечении связи звеньев науки и образования при их решении, непрерывного педагогического образования в систему кластерного развития требует необходимости перевода . Кластерная система развития педагогического образования действует по общим направлениям, связанным с преподаванием, созданием учебной литературы, повышением научного потенциала педагогических кадров, интеграцией образования и обучения. На данный момент эти общие направления специализируются на таких направлениях, как управление и организация образования, обеспечение

связности и интеграции между видами и направлениями образования, использование методов и средств обучения.

На данный момент инновационный кластер педагогического образования определен основным научно-исследовательским направлением института, и сейчас более тридцати профессоров и преподавателей проводят исследования в этом научно-исследовательском направлении. Все наши усилия направлены на то, чтобы в полной мере обеспечить реализацию задач, определенных решением Уважаемого Президента, качественно удовлетворить потребность региона в педагогических кадрах, подготовить современные конкурентоспособные педагогические кадры с привлечением передового зарубежного опыта в сфере. .

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ

В воспитании современного интеллектуального человека оно охватывает все стороны интегративного воспитания (умственное, нравственное, экономическое, трудовое, эстетическое, гигиеническое, юридическое, физическое воспитание) и обеспечивает их взаимозависимость. В процессе интегративного образования учащийся познает целостность мироздания, мироздания, законы природы, взаимосвязь между природой, обществом и людьми. Он будет обладать навыками чувствовать красоту природы, наслаждаться ею и восхищаться ею. В условиях глобализации образования необходимо поддерживать более широкую междисциплинарность. Опираясь на принцип междисциплинарности, образовательные учреждения должны иметь прикладной тон образовательного процесса. Принцип междисциплинарности обеспечивает полную редукцию сложных аспектов отношений между схожими учебными предметами, обеспечивает проникновение знаний во внутреннюю сущность, в результате чего различные системы внутренне связаны и создается интегративная целостность.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

В заключение следует подчеркнуть, что на современном этапе развития нашего общества формируется система непрерывного образования, педагогического образования, которая обеспечивает внутренние и межотраслевые связи в инновационном образовании, научных исследованиях, научно-методических учреждениях, научных достижениях. преподносится как важнейшая система ближайшего будущего, эффективно реализующая достижения образовательной и социально-экономической жизни. При этом образовательные учреждения и другие заинтересованные стороны общества должны обеспечивать взаимную и непрерывную связь, конечный продукт образовательного процесса - воспитание высококвалифицированных педагогов и создание научных, творческих, духовных и экономических возможностей на благо общества.

REFERENCES

1. O'.Tolipov, D.Ro'ziyeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat T: Innovatsiya-ziyo, 2019. MODELS AND METHODS IN MODERN SCIENCE International scientific-online conference 44
2. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanishi / metodik qo'llanma. Tuzuvchilar D.Ro'ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Holiqova. - Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013.- 136 bet.
3. O'.Tolipov, M.Usmonboyeva, Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. Fan, 2005.
4. Inomjonovna, R. I. (2023). FACTORS OF WORKING WITH VIOLENT CHILDREN AND ADULTS USING ART THERAPY TECHNOLOGIES. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 1(5), 80-88.
5. Inomjonovna, R. I. (2023). FACTORS FOR THE DEVELOPMENT OF IMAGING SKILLS OF PRESCHOOL CHILDREN. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 1(5), 74-79.
6. Inomjonovna, R. I. (2023). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PICTURE ACTIVITY IN EDUCATIONAL PERSONALITY. *Journal of new century innovations*, 22(1), 113-118.
7. Inomjonovna, R. I. (2023). HUMAN CAPABILITIES-SOCIAL DEVELOPMENT IS A PRODUCT. *Journal of new century innovations*, 22(1), 119-124.
8. Inomjonovna, R. I. (2023). DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITY AND IMAGINATION IN CHILDREN. *Journal of new century innovations*, 22(1), 108-112.
9. Inomjonovna, R. I. (2023). ART AS A COGNITIVE ACTIVITY IN THE LIFE OF CHILDREN. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 14(4), 132-137.
10. Inomjonovna, R. I. (2023). INFLUENCE OF INNOVATIVE IDEAS ON HUMAN PSYCHOLOGY IN TEACHING PAINTING TECHNIQUE THROUGH ART THERAPY. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(2), 126-134.
11. Inomjonovna, R. I., & Vofuqulovna, B. D. (2023). UZBEKISTAN IS A CENTER OF SCIENCE, ENLIGHTENMENT AND CULTURE. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 1(6), 199-206.
12. Inomjonovna, R. I. (2023). THE IMPORTANCE OF USING ART, ARTISTIC CREATIVITY AND ART THERAPY IN PREVENTING AGGRESSION IN CHILDREN. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(6), 383-389.
13. Goziev Yo.Yo. «Umumiy psixologiya» 1-2-tom. Toshkent-2002y.
14. Mahmudov M. O'quv materialini didaktik loyihalash tizimi. «Pedagogik mahorat», 2002 yil, 3-son, 3-11 betlar.
15. N.A. Muslimov "Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik" O'quv-uslubiy majmua. Toshkent: 2016. 30-31b.

TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA

№	The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi	Page / Страница / Sahifa
1	РАЦИОНАЛЬНОЕ ПИТАНИЕ - ОСНОВНОЙ ФАКТОР ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ	3
2	МИКРОСКОПИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОДУКТА ЛЕКАРСТВЕННЫХ ЦВЕТОВ И УКРОПА	6
3	MATERIALSHUNOSLIK ASOSLARI. ZANGLASH VA HIMOYA-MANZARALI QOPLAMALAR	12
4	RUS TILI FANINI O'QITISHNING SAMARALI USULLARI	19
5	TURKISTON JADIDCHILARINING MILLIY IQTISODIYOTIMIZNI RIVOJLANTIRISH G'OYALARI	21
6	HISTORIC MOSQUES AND MADRASAS IN KASHKADARYA OASIS	23
7	O'ZBEK VA RUS BUYUK YOZUVCHISI ALEKSANDR AKRADVICH FAYNBERG IJODING BUGUNGI KUNDAGI O'RNI VA ROLI	27
8	O'ZBEKISTON MUSTAQILLIKKA ERISHISH OSTONASIDA	30
9	АВТОМОБИЛ ВА АВТОТРАНСПОРТ ТАРАҚҚИЙОТИ	34
10	АЛЛЕРГОЛОГИЧЕСКИЕ ЗАБОЛЕВАНИЯ	39
11	ИНФЕКЦИОННЫЕ ЗАБОЛЕВАНИЯ. ОСТРАЯ РЕСПИРАТОРНО-ВИРУСНАЯ ИНФЕКЦИЯ. ОРВИ	42
12	ИШЕМИЧЕСКИЕ БОЛЕЗНИ СЕРДЦА	51
13	МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА БОЛАЛАРНИ МАКТАБ ТА'ЛИМИГА ТАЙЙORLASHDA "ILM YO'LI" VARIATIV DASTURINING AHAMIYATI	60
14	ODAM ORGANIZMIDAGI MAKRO VA MIKRO ELEMENTLARNING FUNKSIYASI	66
15	ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI DARS JARAYONIDA QOLLANILISH SAMARASI	69
16	YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI DARS JARAYONIDA QO'LLANILISHI	73
17	YANGI VA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODLARI	77
18	ЖИНОЯТ-ИЖРОИЯ КОДЕКСИНИНГ ЖАЗОНИ ИЖРО ЭТИШ ТИЗИМИНИНГ ПОЙДЕВОРИ СИФАТИДАГИ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ	81
19	NON MAHSULOTLARI TURLARI VA ULARNING FOYDALI TARKIBI	91
20	O'QUVCHILARGA FIZIKA FANINI O'QITISHNING INNAVATSION USULLARI	94
21	IMPROVING INTERNATIONAL CURRENCY TRANSACTIONS	98
22	FINANCIAL ANALYSIS OF HOUSEHOLD ECONOMY	103
23	MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING TASHQI SIYOSATI – MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO'STLIGI	107

24	O'QUVCHILARGA FIZIKA FANINI O'QITISHNING INNOVATSION USULLARI	111
25	ПОНЯТИЕ И ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВАЯ ЗАЩИТА ПРАВА СОБСТВЕННОСТИ. РЕФОРМЫ В СФЕРЕ ПРАВА СОБСТВЕННОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	117
26	THE ROLE OF INTERACTIVE TASKS IN INCREASING COGNITIVE INTEREST IN LESSONS	134
27	ТОВАРОДВИЖЕНИЕ И ДИСТРИБЬЮЦИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ	137
28	TERAPEVTIK BEMORLARNI DAVOLASHDA BEMORLARNI PARVARISHLASH QILISH USULLARI	143
29	CHAQALOQLARDA KINDIK KASALLIKLARI	148
30	GERIATRIK MODDALAR VA GERIATRIK YORDAMNI TASHKIL QILISH	152
31	DORIVOR O'SIMLIKLARNING INSON SALOMATLIGI VA TIBBIYOTDAGI AHAMIYATI	156
32	BEPUSHTLIK SINDROMI	160
33	SO'Z SAN'ATI SEHRGARI	164
34	V- VI QARAQALPAQ KLASLARIDA INGLIZ TILIN OQITIWDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARDI QOLLANIW USILLARI	179
35	RAHBAR FAOLIYATINI TASHKILLASHTIRISHDA JAMOATCHILIK ISHTIROKINI KUCHAYTIRISH	188
36	HODIMNING TASHQI QIYOFASI VA NUTQ ODOBI	193
37	ARAB XALIFALIGI ABBOSIYLAR DAVRIDA	197
38	SAMIMIY ORZULAR KUYCHISI	201
39	FIZIKA TARIXINING O'ZIGA XOS BOSQICHLARI RIVOJI	204
40	FIZIKADA TA'LIM VOSITALARI VA TA'LIM NATIJALARINING BOG'LIQLIGI	210
41	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ НОВЫХ ИННОВАЦИЙ И ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРЕЕМСТВЕННОСТИ	214

***Напоминание!** — Образование наука и инновационные идеи в мире || Авторы несут персональную ответственность за правильность цифр и данных в статьях и планах занятий, включенных в мировой научно-методический журнал, и за правильность приведенных цитат.*


**Главный редактор:
Семёнов Владимир Львович**

**Помощник редактора:
Абдурахманов Бобуржон**

**Подготовитель к публикации:
Халиков Тохирджон Шавкатжонович**

— Образование наука и инновационные идеи в мире всемирный научно-методический журнал, 2023-г.





OPEN  ACCESS

